


B. D. NARZIYEV

ITLARNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI



O'quv qo'llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

B.D.NARZIYEV

ITLARNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

**70840106-KINOLOGIYA VA IT KASALLIKLARI
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI TALABALARI UCHUN
O'QUV QO'LLANMA**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazi, 2024**

636.7
N 25

UO'K: 636.088

KBK: 45.5 : 85.354.7

B.D.Narziyev. Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 112 b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485 - sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi:

1. **B.D.Narziyev** - "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrasini mudiri, v.f.n., professor v.b.


Taqrizchilar:

1. **Y.S.Salimov** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Farmakologiya va toksikologiya" kafedrasini mudiri, veterinariya fanlari doktori, professor;

2. **O'.X.Berdiyev** – Samarqand viloyati IIB JXX JTSB kinologiya bo'linmasi boshlig'i.

O'quv qo'llanma "Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari" fani bo'yicha 708640106- "Kinologiya va it kasalliklari" mutahassisligi 1-bosqich magistr lari, fakultet talabalari, Bojxona hamda Chegara qo'shinlari tarkibidagi kinologlar tayyorlash maktablari va kinolog inspektorlar uchun mo'ljallangan.

ISBN: 978-9910-8603-4-8



I. Kirish.

Dunyo mamlakatlarida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi urashish, noqonuniy qurol savdosini oldini olish hamda quriqlash tizimlarida kinolog mutaxassislar va xizmat itlari samarali faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda ko'plab kinologiya xizmatlari va pitomniklari tashkil etilgan bo'lib, ularda xizmat itlarini ko'paytirish, o'rgatish va xizmat xususiyatlarini oshirish bo'yicha tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Dunyo miqyosida xizmat itlaridan foydalanishning ko'payishi, ularni saqlashda sanitariya gigiyena qoidalarining buzilishi va turli noqulay ekologik omillar ta'sirida har-xil yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarning uchrash darajasi kengayib bormoqda. Xususan, xizmat va aholi qaramog'idagi itlarda keng tarqalgan kasalliklarning epizootologik holatini aniqlash, kasalliklarga o'z vaqtida tashxis qo'yish, zamonaviy davolash va qarshi kurash choralari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi¹, 2020 yil 5 iyundagi PF-6005-son «Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» Farmonlari va Vazirlar mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 21-son «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari asosida kuch salohiyatiga ega bo'lgan tuzilmalarda Milliy kinologiya markazlari tashkil qilingan va uning tarkibida pitomnik (xizmat itlarini tayyorlash joyi) hamda kinolog inspektorlar tayyorlash maktabi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kinologiyani rivojlantirish maqsadida va unga malakali kadrlarni tayyorlash uchun Samarqand qishloq xo'jalik institutida "Kinologiya va it kasalliklari" mutahassisligi bo'yicha magistratura ochildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi¹ PF-60-sonli farmoni.

636.7
N 25
UO'K: 636.088

KBK: 45.5 : 85.354.7

B.D.Narziyev. Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 112 b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485 - sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi:

1. B.D.Narziyev - "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrasini mudiri, v.f.n., professor v.b.


Taqrizchilar:

1. Y.S.Salimov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Farmakologiya va toksikologiya" kafedrasini mudiri, veterinariya fanlari doktori, professor;

2. O'.X.Berdiyev – Samarqand viloyati IIB JXX JTSSB kinologiya bo'linmasi boshlig'i.

O'quv qo'llanma "Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari" fani bo'yicha 708640106- "Kinologiya va it kasalliklari" mutahassisligi 1-bosqich magistr lari, fakultet talabalari, Bojxona hamda Chegara qo'shinlari tarkibidagi kinologlar tayyorlash maktablari va kinolog inspektorlar uchun mo'ljallangan.

ISBN: 978-9910-8603-4-8



I. Kirish.

Dunyo mamlakatlarida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilik va giyohvandlikka qarshi urashish, noqonuniy qurol savdosini oldini olish hamda quriqlash tizimlarida kinolog mutaxassislar va xizmat itlari samarali faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda ko'plab kinologiya xizmatlari va pitomniklari tashkil etilgan bo'lib, ularda xizmat itlarini ko'paytirish, o'rgatish va xizmat xususiyatlarini oshirish bo'yicha tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Dunyo miqyosida xizmat itlaridan foydalanishning ko'payishi, ularni saqlashda sanitariya gigiyena qoidalarining buzilishi va turli noqulay ekologik omillar ta'sirida har-xil yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarning uchrash darajasi kengayib bormoqda. Xususan, xizmat va aholi qaramog'idagi itlarda keng tarqalgan kasalliklarning epizootologik holatini aniqlash, kasalliklarga o'z vaqtida tashxis qo'yish, zamonaviy davolash va qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi¹, 2020 yil 5 iyundagi PF-6005-son «Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» Farmonlari va Vazirlar mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 21-son «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari asosida kuch salohiyatiga ega bo'lgan tuzilmalarda Milliy kinologiya markazlari tashkil qilingan va uning tarkibida pitomnik (xizmat itlarini tayyorlash joyi) hamda kinolog inspektorlar tayyorlash maktabi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Kinologiyani rivojlantirish maqsadida va unga malakali kadrlarni tayyorlash uchun Samarqand qishloq xo'jalik institutida "Kinologiya va it kasalliklari" mutahassisligi bo'yicha magistratura ochildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi¹ PF-60-sonli farmoni.

Kinologiya – itlar haqidagi fan bo‘lib, itshunoslik, ya’ni itlarning tuzilishi, kelib chiqishi hamda ularni asrash, oziqlantirish, turli xil xizmatlar uchun tayyorlash, o‘stirish va urchitish to‘g‘risidagi fandır.

It – hayvonlar orasida odam uchun eng sodiq jonivor hisoblanadi. J.Kyuvening ta’kidlashicha itlar insoniyat uchun eng noyob, foydali va o‘ta mukammal topilmalardan biridir. Inson itlarning o‘ta zehnliligi, hidlarni o‘tkir sezishi, yaxshi ko‘rishi, eshitishi, tez chopishi va chidamliligini oldindan sezib, ularni boshqa hayvonlarga nisbatan o‘ziga yaqinlashtirgan.

Qadimdan odamlar itlardan ov jarayonlarida hamda turar joylarni qo‘riqlash maqsadlarida foydalanishgan. Shuningdek, itlarni harbiy sohada qo‘llash, ayniqsa yaxshi samara beradi. Ulardan chegaralarni qo‘riqlashda, jinoyatchilarni topib ushlashda, portlovchi va giyohvand moddalarni qidirishda, harbiy qurilmalarni qo‘riqlashda keng foydalanilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, itlar odamlarga nafaqat ruhiy ko‘mak beradi, balki iqtisodni rivojlantirishga ham o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Mazkur qo‘llanma o‘zbek tilida ilk marotaba chop etilib, unda berilgan ma’lumotlardan kinologlar, veterinariya vrachlari, veterinariya va zoomuxandislik fakultetlari talabalari, magistrlar va umuman itlarga mehr qo‘ygan odamlar foydalanishsa, o‘z navbatida biz ham oldimizga qo‘yilgan maqsadga qisman bo‘lsada erishdik deb hisoblaymiz.

1. Itlarning kelib chiqishi.

Odamlar hali chorvachilik va dehqonchilik nimaligini bilmaganda, hamda ularning yashashi uchun birdan bir chora ov bo‘lganda, it odam qo‘lga o‘rgatgan uy hayvonlardan birinchisi edi. Bu paleolitda, to‘g‘rirog‘i tosh asrda, qachonki odam olovdan foydalanishni hamda toshdan va suyakdan birinchi mahsulotlarni yasashni boshlaganda vujudga kelgan. Shundan buyon, mana 30-40 ming yildirki it odam bilan birga.

Uy hayvonlari ibtidoiy odamning hayotini va mehnatini yengillashtirganlar, o‘z tomonidan, odam ham faqat unga foydali bo‘lgan turlarni urchitgan va takomillashtirgan. Chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish, yangi uy hayvonlarning paydo bo‘lishi (ot, qo‘y, qoramol) itni “takomillashtirdi” chunki u ovda ishlatilishidan tashqari podani va egasining uyini qo‘riqlaydigan bo‘ldi.

Itlarning uzoq ajdodlari bo‘lib yovoyi bo‘ri va shaqallar hisoblanadi. Buni bir nechta belgilar isbotlaydi: birinchida – ayrim zotlar

sun'iy tanlash ta'sirida kam o'zgarganlar va ko'p hislatlari bilan bo'rilarni eslatadilar (Yenisey, Chukotka, Kolima va Kanada Shimolining laykalari hamda nemis ovcharkasi); ikkinchidan – serpushtlik va itni bo'ri yoki shaqal bilan chatirishdan hosil bo'lgan va normal rivojlanadigan duragaylar; uchinchidan – layka va boshqa it zotlarining skeleti shaqalnikiga o'xshashligi; to'rtinchidan – xozir ham bo'ri, peses yoki tulkini osonlikcha qo'lga o'rgatish mumkin, shu bilan birga it odamning qarovidan qolsa tezda yovoyillashib ketadi. Ammo itlarga faqat bo'ri va shaqallar yaqin bo'ladi. Giena, peses, tulki va brazil itlari uy itlariga o'xashliklariga qaramasdan, ularning ajdodlari bo'lib hisoblanmaydi, chunki ular it bilan chatishtirganda avlod bermaydi.

Arxeologik qazishlar natijalari Osiyo va Yevropa xududlarida qadim zamonda uch tipdagi itlar yashaganligini ko'rsatdi:

1-tip – torf iti. Uning skeleti doim torf ichidan topilganligi sababli bunday ataladi. Torf itining bosh chanog'i shaqalnikiga o'xshaydi. Bunday itlarning bosh chanog'i zamonaviy pincher va tererlarnikini eslatadi. Torf itining avlodlari: russ-fin, nemis va boshqa laykalar hamda pincher, terer, chau-chau va shpislar.

2-tip – “Inostransev iti” – professor D.P.Akuchin tomonidan taklif qilingan. Bu itning suyaklari Krasnoyarsk, Amur qirg'oqlari, g'arbiy Qozog'iston, Krim, Smolensk, Abakan atroflarida topilgan. Inostransev iti torf itidan kattaroq bo'lib, u 20-30 ming yil avval qo'lga o'rgatilgan. Inostransev itining avlodlari: mug'ul, kavkaz, o'rta osiyo, tibet ovcharkalari, nyufaundlend, senbernar, dog, mastif, shimol-sharq laykalari.

3-tip – “Putyatin iti” - birgina ekzemplyari Novgorod guberniyasi atorfida topilgan. Bu itlar Inostransev itiga juda yaqin bo'lib fakat bosh chanog'i sa'l kalta, tumshug'i esa uzunroq.

Putyatin itining avlodlari: sharqiy itlar-pariyalar (turli zot metislari), zamonaviy dingo va ayrim laykalar.

Bronza asrida itlarning yangi tipi – bronza iti paydo bo'lgan. Bunday itlarning bosh skeleti janubda va Sibirda topilgan. Shunisi kiziqarli – ki – aynan shu davrda yangi, tamomila boshqacha qo'ylarning tipi paydo bo'lgan. Bu esa itlardan shu vaqtdan boshlab podani qo'riqlash uchun foydalanligini ko'rsatadi. Bronza itining bosh suyagi hamda Xindiston va Eronda yashagan Xindiston bo'risining bosh suyagi orasida anatomik o'xshashlik mavjud.

Bronza itining avlodlari: Yevropadan kelib chiqqan nemis, belgiya, fransuz ovcharkalari, kolli va ayrim laykalar.

Bronza asrining ikkinchi tipi ham bor – kul iti. Uning suyaklari sadaqa gulhanlarining kulidan topilgan. Bu hol ularning ovchi it bo'lganligidan dalolat beradi, chunki ov yaxshi bo'lishi uchun sadaqaga faqat qimmatli narsa keltirilgan. Avlodlari: tozi, iskavuch itlar, taksa va spaniel.

Tozi itlarning ajdodlari xanuzgacha aniq emas. Ammo tozilarning vatani Afrika ckanligi xech shubha tug'dirmaydi, chunki u yerda ularning ko'psonli tasvirlari topilgan.

Akademik S.I.Bogolyubskiy barcha yo'qolib ketgan va mavjud it zotlarini 5 asosiy tiplarga bo'lgan. Bu klassifikatsiya xozir ham qo'llanadi.

Birinchi tip – shpissimonlar. Ularning shajarasi bo'ri va shaqallardan keladi. Kadimgi shpislar Shveysarya, Rim imperiyasi, Sibir va Xitoyda ma'lum bo'lgan. Zamonaviy avlodlari: shpis, pincher, tererlar.

Ikkinchi tip – tozisimonlar. Bu itlar massiv bo'lib, ularning boshi keng, tumshug'i biroz kalta, quloqlari uzun va osilgan bo'ladi. Bu itlar Shimoliy Afrika (Misr) keyinchalik Rim, Gresiya va butun Yevropaning xonakilashtirilgan bo'ri-shaqallaridan kelib chiqqan. Ular chidamli, tez yuguradigan va yaxshi hid biladigan itlar. Undan tashqari bu guruhga poynter, setterlar, boshqa iskovuch tozilar, spaniellar va kalta oyoqli taksalar guruhi kiradi.

Uchinchi tip – tozilar – eng chopqir itlar. Ularning suyaklari ingichka, tumshug'i uzun, oyoqlari ancha uzun bo'ladi.

To'rtinchi tip – dogsimon itlar. Bu itlar eng yirik, kuchli hisoblanadi. Konstitutsiyasi xom va og'ir, lablari osilgan, muskulaturasi bo'sh. Jangovar it sifatida, bundan 15 ming yil avval qadimgi Misr, Assiriya, Vavilon, Eronda ma'lum bo'lgan. Karfagenliklar bunday itlarga temir sovutlar kiygizib dushman suvoriylariga qarshi jangga chiqqanlar. Doglar to'g'risida ma'lumotlar, Altayda topilgan eramizdan 2 ming yil avval yozilgan qo'lyozmalarda bor.

Bu guruhga barcha doglar, mastif, bulldog, mops, senbernar, nyufaundlend va Mug'uliston, Ispaniya, Kavkaz hamda O'rta Osie mahalliy it zotlari kiradi.

Beshinchi tip – ovcharkalar. Bu itlar, bronza asrida, ko'chmanchi cho'ponlarga yordamchi sifatida paydo bo'lganlar. Olimlarning fikriga ko'ra ular mahalliy laykalarni dogsimon, ov itlari va xindiston bo'rilar bilan chatishtirish natijasida kelib chiqqanlar. Bu guruhga kolli, nemis, venger, ukraina, shimoliy kavkaz ovcharkalari kiradi

Laykalar keltirilgan beshta tiplarga kirmaydi. Ularning nomi lay (ruscha) – xurish soʻzidan kelib chiqqan. Laykalarning bosh suyak tuzilishi har xil tiplarga oʻxshaydi. Barcha laykalarni oʻxshash feʼl-atvori birlashtiradi.

Janubiy Osiyo va Shimoliy Amerikada pariy - itlarning guruhi mavjud: bu itlar turli zotlarni chatishtirishdan kelib chiqqanlar.

Xonakilashtirish va sunʼiy tanlash taʼsirida, yillar davomida, itlarning skeleti va muskulaturasi, tana shakli va oliy asab sistemasi yangicha rivojlangan. Tana massasi kattalashgan yoki kichraygan, skeleti mustahkamlashgan yoki aksiga, kuchsizlangan. Shunga qaramasdan bu yagona biologik tur - *Canis lupus f. familiaris*.

II. Itlarning anatom - fiziologik tuzilishi.

1. Anatomiya va fiziologiya toʻgʻrisida tushuncha.

Anatomiya – organizmning tuzilishi va tashqi muhit bilan muntazam ravishda bogʻliq holdagi taraqqiyotini oʻrganadigan fan.

Fiziologiya – sogʻlom organizmda kechadigan hayotiy jarayon (funksiya) lar va ularning qonuniyatlarini oʻrganadigan fan.

Itlar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslarini oʻrganish katta amaliy ahamiyatga ega. Bu oʻz navbatida xizmat itchiligining nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Hayvon organizmi mikroskopik elementlar: hujayra, hujayradan tashqari tuzilmalar va shaklsiz moddalardan tashkil topgan. Hujayra tarkibida noorganik tabiatda uchraydigan barcha kimyoviy elementlar mavjud. Mazkur elementlar hujayrada organik va noorganik birikmalar holatida boʻladi. Organik moddalarning negizida oqsil, yogʻ va uglevodlar yotadi, noorganik moddalarning asosini esa mineral moddalar va suv tashkil qiladi. Hujayralarning asosiy tarkibi – protoplazma va yadrodan iborat.

Tuzilishi, moddalar almashinuvi va bajaradigan funksiyasi bir xil boʻlgan hujayralar guruhi va ularning tarkibidagi hosilalarning oʻzaro birlashishi natijasida toʻqimalar hosil boʻladi. Ular quyidagi toʻrt guruhga boʻlinadi: 1. Epiteliy yoki qoplovchi toʻqimalar; 2. Tayanch-trifik toʻqimalar; 3. Muskullar; 4. Nervlar.

1. Epiteliy yoki qoplovchi toʻqimalarga teri, shilliq va seroz pardalar kiradi. Ular tashqi muhit bilan chegaralangan. Epiteliy toʻqimasi ichki aʼzolarni turli xil tashqi zararli taʼsirlar va mikroorganizmlardan saqlaydi. Uning hosilalari tirnoq va jun boʻlib,

ular itlar uchun himoya vazifasini bajaradi. Epiteliy to'qimasi moddalar almashinuvida katta rol o'ynaydi.

2. Tayanch-trofik (oziqlantiruvchi) to'qimalar. Bu to'qimalar itlar organizmida moddalar almashinuvi, himoya, trofik (oziqlantiruvchi), qon hosil qilish va tayanch (mexanik) funksiyalarini bajaradi. Tayanch-trofik to'qimalariga – qon, limfa, to'rsimon to'qima, biriktiruvchi to'qimalar, shuningdek tog'ay va suyak to'qimalari kiradi.

Oziqlantiruvchi to'qimalar moddalar almashinuvi uchun xizmat qilsa, tayanch to'qimalar himoya vazifasini bajaradi.

To'rsimon to'qima ilik, taloq, limfa tugunlari va ichakning shilliq pardasida uchraydi.

Tog'ay to'qimasi tanada amortizatsiya vazifasini bajaradi va uch xilga - gialin-shishasimon, elastik-to'rsimon va tolaliga bo'linadi. Gialin tog'ay bo'g'imlarda, qovurg'alarining uchida, burun va kekirdakda uchraydi. Elastik tog'ay esa quloq suprasi va hiqildoqda joylashadi. Tolali tog'ay umurtqalar orasida va tog'aylarning suyaklarga birlashgan joylarida uchraydi.

Suyak to'qimasi – faqat umurtqali hayvonlarda bo'ladi va u organizmida tayanch va himoya vazifasini bajaradi.

3. Muskul to'qimasi – faol harakat organiga kiradi, uning qisqarib-uzayishi natijasida organizmida turli tuman harakatlar bajariladi. Muskullar silliq va ko'ndalang bo'lishi mumkin.

4. Nerv to'qimasi – neyron va neyrogangliylardan tuzilgan bo'lib, organizmida nerv sistemasini tashkil qiladi. Nerv sistemi organizmdagi barcha vazifalarni boshqarib turadi. Hayvonlarning yorug'lik, hid va tovushlarni sezishi nerv to'qimasi bilan bog'liq.

Organ – bu har xil to'qimalardan hosil bo'lgan va kerakli vazifani bajaruvchi tananing bir qismidir. Bir xil umumiy ishni bajaruvchi, bir necha a'zolar – organizm sistemalarini hosil qiladi.

Hayvon organizmida quyidagi sistemalar mavjud:

- harakat;
- qon va limfa aylanishi;
- ichki sekresiya;
- hazm qilish;
- siydik ajratish;
- nerv;
- nafas olish;
- ko'payish;
- sezish (analizatorlar)


2. Harakat a'zolari sistemasi.

Harakat a'zolari sistemasi skelet va muskllardan tuzilgan.

Itlarning skeleti 271-282 suyakdan tashkil topgan bo'lib, ular bir biriga bo'g'im, tog'ay va paylar yordamida bog'langan (1-rasm).

Skelet harakat a'zolarining passiv apparat sistemasidir. Shuningdek, skelet hayvon organizmi uchun tayanch, yumshoq a'zolari himoyalovchi, tanaga alohida shakl beruvchi, qizil ilik joylashadigan va mineral tuzlar saqlanadigan joy bo'lib hisoblanadi.


Suyaklar tayanch va harakat a'zosi bo'lib, skelet tarkibida murakkab tuzilishga ega. Suyak sirtidan biriktiruvchi to'qimalardan hosil bo'lgan parda, ya'ni suyak usti pardasi bilan qoplanadi. Suyak ikki qismdan tashkil topgan ya'ni suyak usti pardasi ostida joylashgan qattiq kompakt moddadan va naysimon suyaklarning uchida, qisqa suyaklarning esa ichki qismida uchraydigan g'ovak moddadan tuzilgan. Suyak qon tomirlar va nervlar bilan yaxshi ta'minlangan. Suyakda 50% suv, 15% gacha yog', 12% gacha organik modda va 21% gacha mineral moddalar bo'ladi.



1 - rasm. It skeletining tuzilishi.

1-kalla suyagi, 2-bo'yin umurtqalari, 3-ko'krak umurtqalari, 4-bel umurtqalari, 5-dumg'aza umurtqalari, 6-dum umurtqalari, 7-kurak, 8- yelka suyagi, 9-bilak suyagi, 10-bilakuzuk; 11-19-kaft suyaklari, 12-barmoq suyaklari; 13-qovurg'alar, 14-to'sh suyagi, 15-tos suyagi, 16-son suyagi; 17- boldir suyaklari 18-sakrash bo'g'mi suyaklari.

Skelet ikki qismlarga – umurtqa pog'onasi va periferik skeletga bo'linadi. Birinchisiga kalla suyagi, umurtqa pog'onasi va dum kirsas, ikkinchisiga – oldingi va orqa oyoqlar sohalari kiradi (2 - rasm).




2-rasm. It skeletining asosiy elementlari.

- 1- kalla suyagi,
- 2 – umurtqa pog'onasi,
- 3 – oyoq suyaklari.


Umurtqa pog'onasi – bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum umurtqalaridan tuzilgan. Shundan bo'yin umurtqalari – 7 ta; ko'krak – 13 ta, bel – 7 ta, dumg'aza – 3 ta va dum umurtqalari 20-23 tani tashkil qiladi. Har bir ko'krak umurtqasiga bir juft qovurg'a birikadi, itlarda ular 13 taga yetadi

Kalla suyagi – unda bosh miya, ko'rish, eshitish a'zolari, muvozanat markazi, burun va og'iz bo'shlig'i joylashadi. Kalla suyagi 19 ta suyakning bir-biri bilan mustahkam birlashishi natijasida hosil bo'lgan, shulardan 6 tasi toq va 13 tasi juft suyaklardir. Kalla suyagi bosh chanog'i hamda yuqori va pastki jag'larning birlashishi natijasida hosil bo'lgan. Yuqori va pastki jag'larda tishlar tizilmasi joylashadi. Itlarda sut tishlari 32 ta, doimiy tishlar esa 42 ta bo'ladi. Itlar tishlaridan ozuqaga mexanik ishlov berish va o'zini himoya qilish maqsadida foydalanishadi. Tishlarning tuzilishi, funksiyasi va joylashishiga qarab ular uch guruhga bo'linadi: kurak tishlar 12 ta, ya'ni pastki va yuqori jag'da 6 tadan, qoziq tishlar – 4 ta - har bir jag'da 2 tadan, oziq tishlar – premolyar va molyarlarga bo'linib ularning jami soni 26 ta ya'ni yuqori jag'da 12 ta, pastkisida esa 14 ta (3 – rasm).



3- rasm. It tishllarining yuqori va pastki jag'larda joylashishi.

KT—kesuvchi tishlar. QT — qoziq tishlar. P — Premolyarlar. M — Molyarlar



4 - rasm. Tishlovlar turlari: 1- qaychisimon. 2- ombursimon. 3- yetarli bo'lmagan tishlov. 4-haddan ziyod tishlov.


Yuqori va pastki jag' kurak tishlarining ishqalanib yeyilishi va ularning bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab itlarning yoshini va tishlamasini aniqlash mumkin. Tug'ilgandan keyin ikki hafta o'tgach itlarda sut tishlarining rivojlanishi boshlanadi. Sut tishlari hayvonning yoshi 3,5 oyga yetganda doimiy tishlarga to'liq almasha boshlaydi. Bu jarayon itning yoshi 8 oyga to'lganda tugaydi. Molyar tishlardan tashqari barcha doimiy tishlar sut davridan o'tadilar. Molyar tishlar (yuqorida 4 ta, pastki jag'da 6 ta) doimiy tish sifatida saqlanib turadilar.

Suyaklarning o'zaro birlashishi natijasida bo'g'imlar hosil bo'ladi. Bo'g'imlar tuzilishiga ko'ra, ular oddiy va murakkablarga bo'linadi. Agar bo'g'im ikkita suyakdan hosil bo'lgan bo'lsa oddiy, bir necha suyaklarning birlashishi natijasida vujudga kelgan bo'lsa murakkab bo'g'im hisoblanadi. Bo'g'im kapsula bilan o'raladi, kapsulaning ichki pardasidan sinoviya suyuqligi ajralib turadi. Sinoviya harakat vaqtida bo'g'imdagi ishqalanishni kamaytiradi va suyaklarni uzluksiz namlab turadi.

Muskullar sistemasi harakat a'zolarining eng faol qismi hisoblanadi. Muskullar suyaklar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ularning qisqarib-uzayishi natijasida turli xil harakatlar vujudga keladi. Muskullar harakati nerv sistemasi bilan bog'liq bo'lib, ularda juda ko'p

retseptor (qabul qiluvchi) va effektor (harakatlantiruvchi-javob beruvchi) nerv tolalari bo'ladi. Ana shu nerv tolalari orqali muskullar tashqi hamda ichki ta'sirlarni doimiy ravishda sezadi va qisqarib ularga tegishli tarzda javob qaytaradi.

Muskullar ish bajarishi va tuzilishiga qarab ikki xil: silliq va ko'ndalang-targ'il muskullarga bo'linadi. Silliq muskullar asosan ichki a'zolar (hazm a'zolari, qon tomirlar) devorida uchraydi. Ko'ndalang-targ'il muskullar esa suyaklarga birikib turishi sababli skelet muskullari deb ham ataladi (5 - rasm).



5 - rasm. Itlarning skelet muskullari.

1-yelka bosh m., 2-trapesiyasimon m., 3-belning uzun m., 5-qorinning ichki egri m., 6- tikuvchi m., 7- son fassiyasini taranglashtiruvchi m., 8-sag'ri o'rta m., 9-sag'rining yuza m., 10-ikki boshli m., 11-ko'krak bosh m., 12-yelka atlant m., 13-deltasimon m., 14-uch boshli m., 15-ko'krakning chuqur m., 16- bo'yinning ventral tishsimon m., 17-qorinning tashqi egri m.

3. Ovqat hazm qilish a'zolar sistemasi.

Ovqat hazm qilish a'zolar sistemasi eng muhim hamda o'ta murakkab tuzilgan tizim bo'lib, hayvon organizmining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Ovqat hazm qilish a'zolarining hajmi juda katta bo'lib, organizmdagi murakkab jarayonlardan biri – moddalar almashinuvi uchun xizmat qiladi.

Ovqat hazm qilish a'zolari quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. O'z atrofini o'ragan tashqi muhitdan har xil qattiq va yumshoq moddalarni oladi;

2. Og'iz bo'shlig'idagi a'zolar yordamida ovqatni yutishga tayyorlaydi;

3. Halqum va qizilo'ngach yordamida ovqatni oshqozonga o'tkazib, undagi har xil shiralar yordamida oziqani shimilishga tayyorlaydi;

4. Tayyorlangan oziq moddalarni ichak devoriga o'tkazib, oziq qismlarini shimish va qoldiq qismlarini tashqariga chiqarib tashlash vazifasini bajaradi.

Ovqat hazm qilish sistemasi to'rtta bo'limga bo'linadi: og'iz bo'shlig'i va halqum, qizilo'ngach va oshqozon; ingichka ichak, jigar va oshqozon osti bezi hamda yo'g'on ichaklar.

Og'iz bo'shlig'i hazm qilish a'zolarining boshlanish qismi hisoblanib, uning vazifasi ovqatni olib maydalash va so'lak bilan namlashdan iborat. Og'iz bo'shlig'i quyidagi a'zolarida tashkil topgan: lablar, lunj, tishlar, milkar, qattiq va yumshoq tanglay, til va so'lak bezlari.

Til muskul to'qimasidan tuzilgan bo'lib, og'iz bo'shlig'ida joylashadi. Til o'ta harakatchan a'zo hisoblanib, oziqni chaynash, mazasini bilish, suv ichish, ovqatni yutish, termoregulyatsiya hamda itlarning xurishida muhim rol o'ynaydi.

Halqum – og'iz bo'shlig'ining yuqori qismidagi murakkab a'zo bo'lib, oziq moddalarni qizilo'ngachga o'tkazishda qatnashadi. Halqum ovqat yo'li bilan havo yo'lining kesishmasida joylashadi.

Qizilo'ngach – uzun nay shaklidagi organ bo'lib, halqum va oshqozon oralig'ida joylashadi hamda ovqatni oshqozonga o'tkazib beradi. Itlar qizilo'ngachi orqali suv – 4-5 soniyada, ovqat – 11 soniyada o'tadi. U bo'yin, ko'krak va qorin bo'limlariga ajratiladi.

Oshqozon oziq moddalarni vaqtincha saqlash uchun xizmat qiladi. U kengaygan qop shaklida bo'lib, qorin bo'shlig'ining oldingi qismini to'ldirib turadi. Itlar oshqozonining hajmi 2-2,5 l ga teng bo'lib, unga tushgan ovqat devorlaridan ajraladigan oshqozon shirasi yordamida parchalanadi va shimilishga tayyorlanadi. Oshqozonning qisqarishi natijasida ovqat mayda bo'laklar shaklida ichakka o'tadi.

Ichaklar oshqozonning davomi bo'lib, ularning uzunligi itlarda 3,5 - 4,5 metrgacha yetadi. Ichaklar ikki qismga - ingichka va yo'g'on ichaklarga bo'linadi. Oshqozonda biyg'ib tayyor bo'lgan ovqat ichakka o'tadi va shimila boshlaydi, buni ingichka ichaklar devoridagi so'rg'ichlar amalga oshiradi. Oqsil, yog'lar va uglevodlar ichakka o'tib, undagi har xil fermentlar yordamida suvda eriydigan holatga keladi. Erimay qolgan ba'zi moddalar ichakning keyingi bo'limlariga o'tib tashqariga chiqib ketadi. Shunday qilib, ichak devorida 3 xil muhim fiziologik jarayon kechadi:

1. Ichak devoridagi bezlar hir xil kimyoviy ta'sir etuvchi suyuqliklarni ishlab chiqarib, oziqani parchalaydi;

2. Ichak devoridagi tukchalar (so'rg'ichlar) yordamida oziq moddalar shimilib, qon tomirlarga o'tadi;

3. Ichak kanalidagi ozuqalar silliq muskullar harakati yordamida so'riladi.

Jigar organizmdagi eng katta bez bo'lib, ovqat hazm qilishda faol ishtirok etadigan murakkab a'zodir. Jigar organizmda juda muhim vazifani bajaradi. U o't ishlab chiqarishi natijasida fermentlar ishini faollashtirib, yog'larni suvda eriydigan holatga keltiradi. O't ta'sirida ichak harakati tezlashadi, ovqat yaxshi so'riladi.

Yo'g'on ichaklar ingichka ichakda hazm bo'lmagan ovqat qoldiqlarini tashqariga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bu ichaklarning devorida shimuvchi tukchalar bo'lmaydi. Yo'g'on ichakda oziq moddalarning suyuq qismi, ya'ni ularning suvdagi eritmasi shimiladi. Yo'g'on ichaklar orqa chiqaruv teshigi bilan tugaydi.

4. Nafas olish a'zolar sistemasi.

Nafas olish a'zolari organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi gazlar almashinuvini ta'minlaydi. Tirik organizmning kislorodga bo'lgan ehtiyoji juda ham katta. Masalan, itlar ovqatsiz uch hafta, suvsiz uch kungacha yashashi mumkin, ammo kislorodsiz uch daqiqa ham yashay olmaydi.

Nafas olish a'zolari gazlar almashinuvini ta'minlashdan tashqari yana bir qancha vazifalarni bajaradi: burun bo'shlig'i – hid bilish, hiqildoq – ovoz chiqarish (hurish), o'pka esa organizmdagi suvni bug'latish uchun xizmat qiladi va shu bilan termoregulyatsiya jarayonida qatnashadi. Nafas olish a'zolari ham boshqa a'zolar singari, qon aylanish, ovqat hazm qilish va nerv tizimsi bilan chambarchas bog'liq chunki o'pkaga kirgan kislorod qon tarkibiga o'tib, uning shaklli elementlari – eritrotsitlar orqali butun organizm to'qimalariga tarqaladi va moddalar almashinuvida muhim rol o'ynaydi, organizmdan ajralgan karbonat angidridi esa tashqariga chiqib ketadi.

Nafas olish sistemasining markazi uzunchoq miyada joylashgan. Itlarda tinch turgan holatda nafas olish soni bir daqiqada 14-24 marta teng, yosh hayvonlar esa bundan ham tezroq nafas oladi.

Nafas olish a'zolariga burun kataklari, burun bo'shlig'i, hiqildoq, kekirdak, bronxlar va havo almashtiruvchi asosiy a'zo – o'pka kiradi.

Burun nafas olish sistemasining boshlanish qismi hisoblanib, havo o'tkazish, hid bilish, havoni isitish, havo bilan aralashib kirayotgan har xil yot narsalarni ushlab qolish va ularni organizmdan tashqariga chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Burunda juft burun bo'shlig'i,

uning old qismida burun kataklari bo'ladi. Burun bo'shlig'i kalla suyagining kovaklari bilan birikadi. Burun bo'shlig'i burun to'siqlari orqali o'ng va chap bo'shliqlarga bo'linadi. Burun bo'shlig'ining eng tubi havoni o'tkazish uchun qo'llanilmaydi balki u hid sezadigan shilliq parda bilan qoplangan va shuning uchun ham hidni sezish organi bo'lib hisoblanadi.

Hiqildoq – tog'aylar qo'shilishidan hosil bo'lib, xoana teshigining pastki qismida joylashadi. Hiqildoq nafas yo'linining boshlang'ich qismidir, u nafas olishdan tashqari, ovoz chiqarish yo'li sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Hiqildoq beshta tog'ay, bir qancha muskullar va ovoz payidan tuzilgan.

Kekirdak – uzun nay shaklidagi organ bo'lib, o'pkaga havo o'tkazish va undan havoni tashqariga chiqarish uchun xizmat qiladi. Kekirdak itlarda 40 ta tog'ay halqalarining o'zaro birlashishi natijasida hosil bo'lgan. U hiqildoqning halqasimon tog'ayidan boshlanib, o'pkada tugaydi.

O'pka - asosiy nafas olish a'zosi bo'lib ko'krak qafasida joylashgan. O'pka juft a'zo, unga tashqi muhitdan havo bilan birga kislorod kirib, qonga o'tadi va butun organizmga tarqaladi, moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan karbonat angidridi esa qon bilan o'pkaga kelib, tashqariga chiqib ketadi. O'pka tarmoqlarga bo'lingan bronxlardan tashkil topgan. Asosiy bronx o'pkaning ichki qismiga kirgandan keyin tarmoqlanib, bronxlarga, bronxiolalarga, ular esa alveolalarga bo'linib ketadi. Alveolalar esa o'z navbatida alveola xaltachalari – pufakchalarini hosil qiladi va ular bilan yakunlanadi. Alveolalardan o'pka parenximasi paydo bo'ladi. Parenximada arteriya va vena qon tomirlari bo'lib, gazlar almashinuvi shular orqali amalga oshadi.

5. Qon va limfa aylanish a'zolar sistemasi.

Murakkab tuzilgan organizmning har bir hujayrasiga kislorod va oziq moddalarni yetkazib berish va unda hosil bo'lgan chiqindi moddalarni tegishli a'zolar orqali chiqarib yuborishda qon va limfa aylanish sistemasi a'zolari xizmat qiladi. Ular qon, limfa, yurak, qon va limfa tomirlari va qon hosil qiluvchi a'zolaridan tuzilgan. Qon aylanish sistemasi qon tomirlar, ularning ichidagi qon va qon haydovchi a'zo, ya'ni yurakdan tashkil topgan. Qon tomir sistemasining eng muhim qismi yurak bo'lib, uning tinmay ishlashi natijasida qon qon tomirlari bo'ylab uzluksiz harakatlanib turadi. Tanada harakatlanayotgan qon

ikkita, ya'ni katta va kichik doira bo'ylab aylanadi, buni birinchi marta ingliz olimi Garvey 1638 yilda aniqlagan.

Qon organizmning eng muhim to'qimalaridan biridir. U qizil rangda, sho'r ta'mli, yopishqoq suyuqlikdir. Qonning tarkibida shaklli elementlar, ya'ni qizil qon tanachalari (eritrotsitlar), oq qon tanachalari (leykotsitlar) va qon plastinkalari (trombotsitlar) mavjud. Qonning qizil rangi undagi rang beruvchi modda - gemoglobin bilan bog'liq. Sho'r ta'mi esa undagi tuzlar miqdoriga bog'liq.

Qon hayvon organizmida muhim vazifalarni bajaradi: moddalar almashinuvida qatnashadi, ichaklardan shimib olgan oziqa moddalarni va suvni butun organizm bo'ylab tarqatadi; keraksiz, zaharli moddalarning organizmdan chiqib ketishini ta'minlaydi. Qonning shaklli elementlari orqali organizm (fagotsitoz yo'li bilan) himoya qilinadi va immunitet bilan muhofazalanadi. Qonning ivuvchanlik xususiyati ham himoya funksiyasi bo'lib hisoblanadi, chunki hayvon jarohatlanganda u qon oqishini to'xtatishga yordam beradi. Qon it tana vaznining 5-8 % ini tashkil qiladi. Katta miqdorda qon yo'qotish organizm uchun o'ta xavflidir.

Yurak – konus shaklidagi organ bo'lib, ko'krak qafasining III-VI-VII qovurg'alari ro'parasida, o'pkalar oralig'ida joylashadi. Yurakning asosiy qismi umurtqa pog'onasining chap tomonida bo'ladi. Yurak bo'shlig'i ichki tomondagi ko'ndalang to'siq orqali chap va o'ng bo'limlarga bo'linadi. Ular ham o'z navbatida klapanlar yordamida yana ikkiga bo'linadi. Yuqoridagilar chap va o'ng yurak oldi bo'lmalari deb ataladi, yurakning pastki qismida esa chap va o'ng qorinchalari joylashadi. Shunday qilib, itlarning yuragi to'rt kamerali, ya'ni ikkita yurak oldi va ikkita yurak qorinchalaridan tuzilgan.

Yurakning o'ziga xos asosiy funksiyasi venalardan bo'lmalarga tushgan qonni aortaga, undan esa arteriyalarga uzluksiz sur'atda chiqarib turishdir. Yurak navbatma-navbat ikki bosqichda ishlaydi. Yurakning ikki fazada ishlashi tufayli, qon organizm bo'ylab faqat bitta yo'nalishda, ya'ni yurak bo'linmalaridan qorinchalarga, ulardan tomirlarga qarab harakatlanadi. Yurak muskullarining qisqarishiga sistola, kengayishiga diastola deb aytiladi. Bu ikki bosqich yurak ishining bir sikli bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi fazadan keyin pauza, ya'ni yurakning umumiy bo'shashi boshlanadi, bu vaqtda yurak muskullari dam olganday bo'ladi. Yurakning bunday o'ziga xos jarayoni, unga sutkada 8-10 soat zo'r berib ishlashga imkoniyat yaratadi, boshqa vaqti

esa dam olishga sarflanadi. Itlarning yuragi me'yor bo'yicha har bir daqiqada 70-120 martagacha qisqaradi.


Qon tomirlar har xil diametrli naychalardan iborat bo'lib, ular tuzilishi va funksiyasi jihatidan arteriya, vena va eng mayda qon tomirlarga (kapillyarlarga) bo'linadi. Umuman qon tomirlarning vazifasi- qonni butun organizmga tarqatish va to'qimalarni kerakli moddalar bilan ta'minlash hamda moddalar almashinuvi natijasida paydo bo'lgan keraksiz moddalarni tashqariga chiqarib yuborishdan iborat. Yurakdan chiqadigan qon tomirlar arteriya, yurakka qon olib keladigan tomirlar esa vena qon tomirlari deb ataladi. Tomirlar yurak devorining faoliyati tufayli ritmik ravishda to'liqsimon harakat qilib turishiga puls yoki tomir urishi deyiladi. Itlarning pulsi son arteriyasida yaxshi aniqlanadi va uning soni bir daqiqada 70-120 taga teng.

Tanadagi qon ikkita doira, ya'ni katta va kichik qon aylanish doiralari bo'ylab harakat qiladi. Kichik qon aylanish doirasida qon yurak bilan o'pka o'rtasida, katta qon aylanish doirasida esa yurak bilan butun tana oralig'ida oqadi. Katta qon aylanish doirasida chap qorinchadan chiqqan aorta butun organizmni qon bilan ta'minlaydi. Undan tarqalgan tomirlar va ularning kapillyarlari to'qimalarga boradi va qondagi kerakli moddalar va kislorodni berib, moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan keraksiz moddalarni va karbonat angidridini vena kapillyarlariga o'tkazadi. Butun organizmdan yig'ilib kelgan vena qon tomirlari keyingi va oldingi kovak venalarni hosil qilib, yurakning o'ng bo'lmachasiga quyiladi.

Kichik qon aylanish doirasini hosil qiladigan o'pka arteriyasi yurakning o'ng qorinchasidan chiqib o'pka negiziga kiradi va har ikkala o'pka bo'lmachasiga bo'linib ketadi. O'pkadagi har bir arteriya alveolalarda tugaydi. Shu yerda aytish joizki - o'pka arteriyalarida venoz qon oqadi va u o'pkada kislorodga boyib, o'pka venalariga o'tadi. O'pka venasi yurakning chap bo'lmasiga quyiladi.

Limfa sistemasi ham qon aylanish sistemasiga o'xshab, barcha a'zolariga tarqalgan bo'ladi. Bu tizim ham moddalar almashinuvida ishtirok etib, muhim vazifani bajaradi. Limfa sistemasi qon tomirlarining qo'shimchasi hisoblanadi. Limfa sistemasiga limfa bo'shliqlari, limfa kapillyarlari, yirik tomirlar, limfa tugunlari va limfa to'qimasi kiradi. Limfa tomirlaridan to'qimalararo suyuqlik - limfa oqadi.

Limfa - toza suv ma'nosini bildiradi. Limfa tomirlar bo'ylab harakat qiladigan rangsiz suyuqlikdir va u tana og'irligining 5/1- 6/1 ni tashkil etadi. Uning tarkibiga qonning elementlaridan limfotsitlar kiradi.



Limfotsitlar organizmning himoya vositasi bo'lgan immunitetni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Limfa sistemasi organizmdagi oqsil, yog' va vitaminlar almashinuvida faol qatnashadi. Limfa tomirlarining yo'nalishi bo'ylab limfa tugunlari joylashadi, ular filtrlash va qonni hosil qilish vazifasini bajaradi. Itlarda 60 ta limfa tuguni aniqlangan.

Qonni hosil qilish a'zolariga – taloq, qizil ilik va limfa tugunlari kiradi. Taloq qorin bo'shlig'ining chap tomonida, yetim qovurg'a ostida joylashgan. Uning asosiy vazifasi limfotsitlarni ishlab chiqarish va yashab bo'lgan eritrotsitlarni parchalashdan iborat. Bundan tashqari taloq organizmdagi 16 % qon uchun rezervuar (depo) vazifasini bajaradi. Suyakdagi qizil ilikda eritrotsit va leykotsitlar hosil bo'ladi, ya'ni u asosiy qon ishlab chiqarish a'zosi bo'lib hisoblanadi.

6. Ayirish a'zolari.

Tirik organizmlarda doimiy ravishda moddalar almashinuvi jarayoni sodir etiladi, buning natijasida organizm uchun keraksiz moddalar (jumladan siydik) paydo bo'ladi. Siydik ayirish a'zolari siydikni qondan ayirish, vaqtinchalik saqlab turish va keyinchalik tashqariga chiqarib yuborish uchun xizmat qiladi. Siydik bilan suv, ammiak, mochevina, siydik kislotasi, keratin va azotli moddalar ajralib chiqadi. Bir sutkada sog'lom it 0,5-2 l atrofida siydik ajratadi. Siydik ayirish a'zolariga – buyrak, siydik chiqarish yo'li, siydik pufagi va siydik chiqarish kanali kiradi.

Buyraklar juft a'zo bo'lib, bel umurtqalari yonida joylashgan. Itlarning buyragi loviyasimon, qisqaroq va yumaloq, og'irligi esa 45-60 g ga teng. Siydik yo'li uzun, ingichka nay shaklidagi organ bo'lib, u buyrak jomidan boshlanadi va qovuqda tugaydi. U buyrakda ishlangan siydikni o'tkazish uchun xizmat qiladi.

Qovuq muskul pardadan hosil bo'lgan xaltacha bo'lib, tos bo'shlig'ida, to'g'ri ichak ostida joylashgan. uning eng asosiy vazifasi siydikni vaqtincha saqlashdan iborat.

Siydik chiqarish kanali qovuqda to'plangan siydikni tashqariga chiqarish uchun xizmat qiladi.

7. Ko'payish a'zolari.

Ko'payish a'zolari erkak va urg'ochi hayvonlar jinsiy a'zolariga bo'linib, nasl qoldirish vazifasini bajaradi.

Erkak it (ko'ppak) ning ko'payish a'zolariga urug'donlar, urug'don xaltasi, urug' yo'li, qo'shimcha jinsiy bezlar va jinsiy a'zo kiradi.

Urug'don juft jinsiy bez bo'lib, erkaklik jinsiy hujayralarni, ya'ni urug' ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari urug'don ichki sekresiya bezlari sifatida jinsiy gormonlar ishlab chiqarib, organizmni jinsiy uyg'otishda muhim rol o'ynaydi. Urug'don urug'don xaltasida joylashadi. Urug'don xaltasi teri burmasidan tashkil topgan bo'lib, chov sohasida ikkita xaltacha shaklida o'rin egallaydi. Itlarda u orqa chiqaruv teshigining pastida joylashgan. Urug' yo'li uzun, ingichka nay shaklidagi a'zo bo'lib, urug'donda hosil bo'lgan urug'ni chiqarish uchun birdan bir yo'l hisoblanadi.

Qo'shimcha jinsiy bezlarga pufakchasimon, prostata va piyozchasimon bezlar kiradi, ular urug'dondan chiqayotgan urug'ni suyultirish va uning harakatlanish tezligini oshirish uchun xizmat qiladi. It spermatozoidlarining harakat tezligi 1 daqiqada 2,6 mm ga teng.

Jinsiy a'zo murakkab tuzilgan bo'lib, muhim vazifani bajaradi: urug'donda ishlab chiqilgan jinsiy hujayralarni (urug', sperma) urg'ochi hayvonning ko'payish a'zosiga kiritish va siydikni chiqarish uchun xizmat qiladi. It jinsiy a'zosi old qismining asosida 8-10 sm uzunlikda suyak joylashadi.

Urg'ochi it (qanjiq) ning ko'payish a'zolariga tuxumdon, tuxum yo'li, bachadon, qin, qin dahlizi va tashqi lablar (ilmoq) kiradi. Tuxumdon juft a'zo bo'lib, qorin bo'shlig'ida III-IV bel umurtqalarning ro'parasida joylashadi, uning og'irligi 1g atrofida bo'ladi. Tuxumdon tuxum hujayralari va jinsiy gormonlarni ishlab chiqaradigan a'zo. Tuxum hujayralari tuxumdonda yetilib, tuxum yo'liga tushadi. Tuxum yo'li egri naycha shaklida bo'lib, tuxumdon bilan bachadon shoxi o'rtasida joylashadi. U tuxumdonda yetilgan tuxum hujayralarini bachadonga o'tkazish uchun xizmat qiladi, itlarda uning uzunligi 4-10 sm ga teng.

Bachadon – kovak a'zo bo'lib, tana va ikkita shoxdan tashkil topgan, unda homila rivojlanadi. Itlar ko'p bola tug'adigan hayvonlar guruhiga kirganligi uchun ham, ularning bachadoni uzun hamda ko'p burmalangan bo'ladi.

Qin – pardasimon muskulli naycha bo'lib, jinsiy qo'shilish a'zosi va tug'ish yo'li hisoblanadi.

Qin dahlizi (siydik – jinsiy dahliz) urg'ochi hayvonlar jinsiy a'zolarining eng keyingi bo'limi bo'lib, tashqi lablar bilan tugaydi.

Kuyikish davrida va ko'ppak bilan qovushishda urug' qanjiqning jinsiy yo'llarga kiritiladi. Tuxumdon yo'lida tuxum va urug' hujayrasi uchrashib birlashadi ya'ni otalanish sodir etiladi. Otolangan tuxum

bachadonga tushib, homilaning rivojlanish davriga asos solinadi. Itlarda bo'g'ozlik davri 60-62 kun davom etadi. Bu davrda qanjiq organizmida murakkab o'zgarishlar vujudga keladi.

Sut bezlarining asosiy funksiyasi - yangi tug'ilgan itvachchalarga oziqa yetkazib berishdir. Qanjiqlarning sut bezlari 4-5 juft bo'lib, qorin va ko'krak devorining pastki qismida joylashadi. Ulardan 1,5 oygacha sut kelib turadi.

8. Nerv sistemasi.

Nerv sistemasi organizmning muhim bo'limi hisoblanadi. U organizmdagi barcha tizimlarni ishga soladi, ularni idora qiladi. Organizm nerv sistemasi yordamida tashqi muhit bilan doimiy aloqada bo'lib turadi. Nerv sistemasining asosiy funksiyasi - har xil qo'zg'atuvchi ta'sirlarni qabul qilish va aksincha ularga javob reaksiyasini qaytarish. Javob reaksiyasi reflekslar orqali amalga oshiriladi.

Nerv sistemasining asosini nerv hujayralari, ya'ni neyronlar tashkil qiladi. Neyronlarning tuzilish shakli va kattaligi g'oyat xilma xil bo'lib, ular tana qismi va o'simtalari - akson va dendritlardan tashkil topgan. Ta'sirlardan qo'zg'alish va uning oqibatida, nerv impulslarini vujudga keltirish hamda bu impulslarni boshqa, qo'shni hujayralarga o'tkazish neyronlar faoliyatining mazmunini tashkil qiladi. Nerv hujayrasi qitiqlovchi ta'sirni qabul qiladi va qo'zg'alish jarayonida uni faol ravishda qayta ishlaydi. Nerv hujayralari biriktiruvchi to'qimalar yordamida birlashib, tutamlarni, ya'ni nervlarni hosil qiladi.

Umuman olganda nerv sistemasi ikki qismga bo'linadi, ya'ni markaziy nerv sistemasi - uning tarkibiga bosh va orqa miya kiradi; periferik nerv sistemasi - bunga markaziy nerv sistemasidan chiqib atrofdagi a'zolariga tarqaladigan nervlar kiradi. Nerv o'simtalari retseptor, ya'ni qabul qiluvchi va effektor, ya'ni javob qaytaruvchi tolalarga bo'linadi. Markaziy hamda periferik nerv sistemasidan tashqari, somatik va vegetativ nerv sistemalari ham mavjud.

Somatik nervlar harakat a'zolariga, ya'ni orqa va bosh miyadan chiqib, teri hamda skelet muskullariga boradi. Vegetativ nerv sistemasi esa ichki a'zolari (yurak, qon tomirlar, silliq muskul to'qimalari, teri, bezlar va boshqalarni) ta'minlaydi. Vegetativ nerv sistemasi joylashishi va funksiyasiga qarab, simpatik va parasimpatik qismlarga bo'linadi.

Markaziy nerv sistemasi.

Orqa va bosh miya – markaziy nerv sistemasiga kiradi. Bosh miya kalla suyagining bo'shligida joylashadi. U asosan, katta miya, kichik miya va uzunchoq miyaga bo'linadi.

Katta miya – ikkita yarim sharlardan iborat. Ular oq va kulrang moddalardan tuzilgan. Bosh miyaning kulrang moddasi tashqi tomonda, oq moddasi esa ichki qismida bo'ladi. Katta miyaning kulrang moddasi (po'stlog'i) butun nerv sistemasining eng yaxshi rivojlangan qismi, unga butun organizm bo'ysunadi, u hamma boshqaruv ishini boshqaradi. Miya po'stlog'ida a'zolarining son-sanoqsiz markazlari joylashgan. Miyaning oq moddasida ta'sir o'tkazuvchi bir qancha nerv o'simtasi bor. Bosh miyaning po'stloq qismi xilma xil shakldagi bir nechta hujayralardan tuzilgan va u olti qavatdan iborat.

Katta yarim sharlar po'stlog'i va po'stloq osti tuzilmalarining muqarrar ishtiroki bilan reflektor reaksiyalar, ya'ni shartli reflekslar hosil bo'ladi. Demak, shartli reflekslar po'stloq faoliyatining asosini, ya'ni oliy nerv faoliyatining mazmunini, mohiyatini tashkil qiladi va organizmning xulq-atvorini belgilaydi. Miya po'stlog'ining faoliyati tufayli organizm uzluksiz o'zgarib turadigan tashqi muhit shart-sharoitlariga doimo bekami-ko'st moslashadi, turli ta'sirlarga qarshi esa eng qulay vaziyatni egallaydi.

Bosh miyaning po'stlog'ida reflektor markazlari - reflekslarni boshqaruvchi markazlar joylashadi. Oraliq miya – miyaning asosida, hidlov miyasining orqa tomonida joylashadi. Bu miyaga ko'rish bo'rtigi, kulrang do'nglik, epifiz kiradi. Ko'rish bo'rtigida tashqi va ichki a'zolarining sezgi markazlari joylashadi. Barcha qo'zg'aluvchi ta'sirlar bosh miyaning katta yarim shar po'stlog'iga yetib borguncha ko'rish bo'rtigidan o'tadilar, bu yerda moddalar almashinuvi, tomirlar, issiqlik va boshqa markazlar joylashgan.

O'rta miya oraliq miyaning orqa tomonida joylashib, katta miya oyoqchalaridan, miya to'rt tepasidan tuzilgan. Bu miyaning asosini to'rt tepa hosil qiladi, u kulrang moddadan tuzilgan. Old tepa qismi ancha yaxshi rivojlangan bo'lib, ko'rish a'zolari bilan, orqadagi kichik tepachalar esa eshitish a'zolari bilan bog'langan.

Kichik miya yoki miyacha uzunchoq miyaning ustki qismida joylashib, shakli deyarli yumaloqsimon. Yuzasi kulrang, ichki qismi esa oq modddan iborat. Miyachaning funksiyasiga harakat koordinatsiyasi va muskullar tonusini boshqarish vazifasi kiradi.

Uzunchoq miya – orqa miyaga ulanib ketadi. Tuzilishi bo'yicha orqa miyaga o'xshash, undagi kulrang va oq moddalarning chegarasi aniq ko'rinmaydi. Bu miyada hayotiy muhim markazlar: nafas olish, ko'rish, qusish, yo'talish va boshqalar joylashgan. Bundan tashqari, undan sakkiz juft bosh miya nervlari chiqadi. Uzunchoq miyadan muvozanat va eshitish nervlari, ichki a'zolari harakatlantiruvchi nervlar chiqadi.

Orqa miya uzun, silindr shaklida bo'lib, umurtqa kanalida joylashadi. U uzunchoq miyadan ajralib, bo'yin, ko'krak va bel hamda dumg'aza bo'limlariga, aniq ifodalanmagan darajada bo'linadi. Orqa miyaning ikkita yo'g'onlashgan joyi bo'lib, ulardan oldingi va orqa oyoqlarga nervlar chiqadi. Orqa miyada oddiy yoki shartsiz reflekslar hosil bo'ladi, ya'ni unda harakat, ichki a'zolar muskullari va siydik chiqarish markazlari joylashgan.

Periferik nerv sistemasi.

Periferik nerv sistemasi markaziy nerv sistemasining bir bo'limidir. Periferik nervlar orqa va bosh miyalardan chiqib, a'zolarga tarqaladi. Bu nervlarning ba'zilari chetdan kelgan ta'sirni bosh miyaga (retseptorlar), ba'zilari esa bosh miyadan ta'sirga tegishli javobni a'zolarga yetkazib beradi (effektorlar). Bunday nervlar muskul hujayralariga bosa effektorlar yoki harakatlantiruvchi, bezlarga bosa sekretor nervlar deyiladi.

Ta'sirni sezuvchi nervlar retseptor nerv o'simtalaridan hosil bo'lib, orqa miya va bosh miya nervlari tugunchalariga kirib turadi. Retseptor nerv o'simtali periferiyaga effektor nervlar bilan birga boradi. Shunday qilib, neyronlar tanasini saqlovchi gangliylar hamma hayvonlarda sezuvchi nervlar qo'shilishidan hosil bo'ladi. Retseptor va effektor nervlar orqa miyaning kulrang moddasining shoxchalaridan boshlanadi, sezuvchi nervlar uning yuqorisidan, javob qaytaruvchi nervlar esa pastki tomonidan chiqadi. Butun tana, oyoq va ko'ndalang-targ'il muskullarga boradigan harakatlantiruvchi nervlar somatik nerv, silliq muskul to'qimalariga (qon tomirlar), ichki a'zolar, teri va boshqa a'zolarga boradigan nervlar esa visseral yoki vegetativ nervlar deyiladi.

Vegetativ nerv sistemasi simpatik va parasimpatik nerv sistemalariga bo'linadi. Nerv sistemasining simpatik qismi umurtqa pog'onasining ostida, zanjir shaklidagi uzun simpatik nerv tarmog'ini hosil qiladi va barcha ichki a'zolari innervatsiya qiladi. Parasimpatik nerv tolalari periferik nerv tolalari shaklida tarqaladi. Parasimpatik nervlar o'rta miya, uzunchoq miya va orqa miyaning dumg'aza

bo'limidan chiqadi. Ular qorachiq, ko'z yoshi, so'lak bezlari, nafas olish a'zolari va tos bo'shlig'ida joylashgan a'zolari innervatsiya qiladi.

9. Sezgi a'zolari (analizatorlar).

Bosh miyaning kulrang moddasi ichki va tashqi ta'sirotlarga javob berishi bilan birgalikda analizatorlik vazifasini ham bajaradi, ya'ni u sezgi a'zolari orqali ichki va tashqi muhitdan doimiy ravishda kelib turadigan ta'sirotlarni qabul qiladi hamda ularni tahlil etadi. Har bir analizatorlarning ta'sirini qabul qiluvchi va o'tkazuvchi, shuningdek bosh miyaning po'stloq moddasiga kelgan ma'lumotlarni sintez qiluvchi bo'limlari mavjud.

I.P. Pavlovning ta'kidlashiga ko'ra, har bir analizator uch qismdan: periferik, o'tkazuvchi va markaziy bo'limlardan tashkil topgan. Markaziy analizatorlar bosh miyaning po'stloq qismida joylashgan. O'tkazuvchi analizatorlar berilayotgan ta'sirni o'tkazuvchi yo'llar orqali uzatadi. Periferik analizatorlar retseptor apparatlardan iborat bo'lib, ular fizik, mexanik va kimyoviy ta'sirlarni qabul qiladi hamda ularni bosh miyaga yuboradi. Ichki va tashqi ta'sirlarni qabul qilish xususiyatiga qarab retseptor va analizatorlar ikkita asosiy guruhga: ekstroretseptorlar va introretseptorlarga bo'linadi.

Ekstroretseptorlar – tashqi muhitdan kelayotgan aniq ta'sirotlarni qabul qiladi. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va muvozanat retseptorlari kimyoviy va boshqa turdagi ta'sirlarni qabul qilish xususiyatiga ega.

Introretseptorlar – ichki ta'sirlarni, ya'ni a'zolar to'qima va hujayralarning ish faoliyati mobaynida vujudga kelgan turli xil normal va patologik o'zgarishlarni aniqlab, bosh miyaga yetkazib beradi.

Organizmda quyidagi analizatorlar aniqlangan: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sezgi.

a. Ko'rish a'zosi (ko'rish analizatori).

Organizmda ko'rish analizatori tashqi muhitni ko'rish va aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Ko'rish analizatori quyidagilardan tashkil topgan:

1. Ko'z soqqasi. Unda ko'zning to'rsimon pardasi, ya'ni ko'rish analizatorining retseptor apparati joylashgan;
2. Ko'zning himoya va yordamchi a'zolari;
3. Analizatorlarning o'tkazuvchi yo'llari;
4. Bosh miyaning markaziy qismi.

Ko'z soqqasi shar (yumaloq) shaklida bo'lib, orqa tomoni bir oz qavariq. Tuzilishi bo'yicha ko'z soqqasi asosan uchta pardadan - fibroz

(oq va shoh pardalardan tuzilgan), tomirli va to'r pardalar hamda nur sindiruvchi muhitlar – ko'z suyuqliklari, ko'z gavhari, shishasimon tana, tomirlar va nerv tolalardan tashkil topgan.

Ko'zning ichki pardasi yoki to'r parda juda murakkab tuzilishga ega bo'lib, ko'zning o'ta muhim qismi hisoblanadi. Unda nurning qitqilovchi ta'siri o'zgartirilib, nerv sistemasida qo'zg'alish jarayonini vujudga keltiradi. To'r parda nurni sezuvchi hujayra (kolbasimon va tayoqchasimon) lardan tuzilgan. Ular ham ko'rish retseptorlari sirasiga kiritiladi. Nur ta'siri ko'rish retseptorlarida nerv impulsini vujudga keltiradi, mazkur impuls ko'rish nervlari orqali bosh miyaning ensa qismida joylashgan ko'rish markaziga yetkazib beradi.

Itlarning ko'rish qobiliyati o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Itlar atrofdagi narsalarni birdaniga ikkala ko'zlari bilan ko'ra olmaydilar, ya'ni ularning har bir ko'zi o'zining alohida ko'rish maydoniga ega bo'ladi. Itlar tevarak atrofdagi narsalarning shaklini yaxshi farqlay olsada, ularni rangining farqiga bormaydi, ya'ni itlarda rang ajratish sezgisi mujassam emas. Itlar 250-300m masofadagi jismlarning harakatlanishini ko'ra oladi. Bunday ko'rish qobiliyatidan itlarni o'rgatish vaqtida, ayniqsa qo'l bilan ko'rsatib bajarish ishorasini singdirishda foydalansa bo'ladi.

b. Eshitish a'zolari (akustik analizatorlar).

Hayvonlarning eshitish a'zolari uch qismdan: tashqi, o'rta va ichki quloqlardan iborat.

Tashqi quloq – quloq supradi va uni harakatlantiruvchi yordamchi a'zoldan tuzilgan.

O'rta quloq – bevosita tashqi quloqdan keyin joylashgan bo'lib, quloq suyagi bo'shlig'idan o'rin olgan. U nog'ora parda, to'rtta eshitish suyakchalari, muskullar va paylardan tashkil topgan. Bularning hammasi eshitish a'zolarining yordamchisi hisoblanadi.

Ichki quloq - eshitish a'zoning eng murakkab va muhim qismidir. U suyak hamda parda labirintlaridan iborat. O'z navbatida labirint parda bajaradigan funksiyasiga ko'ra ichki quloqning asosiy qismi hisoblanadi.

Itlarning eshitish a'zosi bir soniyada 16 mingdan 40 mingga bo'lgan tovush to'lqinlarini qabul qila olishga moslashgan.

Itlarning eshitish qobiliyati juda kuchli bo'lib, bu ayniqsa tovush orqali buyruq berib, ularni o'rgatish vaqtida qo'l keladi. Odam tomonidan tovush orqali berilgan buyruq itlar uchun faqatgina qitqilovchi tovushlar singari qabul qilinadi. Itlar ovoz chiqarib berilgan buyruqning tovush kuchini va intonatsiyasini farqlay oladi.

v. Hid bilish a'zolari (hid bilish analizatori).

It burnidagi hid sezish a'zosi burun bo'shlig'ining tubida joylashgan va hid sezuvchi epiteliy to'qimasi bilan qoplangan. Undagi shilliq parda sariq-qo'ng'ir rangda bo'lib, u nisbatan bir oz qalinlashgan. Shilliq parda devorida esa hid sezuvchi retseptorlar joylashgan. Ulardan hosil bo'lgan o'simtalar shilliq pardaning yuzasiga yo'nalgan holda hid sezuvchi pufakchalar bilan yakunlanadi. O'simtalarining ayrimlari esa panjarasimon suyakda hosil bo'lgan teshikchalar orqali o'tib, bosh miya tarkibidagi hid biluvchi piyozchalarning hujayralari bilan birlashadi. Piyozchalardan chiqqan nerv tolalari ham o'zaro birlashib, hid bilish nervlarini hosil qiladi va ularni o'z navbatida bosh miyaning hid biluvchi markaziga yo'naltiriladi. Nafas olish jarayonida o'zidan hid taratuvchi moddalarning molekulari burunning hid sezuvchi qismiga o'tib, undagi hid sezuvchi retseptorlarni qitiqlaydi.

Itlarda hid sezish qobiliyati ko'rish va eshitish qobiliyatiga nisbatan ancha yaxshi rivojlangan. Ularning bu qobiliyatidan izquvar itlarni tayyorlash jarayonida unumli foydalansa bo'ladi. Ammo turli xil zotga mansub bo'lgan itlarda hid sezish qobiliyati turlicha rivojlanganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Hayvon organizmi o'ta toliqqanda yoki burunning shilliq pardasida yallig'lanish jarayoni kechayotganda, shuningdek itlarning bo'g'ozlik davrida ularning hid sezish qobiliyati keskin pasayganligini kuzatish mumkin. Shuni ham yodda saqlash lozimki, itlarning hid sezish a'zolariga biron bir o'tkir hidli moddaning uzoq vaqt davomida ta'sir qilishi hayvon hid sezish qobiliyatining pasayishiga olib keladi, ya'ni mazkur hid unga sezilmay qoladi. Bunday hollarda o'sha hidga nisbatan itning sezuvchanlik qobiliyatini tiklash uchun jonivorning hid sezish a'zolariga bir oz muddat ichida dam berish lozim bo'ladi. Hid sezish organining bunday xususiyatini, ayniqsa itlar bilan iz topish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida esdan chiqarmaslik lozim.

g. Ta'm bilish a'zolari.

Itlarning asosiy ta'm bilish a'zosi til hisoblanadi. Tilning shilliq pardasida ta'm sezuvchi so'rg'ichlar mavjud bo'lib, ulardagi retseptorlar turli xil moddalar tomonidan kimyoviy ta'sir o'tkazuvchi qitiqlanishni qabul qiladi. Ta'm bilish so'rg'ichlarining shakliga ko'ra ular uch turga, ya'ni zamburug'simon, yaproqsimon va gulchasimonlarga ajratiladi. Bundan tashqari tilda ipsimon so'rg'ichlar ham mavjud, ammo ular ta'm sezish uchun emas, balki og'iz bo'shlig'idagi ozuqani mexanik ushlash uchun xizmat qiladi. Kimyoviy moddalarning ta'm sezuvchi

so'rg'ichlar retseptorlariga qitiqllovchi ta'sirni o'tkazishi nervlarda qo'zg'alish jarayonining rivojlanishiga zamin yaratadi va keyinchalik u nerv tolalari orqali markaziy nerv sistemasiga uzatiladi.

Itlarning ta'm sezish retseptorlari to'rt xil ta'mni, ya'ni sho'r, achchiq, shirin va nordon ta'mni sezish qobiliyatiga ega. Ta'm sezish a'zolari itlarda ozuqani tahlil qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, hazm qilish jarayonida murakkab reflektor yo'llar orqali shira ajratish bezlari ham qo'zg'atiladi.

Itlarni o'rgatish jarayonida ularni rag'batlantirish uchun ta'm sezish a'zolaridan keng foydalaniladi.

d. Sezgi a'zolari (teri analizatorlari).

Teri itlarning tanasini tashqi tomondan o'rab turadigan murakkab tuzilgan qobiqdir. Teri organizmning tashqi muhit bilan bog'lanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi, itlar o'z terisi orqali tashqi muhit ta'sirini sezadi va unga tegishli ravishda javob ko'rsatadi. Teri tarkibida besh xil retseptorlar ya'ni og'riq, sovuq, issiq, bosim va kuchsiz ta'sirlarni sezish retseptorlar mavjud. It ular yordamida tashqi tomondan berilayotgan biron bir qitiqllovchi ta'sirotni qabul qilib oladi,

Qitiqllovchi ta'sirotlar natijasida teri retseptorlarida qo'zg'alish paydo bo'ladi va u nervlar orqali oldin orqa miyaga, keyinchalik esa bosh miyaning markazlarigacha yetib boradi. Teri retseptorlari nerv hujayralarining uchlari orqali ichki a'zolari tashqi muhit bilan bog'lab, ularning bir butunligini ta'minlaydi.

Terining sezuvchanligi itlarni o'rgatish jarayonida naf beradi (mexanik ta'sir ko'rsatish usuli).

III. It zotlari. Itlarning konstitutsiyasi.

1. It zotlari.

Hozirgi davrda ayrim xabarlariga ko'ra yer sharida taxminat 500 mln. it hisobga olingan. Shulardan 100 mln. itlar bezatki (dekorativ) deb hisoblanadi.

Bu itlarning hammasi 400 zotdan ortiqni tashkil etadi. Xalqaro kinologiya federatsiyasi (FCI) tartibi bo'yicha har bir zotga o'zining standarti mavjud.

Olti ming yil ilgari itlar xonakilashtirilgan, ushbu jarayon Shveysariyaning torf itlari xonakilashtirilishi bilan boshlanadi.

Qadimdan itlarning quyidagi asosiy guruhleri bo'lgan: cho'pon itlar – ovcharka, tozi itlar, tozisimon iskovuch itlar, taksalar, dogsimon – qadimgi assiriya dogi, mastif, pekines, yapon xin turidagi mayda itlar.

Hozirgi kunda Xalqaro kinologiya federatsiyasi tomonidan itlarning zotlari 10 guruhga bo'linadi. Bular 1-guruh – cho'pon itlari; 2-guruh – molosslar; 3-guruh – tererlar, 4-guruh – taksalar; 5-guruh – shpislar; 6-guruh – quvar itlari; 7-guruh – tozisimon iskovuch itlar; 8-guruh – retriver, spaniellar; 9-guruh – bezatki itlar; 10-guruh – tozilar. Shuni ko'rsatib o'tish kerakki rus spanieli zoti Xalqaro kinologiya federatsiyasi tomonidan tan olinmagan.

Itlarni foydalanuvchi guruhidan dekorativ guruhiga o'tish misoli: 1870 yilda Shveysariya Alp tog'larida joylashgan Avliyo Bernar monastirida monaxlar tog'larda qor tagida qolib ketgan odamlarni topishda yordam beradigan kuchli itlarni yaratishdi. Monastirning nomidan bu itlar zotiga "Senbernar" degan ism berishdi. Havo buzilganda monarxlar itlarni odamlarni izlashga chaqirib yuborishar edi. Itlarning beliga ikkita issiq ko'rpa va idishda rom boylanar edi. Itlar tog' yo'laklarning har bir metrini hidlab to'rt metr qorning tagida qolib ketgan odamni topib olishar edilar. Kuchli oyoqlari bilan qorni kovlab, topilgan odamlarning yuzini tili bilan yalab, keyin shu odamning yoniga yotib uni o'z badani bilan isitar edi. Odam hushiga kelgandan keyin, it odamning yoniga shunday moslashar ediki, belidan ko'rpa va romni olishga qulaylik yaratar edi. Agarda odam shulardan ham foydalana ololmasa it monastirga qaytib monaxlarni shu joyga olib kelar edi. Tarix "Barri" laqabli "Senbernar" zoti to'g'risida aytib beradi. U o'zining umri bo'yicha 40 odamning umrini asrab qolgan. Hozirgi davrda "Senbernar" zotli itlar xizmatda yo'q va yillar o'tib o'zining ish sifatlarini yo'qotishgan va shu bilan "Senbernar" lar dekorativ it guruhiga o'tkazildi. Xuddi shunday "Pudel" fransuz zotli it o'zining ovchi

so'rg'ichlar retseptorlariga qitiqlovchi ta'sirni o'tkazishi nervlarda qo'zg'alish jarayonining rivojlanishiga zamin yaratadi va keyinchalik u nerv tolalari orqali markaziy nerv sistemasiga uzatiladi.

Itlarning ta'm sezish retseptorlari to'rt xil ta'mni, ya'ni sho'r, achchiq, shirin va nordon ta'mni sezish qobiliyatiga ega. Ta'm sezish a'zolari itlarda ozuqani tahlil qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, hazm qilish jarayonida murakkab reflektor yo'llar orqali shira ajratish bezlari ham qo'zg'atiladi.

Itlarni o'rgatish jarayonida ularni rag'batlantirish uchun ta'm sezish a'zolaridan keng foydalaniladi.

d. Sezgi a'zolari (teri analizatorlari).

Teri itlarning tanasini tashqi tomondan o'rab turadigan murakkab tuzilgan qobiqdir. Teri organizmning tashqi muhit bilan bog'lanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi, itlar o'z terisi orqali tashqi muhit ta'sirini sezadi va unga tegishli ravishda javob ko'rsatadi. Teri tarkibida besh xil retseptorlar ya'ni og'riq, sovuq, issiq, bosim va kuchsiz ta'sirlarni sezish retseptorlar mavjud. It ular yordamida tashqi tomondan berilayotgan biron bir qitiqlovchi ta'sirotni qabul qilib oladi,

Qitiqlovchi ta'sirotlar natijasida teri retseptorlarida qo'zg'alish paydo bo'ladi va u nervlar orqali oldin orqa miyaga, keyinchalik esa bosh miyaning markazlarigacha yetib boradi. Teri retseptorlari nerv hujayralarining uchlari orqali ichki a'zolarni tashqi muhit bilan bog'lab, ularning bir butunligini ta'minlaydi.

Terining sezuvchanligi itlarni o'rgatish jarayonida naf beradi (mexanik ta'sir ko'rsatish usuli).

III. It zotlari. Itlarning konstitutsiyasi.

1. It zotlari.

Hozirgi davrda ayrim xabarlariga ko'ra yer sharida taxminat 500 mln. it hisobga olingan. Shulardan 100 mln. itlar bezatki (dekorativ) deb hisoblanadi.

Bu itlarning hammasi 400 zotdan ortiqni tashkil etadi. Xalqaro kinologiya federatsiyasi (FCI) tartibi bo'yicha har bir zotga o'zining standarti mavjud.

Olti ming yil ilgari itlar xonakilashtirilgan, ushbu jarayon Shveysariyaning torf itlari xonakilashtirilishi bilan boshlanadi.

Qadimdan itlarning quyidagi asosiy guruhleri bo'lgan: cho'pon itlar – ovcharka, tozi itlar, tozisimon iskovuch itlar, taksalar, dogsimon – qadimgi assiriya dogi, mastif, pekines, yapon xin turidagi mayda itlar.

Hozirgi kunda Xalqaro kinologiya federatsiyasi tomonidan itlarning zotlari 10 guruhga bo'linadi. Bular 1-guruh – cho'pon itlari; 2-guruh – molosslar; 3-guruh – tererlar, 4-guruh – taksalar; 5-guruh – shpislar; 6- guruh – quvar itlari; 7-guruh – tozisimon iskovuch itlar; 8-guruh – retriiver, spaniellar; 9-guruh – bezatki itlar; 10-guruh – tozilar. Shuni ko'rsatib o'tish kerakki rus spanieli zoti Xalqaro kinologiya federatsiyasi tomonidan tan olinmagan.

Itlarni foydalanuvchi guruhidan dekorativ guruhiga o'tish misoli: 1870 yilda Shveysariya Alp tog'larida joylashgan Avliyo Bernar monastirida monaxlar tog'larda qor tagida qolib ketgan odamlarni topishda yordam beradigan kuchli itlarni yaratishdi. Monastirning nomidan bu itlar zotiga "Senbernar" degan ism berishdi. Havo buzilganda monarxlar itlarni odamlarni izlashga chaqirib yuborishar edi. Itlarning beliga ikkita issiq ko'rpa va idishda rom boylanar edi. Itlar tog' yo'laklarning har bir metrini hidlab to'rt metr qorning tagida qolib ketgan odamni topib olishar edilar. Kuchli oyoqlari bilan qorni kovlab, topilgan odamlarning yuzini tili bilan yalab, keyin shu odamning yoniga yotib uni o'z badani bilan isitar edi. Odam hushiga kelgandan keyin, it odamning yoniga shunday moslashar ediki, belidan ko'rpa va romni olishga qulaylik yaratar edi. Agarda odam shulardan ham foydalana ololmasa it monastirga qaytib monaxlarni shu joyga olib kelar edi. Tarix "Barri" laqabli "Senbernar" zoti to'g'risida aytib beradi. U o'zining umri bo'yicha 40 odamning umrini asrab qolgan. Hozirgi davrda "Senbernar" zotli itlar xizmatda yo'q va yillar o'tib o'zining ish sifatlarini yo'qotishgan va shu bilan "Senbernar" lar dekorativ it guruhiga o'tkazildi. Xuddi shunday "Pudel" fransuz zotli it o'zining ovchi

sifatlarini yo'qotib, ovchi it guruhidan dekorativ itlar guruhiga o'tkazildi.

2. Itlarning konstitutsiyasi.

Tana tuzilishi (konstitutsiya)- organizmning nasl qoldiruvchanlik va individual rivojlanishiga sabab bo'ladigan anatomik va fiziologik xususiyatlarning yig'indisi **konstitutsiya** deb ataladi. Hayvonning tana tuzilishi uni parvarishlash, oziqlantirish va asrash sharoitlarining ta'siri natijasida tamomila shakllanadi va nasldan-naslga meros bo'lib qoladi. Shuningdek, iqlim sharoitlari, itlardan foydalanish xususiyatlari ham o'z navbatida hayvonning tashqi tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, tog'larda tarqalgan kavkaz itlari aslida semiz va dag'al bo'lib tog'larga tutash bo'lgan dasht va cho'l hududlarida ancha ozg'in va bo'sh holatga o'zgargan. Bundan tashqari, har bir zot vakillari ichida yirik, xomsemiz, qo'pol jussali hamda epchil, bo'sh, oriqlik va nozik qomatli itlarni uchratish mumkin.

Itlarni ko'plab kuzatishlar asosida professorlar M.F. Ivanov va P.I. Kuleshov tomonidan hayvonlarning tana tuzilishi turlarining tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: xomsemiz, dag'al, nozik, pishiq va mustahkam.

Xomsemiz tipli tana tuzilishi – hosil qilinuvchi reflekslarning sustligi, tana muskullarining go'shtdorligi, yaxshi rivojlangan va namxush labli hamda keng va past boshlilik bilan tavsiflanadi. Ularning bo'yni ko'p hollarda salmoqdor, keng ko'krakli, qorni osilgan, harakatlari sust va sekin, terisi burmali, ya'ni silliq emas. Bunday itlar asosan semirishga moyil bo'ladi. Tananing tuklanishi dag'al jun va tivitlardan tashkil topgan. Oyoq bo'g'inlari bo'sh. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayoniga nisbatan ustun bo'ladi (senbarnarlar – juni uzun, yirik va baquvvat itlar).

Dag'al tipli tana tuzilishi – tormozlanish jarayoni va qo'zg'alish jarayonlari o'zaro muvozanatlashgan bo'ladi. Bu tipdagi itlarning muskullari va suyaklari salmoqdor, boshi to'mtoqlik tumshuqli, lablari qalin va quruqlik, bo'yni kalta, ko'krakli keng, qorni sezilar-sezilmas tortilgan, oyoqlari kalta boldirli, terisi qalin va tarang tortilgan, bo'yin qismidagi terilari esa burmalangan. Tuk qoplami dag'al bo'lib, yaxshi rivojlangan jun va tig'iz tivitlardan iborat.

Dag'al tipli itlar chidamliligini va tez moslashuvchanligini bilan tavsiflanadi (Kavkaz, O'rta Osiyo ovchakalari va Shimoliy-Sharqning chanaga qo'shiluvchi layka itlari va boshqalar).

Mustahkam tipli tana tuzilishiga ega itlarning oliy nerv faoliyat turi vazminli va serharakat bo'ladi. Bunday itlarning suyaklari yaxshi rivojlangan, muskullari kuruk va bo'rtib chiqqan bo'ladi. Hayvonning terisi o'rtacha qalinlikda, boshi ponasimon, cho'zinchoq, peshonasi yassi, lablari quruq, qoq bo'yin, chuqur ko'krakli, qorni ko'krak chizig'idan yuqoriroqda va tortilgan, oyoqlari uzun boldirli hamda sakrash bo'g'imining burchaklari aniq aks etilgan bo'ladi. Tanasining jun qoplamida silliq va kalta tuklardan tortib, uzun va qattiq tuklargacha turlanish kuzatiladi (tozilar, dog, Sharqiy Yevropa ovchakalari, bokser va boshqalar).

Pishiq tipli tana tuzilishiga ega itlarning oliy nerv faoliyat turi tiyiqsiz harakatchan. Suyaklari bir oz ingichkalashgan, ammo juda mustahkam, tananing muskullari ham yupqalashgan bo'ladi. Terisi mustahkam va elastik, boshi nisbatan ensiz bo'lib, sezilar-sezilmas holda tumshuqqa o'tganligi kuzatiladi. Itning lab-lunjilari quruq, bo'yni tik tutilgan, ko'kragi chuqur, qorni ichkariga tortilgan, shuningdek jag'lari bir-biriga yaqin jipslashmaydigan hollari ham uchraydi. Itlar ko'pincha uzunoyoq yoki ba'zi hollarda esa to'rtburchaksimon ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Hayvonning sakrash bo'g'inlari aniq ifodalangan. Tanasining jun qoplami turli-tuman ravishda tuklangan (doberman, kolli, poynter va boshqalar).

Nozik tipli tana tuzilishi – itlar tez asabiylanish va yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanlika moyil bo'ladi. Sun'iy tanlash va nasl buzilishi bilan chambarchas bog'liq holda, aksariyat itlarda pakana bo'ylik va shunga o'xshash me'yordan chiqish hollari ham uchraydi. Itlarning boshi yumaloq, sharsimon tuzilishda, ko'zlari bo'rtib chiqqan, yuz suyaklari esa ayrim hollarda shu qadar kalta va zaif rivojlangan bo'ladiki, go'yo hayvonning pastki jag'i oldinga chiqib turganday tuyiladi. Itlarning terisi yupqa, tanasining jun qoplami uzun va jingalak (xonaki baroq it) tuklardan tortib, taqir tukli (xonaki tozilar, meksikaning junsiz itlari) largacha turlanishi kuzatiladi. Yuqorida qayd etilgan itlarning tana tuzilishi tiplari har doim ham sof holda uchramaydi. Juda ko'p hollarda mazkur jonivorlar aralash tipli tuzilishga ega bo'lib, ular birinchi navbatda ustunroq tiplar, masalan: pishiq-dag'al, dag'al-mustahkam, bo'sh-xomsemiz, xomsemiz-bo'sh kabi turlar ko'rinishida bo'ladi.

Zot turi tushunchasi deganda, hayvonga dastlabki nazar tashlaganda mazkur it zot haqidagi mukammal tasavvurga qaysi darajada yaqinlashishi, ya'ni uning zot turi kuchli yoki kuchsiz darajada

ifodalanishi bilan belgilanadi. Shuning bilan birgalikda tur jinsiy demorfizm, ya'ni hayvonning ko'ppak yoki qanjiq sifatida farqlanishini ham ifodalaydi. Ko'ppak – erkaklik turiga, qanjiq – esa urg'ochilik turiga ajratilishi lozim. Jinsiy turga nomuvofiqlik esa hayvonlarda kuzatiladigan nuqsonga kiradi.

Quvvatlilik – hayvon tanasidagi suyaklar va muskullarning kuchli rivojlanganligini ifodalaydi. Itlarning skeleti dag'al, mustahkam, rivojlangan, zaif bo'lishi mumkin. Aynan shundan kelib chiqqan holda, itlar vazmin, baquvvat, mustahkam va zaif sifatida tavsiflanadi. Agar it insonda vazminlik ta'ssurotini qoldirsa, demak u vazmin hisoblanadi, aks holda esa u epchil itlar sirasiga kiritiladi.

Nasldorlik – it o'zining zot turi bilan umumiy ta'surotni tavsiflaydi, qaysiki bu taassurotni bizning ongimizda itlar o'zlarining zot turlariga ko'ra shakllantiradi. Bu kabi belgilar orqali itlar zotdor, oddiy, haddan tashqari rivojlangan (odatda nozik skeletli), hamda dag'al turlarga bo'linadi.

Xizmat it zotlari.



Belgiya ovcharkasi (malinua)



Nemis ovcharkasi



Labrador




O'rta osiyo ovcharkasi

IV. Itning tashqi va ichki tuzilishi (eksteryer va interyer).

1. Eksteryer.

Tashqi tuzilish (eksteryer) deb hayvonning tashqi qiyofasi, ya'ni itning sirtqi ko'rinishi bo'yicha aniqlanadigan tuzilishga aytiladi. Kinologlar itlarning tashqi tuzilishini mutanosiblik va hajm ko'rsatkichlari, nasldorlik va jins turi hamda it tanasining turli qismlarini alohida bayon etib ifodalash orqali bir butun tavsifiy tizim asosida aniqlashadi.



6 - rasm. Itning tuzilishi:

1-ensa bo'rtmasi, 2-peshona, 3-peshonadan tumshuqqa o'tish joyi, 4-burun usti, 5-burun uchi, 6-tumshuq, 7-lablar, 8-yonoq, 9-tomoq, 10-bo'yin, 11-ko'krakning old qismi, 12-yag'rin, 13-orqa, 14-bel, 15-sag'ri, 16-chot, 17-qorin, 18-qovurg'alar, 19-ko'krak qafasi, 20-ko'krak, 21-yelka, 22-yelka-kurak birikmasi, 23-tirsak, 24-bilak, 25-bilakuzuk, 26-kaft, 27-oldingi oyoq panjasi, 28-barmoqlar, 29-tirnoqlar, 30-son, 31-tizza, 32-boldir, 33-sakrash bo'g'imi, 34-kaft, 35-sirtlon barmoq, 36-orqa oyoq panjasi, 37-barmoqlar, 38-tirnoqlar, 39-dum.

Kinolog hakamlar singari itlarning egalari ham jonivorlarning qaddi-qomati tavsiflanadigan atamashunoslik ilmini mukammal bilishlari talab etiladi (6-rasm).

Itlarning ko'rgazmasida hayvonlarni tekshiruv va ko'rikdan o'tkazuvchi mutaxassis (ekspert) asosan qanday ko'rsatkichlarga o'z e'tiborini qaratadi? Bu eng avvalo **hayvon jussasining tuzilishidir**. U nomutanosib, mutanosib, novcha, pakana va o'rtamiyona (standart

hisobida) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, itlar yoshi o'tgan (belgilangan standartdan yuqori yoshda) yoki yoshi yetmagan, ya'ni cheklangan minimal standartdan kichik bo'lishi ham e'tiborga molikdir.

Shuningdek, itlarning tashqi qiyofasini baholashda tana shaklining mutanosibligi ham aniqlanadi va unga ko'ra itlar uzun oyoq, mutanosib, kalta oyoq yoki bo'ksasi baland bo'lishi ham mumkin.

Itshunoslikda jonivorning tana tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlarni ifodalovchi quyidagi indekslar (ko'rsatkichlar) juda ko'p hollarda qo'llaniladi:

- *suyakdorlik* indeksi – it panja o'zagi aylanasing uzunligi bilan yag'rin balandligining o'zaro nisbati. Uning asosida suyaklarning (skelet) rivojlanish ko'rsatkichi aniqlanadi.

Panja aylanasing uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

- *uzun oyoqlilik* indeksi – it oyoqlari uzunligi yag'rinning umumiy balandligiga nisbati. Itlarning nisbiy uzun oyoqliligini ko'rsatadi.

Oldingi oyoqlarning tirsakkacha bo'lgan uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

- *ko'krak* indeksi – it ko'kraginging kengligi hamda chuqurligining o'zaro nisbati. Ko'krakning nisbiy rivojlanishini ko'rsatadi.

Ko'krak kengligi x 100

Ko'krak chuqurligi

- *yiriklik* indeksi – it yag'rinining balandligi bilan ko'krak aylanasi uzunligining o'zaro nisbati. Tananing nisbiy rivojlanishini ifodalaydi.

Ko'krak aylanasing uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

- *uzunboshlilik* indeksi – it yag'rinining balandligi va bosh uzunligining o'zaro nisbati. Boshning nisbiy uzunligini ifodalaydi.

Bosh uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

- *keng peshonalik* indeksi – it boshining nisbiy kengligi.

Peshona kengligi x 100

Bosh uzunligi

Gavda hajmi indeksi - tana balandligi va uzunligining o'zaro nisbati (ko'krak-yelka bo'g'imining old bo'rtmasi va quymuch bo'rtigi

o'rtasidagi masofa). Hayvon tana tuzilishining mutanosibligini ifodalaydi.

Tananing qiyalama uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

Agar hajm ko'rsatkichi 100 ga teng bo'lsa it tanasining balandligi va uzunligi mutanosib, ya'ni hajmi to'rtburchak (kvadrat) bo'ladi. Bundan tashqari, itlar tanasining hajmi qisqargan, uzaygan, cho'zilgan shakllarda ham bo'lishi mumkin.

Itlarning tana tuzilishini ko'z orqali chamalab ham, shuningdek hayvonlarni maxsus o'lchov asboblari: zoomuxandis sirkuli, o'lchov tayog'i va lentasi yordamida o'lchab xolis ravishda baholash ham mumkin (7 - rasm).


7- rasm. It o'lchamlarini olish uchun qo'llanadigan asboblari: a - o'lchov tayog'i: 1 - pastki planka, 2 - erkin harakatlanadigan qism, 3 - vintsimon qisqich, 4 - shkala, 5 - yuqori qalpoqcha, 6 - harakatchan kvadrat o'q, 7 - yuqori planka, 8 - dastak; b - o'lchov lentasi; v - zoomuxandis sirkuli.

Odatda ikki kishi itning o'lchamlarini oladi, uchinchi kishi esa olingan natijalarni daftarga qayd etib boradi. Ulardan biri itning egasi bo'lishi kerak. Hayvon o'zini yengil his etishi uchun egasi hamisha itning yonida bo'lishi lozim. Itning dastlabki o'lchamlarini olishda, ishni santimetrli lenta va sirkuldan boshlash tavsiya etiladi. Chunki, mazkur asboblarni jonivorlarni unchalik ham bezovtalantirmaydi.

Lenta yoki sirkul yordamida it tumshug'ining uzunligi - ko'zlarning ichki burchaklarining chizig'i bo'yicha, ko'z kosasidan burunning oxirgi nuqtasigacha (8 -rasm. 9, 10); hayvon peshonasining uzunligi - ko'z kosasidan ensa bo'rtmasigacha (8 -rasm. 10, 11); boshining uzunligi - ensa bo'rtmasidan to'g'ri chiziq bo'ylab burunning bo'rtmasigacha bo'lgan masofa orqali o'lchanadi (8 -rasm. 9, 11). It boshining kengligini o'lchashda sirkul yordamida boshning eng kengaygan qismida, peshona markazi bo'ylab, it quloqlarining old yonida, yonoqlaridan boshlab o'lchanadi (8 -rasm. 16, 17).

Lenta yordamida ko'krak aylanasi uzunligini kuraklar ostidan ko'krak qafasi bo'ylab (8 -rasm. 14), oldingi oyoqlar uzunligini it

tirsagidan to'g'ri yo'nalish bo'ylab yergacha (8-rasm. 7, 8), panja o'zagi aylanasi bilakuzuk bo'g'inining pastki va beshinchi barmoq asosining yuqori qismidan o'lchanadi (8-rasm. 15). Yag'rin (8 -rasm. 1, 2) va dumg'aza balandligi (8 -rasm. 4) o'lchov tayog'i orqali o'lchanadi. Shuningdek, tayoq yordamida tananing qiyalama uzunligini yelka suyagining old bo'rtmasidan quymuch bo'rtmasigacha bo'lgan masofa orqali (8 -rasm. 5, 6), ko'krak kengligini esa old tomodan yelka-kurak bo'g'inlari o'rtasidan o'lchanadi (8 -rasm. 18, 19).




8 - rasm. Itning o'lchamlarini olish.

Ko'krak uzunligi ham o'lchov tayog'i yordamida quyidagicha aniqlanadi: asbobning qo'zg'almas qismini ko'krakning pastki qismiga qo'yib siljiydigan qismini esa, ko'krak ortidan yag'rin ustiga tushiriladi (8 -rasm. 13, 12,).

Konditsiya – itning jismoniy holatini ifodalaydi. Konditsiya turlari yaxshi, o'rta, ozg'in, qoniqarsiz, zavodga ta'luqli, ishchi, semiz va ko'rgazmalilarga bo'linadi.

Itlarning tumshug'i - o'tkir, tumtoq, ingichka, keng, uzun, kalta va qanqaygan bo'lishi mumkin (9 - rasm).




9 - rasm. 1 – uzun va o'tkir, 2 – keng, 3 – tumtoq, 4 – ensiz, 5 – kalta.

Burunning shilliq pardasi turli tuslarda bo'lishini inobatga olib, uning rangini aniq ifodalash

lozim. Burun kovaklari tor va kengaygan bo'lishi mumkin.

Itlarning *lablari* - namxush, quruq, shalviragan, jag'larga mustahkam yondashgan, do'mboq, yupqa, kuchsiz rivojlangan, jag'larga jips yopishgan yoki yopishmagan bo'ladi (10 - rasm).



10 - rasm. 1 - shalviragan quloq, 2 - quruq quloq

Hayvon og'zining birikish burchaklari - kuchli yoki kuchsiz ifodalangan bo'ladi.

Yonoqlar - yassi yoki turtib chiqqan bo'lishi mumkin.


Burun uchi - qanqaygan, pastga engashgan, to'g'ri, ingichka, yo'g'on hamda qirg'iyburun bo'lishi kuzatiladi (11 -rasm).



11 - rasm. 1 - to'g'ri, 2 - pastga engashgan, 3 - qanqaygan.


Bosh suyagi - ya'ni bosh chanog'i umumiy jihatdan olganda qisqargan, uzun, kalta va keng bo'ligi qayd etiladi.

Peshonadan tumshuqqa o'tish joyi - silliq, yengil ifodalangan, keskin va aniq ifodalangan bo'ladi (12-rasm)




12 - rasm. 1 - keskin, 2 - yengil ifodalangan, 3 - aniq ifodalangan.

Peshonasi - do'ng peshona, yassi, tor, keng, yumaloq, ko'zlar yo'nalishi bo'ylab toraygan, uzunasiga burishgan yoki burishmagan bo'ladi (13 - rasm).



13 - rasm. 1 - tor, 2 - keng, 3 - do'ng peshona, 4 - yassi,
Qosh usti bo'rtig'i - aniq yoki sezilar-sezilmas ifodalangan.
Boshning teppa qismi - keng, tor, yassi, do'ng, ensa bo'rtmasi aniq yoki qisman ifodalangan bo'ladi.

Quloqlar - ensiz, keng, kalta, uzun, katta, kichik, past yoki baland qo'yilgan, go'shtdor, ingichka, asosi ensiz yoki keng, o'tkir, yaxshi yoki kam xarakatchan, bir tomonga taqlangan, yarimi tik turgan, yumshoq, og'ir, tik turgan, osilgan, yonoqlarga jips yoki ajralib turgan, standart bo'yicha yoki bir sababga ko'ra kesilgan bo'lishi mumkin (14 - rasm).



14 - rasm. Quloq turlari: 1 - past o'rnashgan, 2 - baland o'rnashgan, 3 - past o'rnashgan va asosi ensiz, 4 - Uzun, enli, asosi enli. 5 - baland o'rnashgan, o'tkir uchli, 6 - kesilgan, 7 - kichik va yengil, 8 - kichik, tik turgan va o'tkir uchli. 9 - qisman tik turgan.

Ensa bo'rtmasi - aniq ifodalangan, bilinar-bilinmas va sezilarli yoki sezilarsiz bo'ladi (15 - rasm).



15 - rasm. 1 - bilinar-bilinmas, 2 -sezilarli, 3-aniq ifodalangan.


Ko'zlar - shakliga ko'ra tuxumsimon, uchburchak, yumaloq, bodomsimon, hoshiyali, bo'tako'z, botiq, kipriklari esa ichkariga yoki tashqariga egilgan turlarga farqlanadi.

Rangiga ko'ra ko'zlari tim qora, malla, to'q jigarrang, och jigarrang, havorang, qahrabosimon va yashilsimon tuslarga ajratiladi.

Ko'z qarashlari (nigohi) darg'azab, hadiksiragan, sokin, ifodali va ishonchsiz bo'ladi.


Bosh - yengil, salmoqdor, qo'pol, jinsi aniq ifodalangan (erkak yoki urg'ochi).

Bo'yin - ingichka, yo'g'on, kalta, uzun, mushakdor, mutanosib, namxush, quruq, tik yoki quyi o'rnashgan hamda bukri bo'yin va ohunikisimon shakldagi bo'yinlarga bo'linadi (16 -rasm).




16 - rasm. 1. Tik o'rnashgan. 2. Kuyi o'rnashgan 3. Bukri. 4. Ohunikisimon.

Ko'krak - chuqur, kichkina, enli, ingichka, kalta, uzun, egri, bo'qoqsimon bo'ladi (17 -rasm).




17-rasm. Ko'krak turlari: 1,2,3,- yon tomondan ko'rinish: 1. Chuqur, kalta. 2. Chuqur, uzun. 3. Kichkina. 4, 5 – old tomondan ko'rinish: 4. Yassi. 5. Bo'qoqsimon.

Ko'kraging old qismi - yaxshi rivojlangan, yetarlicha rivojlanmagan, ensiz, enli, yassi, mushakdor va go'shtsiz turlari mavjud (18-rasm).




18 - rasm. 1.Enli. 2. Ensiz.

Yag'rin - aniq ifodalangan, sezilarsiz, baland, botiq turlarga bo'linadi (19-rasm).



19 - rasm. 1. Aniq ifodalangan (yaxshi rivojlangan). 2.Sezilarsiz (yaxshi rivojlanmagan).


Yelka - to'g'ri, egilgan, mustahkam, uzun, qisqa, ensiz, enli, yumshoq, yetarli yoki yetarsiz ravishda mushakdor bo'lishi kuzatiladi (20-rasm).



20 - rasm.1. Egilgan. 2. To'g'ri. 3. Turtib chiqqan.

Bel - mustahkam, yumshoq, keng, ensiz, uzun, kalta, to'g'ri, turtib chiqqan, yetarli yoki yetarsiz darajada mushakdor.


Qorin - tortilgan, osilgan, qappaygan va tarang bo'ladi (21-rasm).



21-rasm. 1. Tortilgan. 2. Osilgan.

Maklok – tos yonbosh suyagi qanotining boʻrtib chiqqan joyi boʻlib, sezilarli, sezilarsiz, rivojlangan va turtib chiqqan holatlarda boʻlishi kuzatiladi.

Sagʻri - maklokdan quymich boʻrtmasigacha boʻlgan masofa tana qismi hisoblanib, u gorizontal, turtib chiqqan, qiya, qirqilgan, qisqa, uzun, mushakdor, chayir, keng va tor boʻlishi mumkin (22-rasm).



22-rasm. Sagʻri holati va dumning tutilishi: 1. Toʻgʻri, gorizontal tutilgan. 2. Qiya, quyi tutilgan. 3. Toʻgʻri, yuqoriga koʻtarilgan. 4. Sagʻri va dum osilgan

Dum - tik yoki quyi tutilgan, asosi yoʻgʻon yoki ingichka, uzun yoki kalta, yuqoriga koʻtarilgan aylanasiimon holatda, gorizontal tutilgan yoki osilgan, bir tarafga egilgan hamda buralgan holatlarda boʻlishi mumkin.

Oldingi oyoqlar - toʻgʻri, birikish burchaklari aniq yoki noaniq shakllangan, mushaklari yaxshi yoki kam rivojlangan, kuragi toʻgʻri, qiya harakatlanuvchi, uzun va kalta boʻladi.

Yelka-kurak boʻgʻimi - yaqqol yoki kuchiz ifodalangan.

Tirsaklar - harakatchan, tashqariga chiqqan, ichkariga qayrilgan, koʻkraklarga yonlashgan, orqa tomonga kuchli ogʻgan boʻladi.

Bilagi - uzun, kalta, toʻgʻri, mustahkam, qiyshaygan boʻlishi mumkin.

Tarandisi - uzun junli it zotlarida oldingi oyoq bilaklarining orqa tomonida momiqday uzun, pardozbop tuklar.

Bilak bo'g'imi - yo'g'on, yupqa yaxshi yoki kuchsiz rivojlangan.

Barmoqlar - oldingi oyoqlarda ham xuddi orqa oyoqlardagi singari jips, siyraklashgan, mustahkam, yumshoq, jamlangan va yassi bo'lishi kuzatiladi.

Orqa oyoqlar - to'g'ri, bo'g'imlari to'g'ri yoki noto'g'ri burchakli, yaxshi yoki kam mushakdor bo'ladi.

Son - uzun, kalta, mushakdor yoki kam mushakli, kuchli yoki kuchsiz rivojlangan bo'ladi.


Tarandisi - orqa oyoqlarda sonining ort tomonida uzun, bezamkor junlarni vujudga keltiradi.

Tizzalar - me'yorda, kuchli, turtib chiqqan yoki kam sezilarli bo'lishi mumkin.

Boldirlar - ingichka yoki yo'g'on, kalta yoki uzun bo'ladi.

Sakrash bo'g'imi - aniq ifodalangan, yaxshi ifodalanmagan, enli, ensiz, ingichka, yo'g'on, quruq, yerdan ancha yuqorida yoki yerga juda yaqin o'rnatilgan sifatida belgilanadi.

Panjalar - (-rasm) tuxumsimon, yumaloqlashgan, kichik, katta, jamlangan, toraygan, yumshoq, jips, yumaloq (mushuklarnikisimon), yassi va tarqoq bo'ladi.



23- rasm. Panja turlari: 1 - yumaloq (mushuklarnikisimon),
2 - yumaloqlashgan, 3 - toraygan, 4 - tarqoq.

Tirnoqlar - oldingi va orqa oyoq barmoqlarida mustahkam, kuchsiz, o'tkir, o'sik, standartga muvofiq yoki boshqa tusda bo'ladi.

Orqa chiqaruv teshigi - to'liq bayon etilmaydi.

Choti - kuchli yoki kuchsiz ifodalangan teri burmalaridan iborat.

Jinsiy a'zolar - ko'ppaklarda jinsiy a'zo va urug'donlar joylashgan urug'don xaltasi, qanjiqlarda esa ilmoq bo'lib, u mukammal ifodalanmaydi.

Rangi va jun tuzilmasi - mazkur zotlar uchun ancha-muncha tavsifga loyiq bo'lganlarigina standart sifatida ta'riflanadi.

Itlarning junlari - o'z tuzilmasiga ko'ra qayrilgan, to'liqinsimon, to'g'ri, yoysimon yoki aylanasimon, kalta, uzun, qattiq, ipaksimon, yumshoq bo'lishi mumkin. Ushbu belgilarga muvofiq itlar kalta junli, o'sik junli va dag'al junlilarga bo'linadi. Bundan tashqari, oraliq o'rinli jun tipiga ega itlar ham uchraydi.

Jun qoplami tivit va o'zakli yoki qoplama tuklardan tashkil topgan. Itlar tanasining ayrim joylarida ancha uzun jun tolalari chiroyli va hajmdor shaklga ega bo'lib, yag'rin va bo'yinda "yol" ni, orqa oyoqlarda "ishtoncha" ni, oldingi oyoqlarda "taram" ni, qorin chizig'i bo'ylab "ko'ylak" ni, dumning pastki qismida esa "sharshara" ni hosil qiladi.

Qoshlari dag'al junli zotlarda tavsifiy belgilarni o'zida ifoda etib, kuchli yoki kuchsiz rivojlangan, yaqqol yoki kam ifodalangan, sezilarli yoki sezilarsiz bo'lishi mumkin.

Soqol faqatgina dag'al junli it zotlarida uchrab, yaxshi, o'ta kuchli yoki kam rivojlangan bo'lishi mumkin.

Rangi bo'yicha itlarning jun qoplami bir, ikki yoki uch xildagi tuslarda bo'lishi mumkin. Teridagi pigmentlar miqdori quyosh nuri, ratsionning to'yimliliigi, shuningdek parvarishlash hamda itlarni yuvintirishda ishlatiladigan ishqoriy modda turiga ham bog'liq bo'ladi.

Oq rangli deb, itlarning juni pigmentlanmagan, ammo burni, qovoqlari, lablarining chetlari pigmentlangan hamda ko'zning qorachig'i ranglangan bo'lishi lozim. Albinos hayvonlarda esa yuqorida qayd etilgan joylar butunlay pigmentsiz bo'ladi.

To'q kulrang (bo'rinikisimon)-to'q sariq rang. Bu tusdagi itlarda belning uzunasi bo'ylab tasmasimon chiziq o'tadi.

Bu tusdagi itlarning jun tolalari pigmentsizlanmagan bog'lam orqali turli bo'laklarga bo'linib, har xil rangbaranglikga ega: ildizi sariq, o'rta qismi och rang, uchlari esa qoramtir. Agar to'q kulrang tusli tuklar malla yoki qoramtir uchli bo'lsa, bunday itlarni qo'ng'ir itlar deb atashadi.

Bulardan tashqari quyidagi turdagi ranglar uchraydi: ko'kimtir rang (sichqonlarnikisimon). U ikki xil tusda - och kulrang va to'q kulrang (deyarli "ho'l asfalt" rangida bo'ladi).

Mallarang (shokoladsimon) - och yoki to'q ranglarda bo'lishi mumkin.

Jabduqsimon ranglanish – asosan malla, kulrang tusdagi bosh, quloqlar, bo'yin qismidagi dog'lar va yelkani qoplovchi rangbarangliklardan iborat.

Yo'lbarssimon (yo'lbars rangini eslatuvchi) ranglanish. Asosiy rangda (sarg'ish, kulrang, qo'ng'ir, sariq) to'q ko'ndalang chiziqlar mavjud. Standart bo'yicha aksariyat itlar to'q rangga ega bo'ladi.

Marmarsimon ranglanish – asosi oq yoki oqish tusda bo'lib, unda xolga o'xshamagan noto'g'ri shakldagi mayda dog'lar sochilib joylashgan. Namunada bu itlarning oyoqlari va bo'ynida dog'lar uchramaydi.


Xoldor itlar – asosiy rangi oq (yoki oqish) bo'lib, unda butun tana bo'ylab xol va dog'lar mavjud bo'ladi.

Tullash deb ko'plab it zotlarida – hayvonning yoshiga, organizmdagi gormonlar muvozanatiga, oziqlantirish va saqlash sharoitiga, atrof muhitning haroratiga va mavsumga bog'liq holda junning davriy ravishda almashinib turishiga aytiladi. Dastlabki tullash itlar hayotining ilk oylarida yuz berib, unda itvachchalarga xos bo'lgan yumshoq tuklar katta hayvonlarning dag'al junlariga almashinadi.

Ko'plab it zotlari o'z junining tig'isligini qish mavsumida bir necha marotabaga oshiradi. Ayrim hollarda itlarning rangi ham o'zgaradi. Mavsumiy tullash bir yilda ikki marotaba kuzatiladi. Ochiq havoda parvarish qilinadigan itlar jadalroq (sovuq haroratning issiq haroratga keskin almashinishi sababli), uylarda saqlanadigan itlar esa asta-sekinlik bilan tullaydi.

Tullash davrida itlar ratsionining tarkibiga mineral tuzlar va vitaminlar: perga, dengiz karami, baliq yog'i, trivitamin, baliq va qon uni, kalsiy va baliq ozuqasi (dafniyalar) kiritilishi lozim.


Harakatlanish mexanikasi itlar uchun o'ta muhim hisoblanadi. Ko'rgazmalarda nafaqat it oyoqlarining shakli va muskullarining rivojlanish darajasi, balki tik turganda hamda harakatlanganda oyoqlarini tutishi baholanadi, chunonchi itlar harakatlanganda oyoqlaridagi nuqsonlar yoki ustunliklar yaqqol namoyon bo'ladi.



14 - rasm. Oldingi oyoqlarning tutilishi: old tomondan ko'rinish: 1 - me'yoriy, 2 - maymoq, 3 - yoyilgan, yon tomondan ko'rinish: 1 - me'yoriy, burchaklari to'g'ri shakllangan, 2 - qiya, 3 - to'g'ri yelka.

qisqa, keng, me'yoriy, orasi ochilgan, maymoq, yoyilgan, to'g'ri yoki noto'g'ri shakllangan burchakli bo'lishi mumkin.

Orqa oyoqlarini tutishi (25-rasm) me'yoriy, nuqtasimon, qilichsimon, quymich chiziqlaridan ortda tutilgan, sakrash bo'g'imlarining bir-biriga yaqin tutilishi (sigirlarnikisimon), keng, qisqa, to'g'ri yoki noto'g'ri shakllangan burchakli bo'lishi qayd etiladi.



25 - rasm. Orqa oyoqlarning tutilishi: yon tomondan ko'rinish: 1 - me'yoriy, 2 - qilichsimon, 3 - quymich, orqadan ko'rinish: 4 - keng, 5 - yoyilgan, 6 - me'yoriy, 7 - sakrash bo'g'imlari yaqin tutilgan, 8 - jumaloq, 9 - tor.

Qadam tashlanishi mayda, uzun, keng, yengil, prujinasimon, beo'xshov turlarga ajratiladi. Yo'rg'alashi va sakrab chopishi erkin, qimtingan, yengil, mayda, mayin, o'ynoqi, beo'xshov bo'lishi mumkin. Yo'rg'alash deganda itlarning notabiiy harakatlanishi tushinilib, unda bir tomondagi oldingi va orqa oyoqlar bir vaqtning o'zida ilgariga tashlanadi.

Ko'rgazmalarda e'tiborga olinadigan itlar tavsifi jo'shqin, g'ayratsiz, to'g'ri, ayyor, mehribon, jahldor, tinib-tinchimas, yuvosh, dadil, qo'rqoq, ishonuvchan va shubhalanuvchi bo'ladi.

2. Interyer.

Itning ichki tuzilishi deb – it organizmining ichki anatomik va morfologik xususiyatlari bilinadi. Ichki tuzilishga teri, jun tolalari, ichki a'zolar, qon tarkibi va turli xil fiziologik ko'rsatkichlar kiradi.

Barcha ichki a'zolar turli xil to'qimalardan tashkil topgan. Bular – epitelial (qoplovchi), muskul, nerv va biriktiruvchi to'qimalardir.

Epitelial to'qimaning hujayralari yaxlit qobiq bilan tana sirti va ichki a'zolar, ya'ni qin, bachadon, oshqozon va boshqalarni tashqi tomondan qoplab turadi. Epitelial to'qimaning bajaradigan funksiyalari turlicha bo'ladi. U bakteriyalar, kimyoviy moddalar ta'siri va tananing qurib qolishidan himoya qiladi, shuningdek to'yimli moddalar va suvning tanaga so'rilishi hamda tashqi ta'sirlarning qabul qilinishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, epiteliy hujayralari maxsus moddalar – ichak va oshqozon shirasi, ko'z yoshi, sut, so'lak, ter, quloq kiri va shu kabilarni ishlab chiqaradi.

Muskul to'qimasi ko'plab miqdordagi bo'ylama, yonma-yon joylashgan tolalardan tashkil topgan bo'lib, ularning qisqarishi natijasida, kalta va yo'g'onlashgan shaklga kiradi, ya'ni mexanik ishni bajaradi va natijada harakatlanish imkonini beradi. Suyaklarga birikkan muskullar skelet muskulaturasini tashkil etadi. Shuningdek uni erkin muskulatura deb ham atash termini qabul qilingan. U hamisha bosh miya nazorati ostida bo'ladi. Bundan tashqari organizmda silliq muskulatura ham mavjud. U vegetativ nerv sistemasining qo'zg'alishi oqibatida ixtiyoriy ravishda qisqaradi. Muskul to'qimasidan qon tomirlari va asab tolalari o'tadi.

Nerv to'qimasi it organizmida ham xuddi insonlardagi kabi neyronlardan tashkil topgan bo'lib, nerv sistemasini vujudga keltiradi. Har bir neyron yadroli tanacha va ikki yoki undan ortiq o'simtalardan tuzilgan. Nerv impulslarining yo'nalishlariga bog'liq ravishda bu

o'simtalar ikki turga bo'linadi. Ularning ayrimlari impulsnlarni hujayra tanasidan tashqariga uzatsa, boshqalari esa sirdan hujayra tanasiga qabul qiladi.

Hayvonlar va odamlardagi maxsus sezgi tuzilmalari impulsnlarni markaziy nerv sistemasiga tashqi va ichki muhitdan qabul qiluvchi va qayta uzatuvchi retseptorlar deb ataladi. Retseptorlar qat'iy o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ularning birlari tashqi muhitdan qo'zg'alishlarni qabul qiladi (eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish va sezish retseptorlari), shu sababli tevarak olamni o'zlashtirish xususiyati retseptorlardan kelayotgan axborotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqalari esa ichki a'zolar bilan bog'lanadi (yurak, qon va limfa tomirlari, o'pka va boshqalar bilan). Bundan tashqari retseptorlar funksiyasiga ko'ra "ixtisoslashgan" bo'ladi. Bularidan ta'm, hid, kimyoviy birikmalarga sezgir retseptorlar, shuningdek ko'rish, eshitish, gravitatsiya va qon-tomir retseptorlari ham mavjud.

Retseptordan markaziy nerv sistemasiga axborot uzatish jarayoni va unga nisbatan javob reaksiyasi reflektor yoyi deb ataladi.

Biriktiruvchi to'qimaga suyak, pay va tog'ay to'qimalari kiradi.

Suyak to'qimasi tayanch vazifasini o'taydi. Suyaklar tashkil topgan asosiy modda, bu — kalsiy tuzlaridir. Paylar qayishqoq, og'ilmaydigan bog'lamlardir. Ular juda mustahkam bo'lib, suyaklarni o'zaro biriktirib turadi. Tog'ay — qattiq to'qima bo'lsada, lekin u mustahkam emas.

V. Itlarni saqlash tartibi.

Itlarni saqlash uchun xonalarni qurishda, ular u yerda vaqtining ko'p qismini o'tkazishini inobatga olish lozim. Shuning uchun xonalar bir qator talablarga javob berishlari kerak: itlarni yomg'ir, shamol, chang, qish sovug'i va yoz issig'idan himoya qilish, begona odamlar, daydi va yovoyi hayvonlar hamda kuchli shovqinlardan (o'tayotgan avtomobillar va boshq.) ximoya qilish. Xonalar atrof yerdan balandroq va quruq, odamlar yashaydigan, chorvachilik va xo'jalik qurilmalardan yiroqroq joylarda qurilishi lozim. Xonalar yetarlicha keng, quruq, yoruq, havosi toza bo'lishi kerak. Shamol, chang va quyosh nurlari ta'siridan haddan ziyod qizib ketishidan ximoya qilish maqsadida uning atrofida ko'kalamzorlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

It guruhlarining joylashtirilishi.

Bir guruh itlarni saqlash uchun mo'ljallangan joy yuqorida aytib o'tilgan talablarga javob berishi kerak hamda uni balandligi 2 m dan kam bo'lmagan devor bilan o'rash lozim. Agar itlar soni ko'p bo'lmasa

va yer maydoni kichik bo'lsa, devorda eshik qoldiriladi, aks holda darvoza quriladi. Ularga ishonchli qulf qo'yilib doim yopiq turishlari kerak.

Itlarni saqlash uchun mahsus joylar – kabinalarga bo'lingan pavilonlar quriladi. Kabina har bir itga alohida mo'ljallangan bo'lib unga usti ochiq yayrash maydoncha (voler) birikib turadi. Kabinaning uzunligi 2 m, eni 1,5 m, old devorining balandligi 2-2,5 m, orka devorniki 1,5-2 m; kabina eshigining balandligi 1,7 m, eni 0,7 m bo'lishi lozim. Eshik tashkariga ochiladi. Kabinaga yorug'lik tushish uchun, uning ustida oynavand rom qo'yiladi. Eshikning pastki qismida, volerga chiqish uchun, 40x50 sm li tuynuk bo'lishi kerak. Yozda tuynuk ochiq turadi, qishda esa brezent bilan yopiladi.

Volerning uzunligi 3 m, eni 2 m, balandligi 2,2 m bo'ladi. Volerlar orasi, balandligi 2,2 m keladigan devor bilan yopiladi. Volerning old qismida eshik yasaladi, uning balandligi 1,8 m eni 0,7 m bo'lishi kerak. Eshik ichkariga ochiladi. Har bir kabina ichida budka quriladi. Budka tuynugining o'lchamlari 40x50 sm ga teng bo'lish kerak. Uning tomi yassi, silliq bo'lishi kerak, chunki itlar yoz faslida uning ustiga chiqib yotishni yoqtiradilar. Sovuq tushganda budkaning ichiga somon, hashak yoki yog'och qirindisidan to'shama to'shaladi. Pavilonlar g'isht, tosh, taxtalardan quriladi. Volerlarning yon devorlari taxtadan, old devori va eshigi esa sim to'rdan yoki temir panjaradan yasaladi. Agar it qo'shni volerga sakrab o'tadigan bo'lsa unda devor ustidan sim to'r tortiladi. Kabina va voler pollari taxtadan yasalishi kerak. Issiq iqlimda pollar beton yoki pishitilgan loydan qurilishi mumkin. Bunday hollarda itni shamollashdan asrash maqsadida kabinalarga 1x1,6 m kattalikda yog'och shitlar yotqiziladi. Volerning old tomonidan, 4-5 m nariroqda, balandligi 35-40 sm keladigan ustunchalar yerga ko'mib qo'yiladi. Ularga itlar tozalanganda bog'lab qo'yiladi. Ustunchaning ustiga diametri 20-25 sm keladigan yog'och maydoncha qokib o'rnatiladi. Unga it tozalash paytida o'zining old oyoqlarini qo'yib turadi. Ustunchalarning orasi 3 m dan kam bo'lmasligi kerak. Itlarning soni ko'p bo'lsa 250-300 m nariroqda izolyator quriladi. Itlarni ko'paytirish va it bolalarni o'stirish uchun mo'ljallangan pitomniklarda undan tashqari tug'ish, it bolallarni saqlash, itlarni yuvish va ovqat pishirish xonalari bo'ladi. Katta pitomniklarda veterinar ambulatoriya va statsionar quriladi.

Tug'ish xonasi tug'ishiga 7-10 kun qolgan bo'g'oz va tuqqan qanjiqlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Uning ichida kabinalar

quriladi (2,5x3 m). Kabinalarda budkalar bo'lishi lozim. Yozda budkalar volerga chiqarilishi mumkin.

It bolalarini saqlash uchun xonalar. Onasidan ajratilgandan keyin va 6 oyligigacha it bolalari guruh-guruh qilib saqlanadi. Ular uchun sim to'r bilan o'ralgan, katta - 6x6 m keladigan voler quriladi. Uning ichida budkalar va o'yin uchun moslamalar qo'yiladi. 6 oylik yosh itlarni katta hayvonlar singari joylashtiradilar.

Itlarni yakka tartibda saqlash.

Itni yakka tartibda saqlash uchun standart o'lchamdagi yig'ma budkalar quriladi. Budkaning oldiga 1x1,7 o'lchamda shit yotqiziladi. Budka yonida esa ustun o'rnatiladi. Itni bog'lab qo'yish uchun unga xalqa biriktiriladi. Qishda budka turli issiq saqlaydigan ashyolar (eski ko'rpa, brezent va boshq.) bilan o'rab qo'yilishi kerak. Issiq iqlimda budka ayvon yoki daraxt ostiga qo'yilishi maqsadga muvofiq. Agar xovli devor bilan o'ralmagan bo'lsa, unda budka atrofida 3x4 m kattalikda va 2 m balandlikda yopiq devor quriladi. Devor eshigi doim qulflanib yopiq turishi lozim. Itni uyda ham saqlash mumkin, ammo bunda u kuniga 3 marotaba sayr qilinishi kerak. Uy sharoitida saqlanadigan it o'zining doimiy joyiga ega bo'lishi kerak. Joyiga uncha katta bo'lmagan gilamcha to'shaladi. It yotgan joyda helvizak bo'lmasligi lozim.

VI. Itlarni urchitish.

Itlarni urchitish usullari.

Xizmat itchiligidagi naslchilik ishning asosiy vazifasi - nasldor itlarning bosh sonini ko'paytirish, it tanasining tashqi shaklini va konstitutsiyasini, oliy nerv faoliyatining tipini, jismoniy chidamlilikni, sezgi a'zolarinig o'tkirligini va boshqalarni yaxshilashdir. Itlarning xizmat sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan naslchilik ish sistemasining negizida uchta omil yotadi: asoslangan tanlash, mo'ljallangan juftlash va itlarni urchitishning to'g'ri usuli. Xizmat itlardan eng ko'p sharqiy yevropa ovcharkasi qo'llanadi. Undan tashqari boshqa it zotlari ham ishlatiladi.

Barcha zotdor itlar ko'cha itlaridan keskin ifodalangan eksterer va xizmat sifatlari bilan ajralib turadilar. Zotning ijobiy xususiyatlari sistematik ravishda bajariladigan sun'iy tanlash va juftlash yo'llari bilan yaxshilanib turishi kerak. Aks holda zot asta-sekin o'zining ijobiy xususiyatlarini yo'qotadi.

Urchitish usuli deb eng qimmatli xizmat sifatlarga ega bo'lgan naslni olishga yo'naltirilgan bir yoki har xil zotlarga mansub itlarni rejali urchitilishga aytiladi.

Quyidagi urchitish usullari qo'llanadi: asl zotli (toza zotli) urchitish, chatishtirish, turlararo gibridizatsiya.

Itchilikda asosan **asl zotli** urchitish usuli, ya'ni bir zotga mansub itlarni juftlash va qo'shish qo'llanadi. Itlarni asl zotli usulda urchitish, zot ichidagi o'zgaruvchanlikni qo'llash yo'li bilan itlarning ishchanlik sifati va eksterer shakllarni quvvatlash hamda takomillashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Bunda iloji boricha ekstereri o'xshash va ishchanlik sifati bir xil bo'lgan avlodni olishga intilish lozim. Asl zotli urchitishda zotni hartomonlama yaxshi va chuqur bilish hamda kichik, birinchi ko'rinishda ahamiyatsiz cheklanishlarga ahamiyat berish kerak. Bunday cheklanishlar keyinchalik, zot bilan naslchilik ishda, juda qimmat bo'lishlari mumkin. Zot qancha uzoq vaqt davomida toza usulda urchitilsa, u shuncha mustahkam va sifatli bo'ladi.

Asl zotli urchitishda qarindoshligi bo'lmagan hayvonlarni urchitish, har xil qarindoshlik darajasida bo'lgan itlarni qarindoshlararo urchitish va liniyalararo urchitish usullari qo'llanadi. Amaliyotda ko'pincha **qarindoshligi bo'lmagan** hayvonlar urchitiladi. Bo'nda qo'shish uchun qondosh bo'lmagan ko'ppak va qanjiq tanlanadi. Bunday juftlashda eng mustahkam va hayotga moslashadigan nasl

olinadi. Olingan it bolalar, ishchanlik sifati va chidamliligi bo'yicha o'zlarining ota-onalaridan ustun bo'ladilar.

Qarindoshlararo urchitish sistemasida o'zaro qondosh bo'lgan itlar qo'shiladi (aka bilan singil, ota bilan qizi va hokazo). Bunday usulni juda extiyot va aniq maqsad bilan qo'llash lozim. Chunki olingan avlod, bir tomondan, ajdodlarning ijobiy hislatlarini o'ziga olishi bilan bir qatorda, ularning yomon sifatlariga ham ega bo'ladilar. Undan tashqari bunday hayvonlarning hayotiyiligi va ishchanligi past, skeleti kuchsiz, o'sishi va rivojlanishi sust, konstitutsiyasi kuchsiz, tishlari sifatsiz bo'ladi. Ular kasalliklarga ko'p chalinadi. Ayrim hollarda majruxlar tug'ilishi mumkin.

Liniyalararo urchitish eng qiyin usul bo'lib hisoblanadi. Liniya deb bir zotga mansub, umumiy ajdodga ega va unga eksterer, konstitutsiya hamda ishchanlik qobiliyati bo'yicha o'xshash bir guruh itlarga aytiladi. Qondosh va zavod liniyalari bo'lishi mumkin.

Qondosh liniya deb bitta nasldor itdan kelib chiqadigan avlodga aytiladi.

Zavod liniyaga faqat nasldor hayvonga eksterer, xizmat sifatlari va naslli xususiyatlari bilan aynan o'xshash yoki undan ustun bo'lgan itlar kiradi. Liniyalar, ularga asos solgan, ya'ni ularni boshlagan itlarning laqablari bilan nomlanadi.

Chatirishda har xil zotga mansub erkak va urg'ochi itlar qo'llanadi. Bu usul asosan yangi zotni yaratish uchun xizmat qiladi. Bunday itlar *metis* deb ataladi.

Urchitishning yana bir usuliga turlararo chatishtirish ya'ni turlararo gibridizatsiya kiradi. Bunda itlarni shaqal, bo'ri bilan chatishtiradilar.

Chatishtirish uchun itlarni tanlash va juftlash.

U yoki bu urchitish usulni tanlash, har doim ham kutilgan natijalarga olib kelmaydi, chunki hamma itlar ham naslchilik maqsadlarga to'g'ri kelmaydi. Bir zotdan faqat aniq talablarga javob beradigan, eng nasldor itlar tanlab olinishi lozim. Bu tadbir sun'iy tanlash deb ataladi. Bunda itning individual sifatlari nasl asosida va atrof muhitning aniq sharoiti hamda saqlash, oziqlantirish va dressirovka bilan bog'liq holda rivojlanishini hisobga olish zarur.

Ekstererni va itning xizmat sifatini baholashda, itning hamma xususiyatlari ham naslli bo'lmasligini inobatga olish lozim. Masalan, kichik bo'y nasldan bo'lishi mumkin, ammo ayrim paytlarda u yomon parvarishdan ham kelib chiqadi. Itning qo'rqqoligi qo'pol munosabatdan yoki nerv sistemasining tug'ma xususiyatlaridan kelib chiqishi mumkin.

Eksterer va konstitutsiya bo'yicha zot standartiga javob beruvchi, proporsional va mustahkam tuzilgan, chidamli, nuqsonlarsiz, quruq mustahkam va mustahkam konstitutsiyaga ega itlar tanlanadi. Shuning bilan birga urchitishga ajratilgan itlar a'lo xizmat sifatlariga: chidamlilikga, kuchli va muvozanatlashgan nerv jarayonlariga, aktiv-ximoya reaksiyaga, yaxshi rivojlangan sezgi a'zolarga ega bo'lishlari kerak.

Itni nasl shajarasi va avlodi bo'yicha baholash katta ahamiyatga ega. Shajara kartochkasi bo'yicha itning kelib chiqishi, zoti, naslli sifatlarining xususiyatlari va boshqalar aniqlanadi. Shajara qarindoshlik juftlashishlarga yo'l qo'ymaydi.

Juftlash bir xilli, har xilli va tenglashtiruvchi bo'lishi mumkin.

Bir xilli juftlashda itlarning o'ziga xos sifatleri mustahkamlanadi. Buning uchun tip xususiyatlari o'xshash erkak va urg'ochi itlar tanlanadi. Har xilli juftlashda itning u yoki bu xususiyatlarini o'zgartirish maqsad qilib qo'yiladi. Buning uchun turli tipga ega itlar tanlanadi. Tenglashtiruvchi juftlashda itlarda bo'lgan cheklanishlarni me'yorga keltirish ko'zda tutiladi. Masalan qanjiq itning oyoqlari biroz tor qo'yilgan bo'lsa unga oyoqlari normal qo'yiladigan erkak it tanlanadi.

VII. Xizmat itlarining ratsioni va ularni oziqlantirish tartibi.

Xizmat itlarining normal hayot kechirishi va belgilangan vazifalarni bajarishi uchun qo'shimcha oziq moddalar talab etilib, buni ozuqa ratsionlarini tuzishda inobatga olish zarur bo'ladi. It muskullarining ishlashi jarayonida organizmda energiya, oqsil, yog', uglevod, mineral moddalar va vitaminlarning sarflanishi oshadi. Mehnat jarayoni qanchalik og'ir bo'lsa, oziq moddalarga bo'lgan talab ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Hamma xizmat itlari bir xil vazifani bajarishi vaqtida bir xil miqdordagi energiyani sarf qilmaydi. Bajariladigan ishga sarflanadigan energiya miqdori itni o'rgatish, shuningdek charchash darajasiga va bundan tashqari hayvonning individual xususiyatlari – zoti va tana tuzilishiga ham bog'liq bo'ladi. Tinch holatda turganidan itga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan xizmat itlari ish uchun 30 % dan ko'proq energiya sarf qiladi. Xizmat itlarining 1kg tana vazniga sarflaydigan energiya miqdori № 1 jadvalda keltirilgan:

Jadval №1

**Tinch xolatda bo'lgan itning 1 kg tana massasiga nisbatan
talab etiladigan energiya miqdori.**

Tana massasi, kg	kDj.	Tana massasi, kg	kDj.
3-4	575	15-20	375
4-5	530	20-25	340
5-6	495	25-30	320
6-7	475	30-40	305
7-8	460	40-50	285
8-9	440	50-60	265
9-10	425	60-70	250
10-15	410	70 va undan ortiq	235

Ilova: 1kk = 4,29 kDj. Tinch xolatda bo'lgan itning 1 kg massasiga o'rtacha 87 kilokaloriya ya'ni 365 kDj to'g'ri kelish kerak.

Qish mavsumida xizmat itlari isitilmaydigan xonalarda saqlanganda energiya ehtiyoji 20 % ga oshadi. Xizmat itlarining oqsilga bo'lgan talabi harakat qilmaydigan itlarga nisbatan o'rtacha 30-50 % ga, yog'ga 15 % ga va yengil hazm bo'ladigan uglevodlarga esa 30 % ga oshadi. O'rtacha ish bajaradigan xizmat itlarining ratsionida oqsil miqdori, harakat qilmaydigan itlarga nisbatan, 40 % ga yuqori bo'lishi kerak, shunda itlar oqsilga bo'lgan talabini 50 % go'sht, baliq va sut mahsulotlari hisobidan qoplashlari lozim.

Xizmat itlarining ratsionida uglevodlarning yetishmasligi ularning ozib ketishiga olib keladi. Itlar ratsionida yog' qanchalik kam bo'lsa, unda uglevodlar shunchalik ko'p bo'lishi kerak. Xizmat itlarining ratsionini tuzish vaqtida to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyoj normasini e'tiborga olib, ratsionning taxminiy tarkibi tuziladi.

Quyidagi keltirilgan raqamlarda katta yoshdagi xizmat itlarining bir sutkadagi energiyaga bo'lgan talabiga nisbatan tuziladigan taxminiy ratsion foiz miqdorida ko'rsatilgan:

II-kategoriyali (toifa) go'sht - 25 % (20-30)

Yorma (krupa) - 53 % (45-60)

Non - 15 % (10-15)

Kartoshka - 5 % (3-7)

Sabzavot - 2 % (1-3)

Masalan, tirik vazni 30-40 kg keladigan qo'riqchi itning bir sutkalik ratsioniga №2 jadvalda keltirilgan quyidagi ozuqa mahsulotlarni kiritish mumkin:

Xizmat itlarining ratsioni.

№	Ozuqa nomi	Miqdori (1.gr)
1.	Go'sht mahsulotlari	400
2.	Yorma	600
3.	Kartoshka, sabzavotlar	300
4.	Hayvon yog'i yoki margarin	13
5.	Tuz	15
6.	Suyak uni	15

Agarda ratsiondagi belgilangan go'sht o'miga quruq ozuqa mahsulotlari berilsa, to'yimlilikiga qarab ayrim paytlarda ratsion miqdori go'shtlikka nisbatan ikki barobar ko'paytiriladi.

Shuningdek, bunday itlarga go'sht o'miga baliq ham bersa bo'ladi.

Itlarga arzon narxdagi yormalardan berish lozim, masalan tariq, arpa, suli yormalari va boshq. Kasallangan xizmat itlariga esa guruch, bug'doy yoki grechixa yormasi berilishi yuqori samaraga olib keladi. Go'sht bilan yormaning o'miga sut yoki sut mahsulotlarini almashtirib berish ham mumkin. Bundan tashqari xizmat itlariga bug'doy unidan tayyorlangan qora non ham beriladi. Agarda ratsion tarkibiga qotgan nonning kiritilishi, yanada yaxshi bo'ladi. Itlar ovqatiga hayvonlarning eritilgan yog'ini qo'shgan ma'qul.

Ratsionga sabzavotlardan karam, sabzi, qizil lavlagi qo'shiladi. Itlar po'stlog'i va tuxumidan tozalanib, pishirilgan qovoqni juda sevimli iste'mol qiladilar. Yoz mavsumida itlarga pomidor va baqlajon berish tavsiya qilinadi. Hayvonlarga karamni yangi uzilgan yoki tuzlangan holatda berish ham mumkin. Erta bahor va yoz paytida itlarga yangi chiqqan qichitqi o'ti, qoqi va shovulni maydalab berish foydalidir.

Bir xil ovqat xizmat itlarining badiga tez tegadi va buning oqibatida ratsion tarkibidagi to'yimli moddalarning hazm bo'lishi pasayadi. Shu sababdan ham ratsion tarkibidagi ozuqa moddalarni almashlab turish lozim. Bu asosan go'sht mahsulotlari, yorma va sabzavotlarni almashlab turish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Safar sharoitida ovqat pishirishning ilojisi bo'lmaganda xizmat itlarini galetalar, konservalar va konsentratlar (quruq ozuqa) bilan boqadilar. Safar bir necha kunga davom etgan taqdirda itlarga non yoki sut bilan non yoxud non bilan suv hamda qoq nonni suvda ivitib berish mumkin. Agarda xizmat itlari shaxsiy tarkibda saqlansa, unda ratsionning asosiy qismini egasidan qolgan qoldiq ovqatlar tashkil qilishi mumkin.

It bolalarining rivojlanishi ularning tug'ilishidan to sutdan ajratilganicha, asosan dastlabki ikki xafta ichida, emizdiradigan qanjiqni to'g'ri oziqlantirish bilan bog'liq bo'ladi. It bolalarini qo'shimcha oziqlantirishni sutdan boshlash lozim. Bunda albatta yangi, suyultirilmagan va sa'l isitilgan (27-30°) sut beriladi. Echki yoki qo'yning suti eng yaxshi hisoblanadi, chunki bu hayvonlar sutining tarkibi it sutining tarkibiga yaqin bo'ladi. Sigir sutining tarkibini it sutining tarkibiga yaqinlashtirish uchun uning 0,5-1 litriga 1 ta xom tovuq tuxumi qo'shiladi. It bolalari 2 haftalik bo'lgandan so'ng ularga xom go'sht berib turish kerak.

It bolasi va yosh itlarga berladigan ozuqa mahsulotlarining kunlik tahminiy normalari №3 jadvalda keltirilgan:

Jadval №3.

It bolalarni oziqlantirish normalari.

№	Ozuqa nomi	1 oylikgacha	1-3 oylik	3-6 oylik	6-12 oylikdan katta
1	Go'sht mahsulotlari	50	150	350	350
2	Yorma	50	100	250	250
3	Kartoshka	50	150	400	400
4	Hayvon yog'i yoki margarin	3	4	10	10
5	Tuz	5	5	10	10
6	Suyak uni	4	11	14	14
7	Non	70	150	300	300
8	Sut	150	400	100	100
9	Kaliy glitserofosfati	40 dona	40 dona	40 dona	40 dona
10	Kalsiy laktati	40 dona	40 dona	40 dona	40 dona
11	Bur	20	20	20	20
12	Fitin	10 dona	10 dona	10 dona	10 dona
13	Aktivlashtirilgan ko'mir	10 dona	10 dona	10 dona	10 dona
14	Pishloq	20	50	150	150
15	Droji	1	2	6	6
16	Tuxum sarig'i	1	1	1	-

VIII. Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari.

Kuzatishlar natijasida shu narsa aniqlanganki - itlar bir qator va shuningdek haddan tashqari qimmatli tug'ma sifatlariga ega bo'ladi. Ular uzoq va tez chopa olishi mumkin bo'lib, bu xususiyat itdan turli xil xizmatlarda foydalanishda juda muhim hisoblanadi, shuningdek itlar o'z joyini tez yodda saqlaydi va yangi sharoitlarga juda yengil moslashadi.

Yovvoyi ajdodlarining qiliqlarini o'zida juda mujassam saqlagan holda itlar yugurayotganda mazkur joyga hamisha uyg'unlashib, o'zining harakat holatini dushmaniga sezdirmaslikka harakat qiladi. Itlar yaxshi rivojlangan hid bilish organiga ega bo'lib, ularda turli xil, hatto juda kuchsiz hidlarni ham ajrata olish imkoniyati mavjud. Eshitishning o'tkirligi sababli itlar inson eshitishga qobiliyatsiz bo'lgan tovush va shitirlashlarni ham yengil seza olish xususiyatiga ega.

Agarda, itlarning behad chidamliligi va shuningdek iqlim sharoiti, asrash va oziqlantirish tartibiga o'ta moslashuvchanligini ham inobatga oladigan bo'lsak, bu jonivorlarning xalq xo'jaligi, Davlat chegaralarini muhofazalash va boshqa turlardagi xizmatlarda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi o'z-o'zidan oydinlashadi.

Itlarning u yoki bu sifatlarini yanada yaxshilash va rivojlantirish hamda ulardan turli xil xizmatlarda maksimal va samarali foydalanish uchun ularni malakali o'rgatishni yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega.

Itlarni o'rgatish deganda, hayvondan u yoki bu xizmat turlarida foydalanishni ta'minlaydigan turli xildagi va murakkab usullarni buyruq yoki imo-ishora orqali bajarishni o'rgatish jarayoni tushuniladi. O'rgatish bosqichi nazariya va o'rgatish texnikasiga bo'linadi.

O'rgatish nazariyasi oliy nerv sistemasi qonuniyatlari asosida itlarni o'rgatish qoidalarini tadqiq etadi va ularni ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'rgatish texnikasi esa usullarning to'g'ri tashkil etilishi bo'yicha uslubiy va texnik tavsifdagi masalalarni ko'rib chiqadi. U asosan uchta muhim qismlarga ajratiladi:

1. Umumiy o'rgatish (umumintizomiy davr);
2. Maxsus o'rgatish;
3. Xizmat itlarini o'rgatish.

U yoki bu vazifalar yuklatilayotgan maxsus xizmat itlari belgilangan topshiriqlarga to'liq mos kelishlari uchun, birinchi navbatda hayvonlarni itoatkor bo'lishga va intizomga odatlantirish lozim bo'ladi. Bunga umumiy o'rgatish, ya'ni it tomonidan umumiy intizomiy usullarni o'zlashtirilishi orqali erishiladi.

Maxsus o'rgatish itlarning u yoki bu xizmat turlari, masalan qorovullik, qo'riqchilik, qidiruv xizmatlarida qo'yiladigan talablarni bajarish bo'yicha amalga oshiriladigan usullarni hayvonlarga o'rgatish maqsadini ko'zda tutadi. Ammo itga faqatgina umumiy quloq tutish va maxsus usullarni o'rgatish yetarli bo'lmaydi balki bu ko'nikmalar itda saqlanib qolinishi ham lozim. Bunga esa doimiy ravishda mashq qildirish orqaligina erishiladi.

Itlarni o'rgatishga kirishishdan oldin it o'rgatuvchisi hayvon qanday maqsadda o'rgatilishi, qaysi vazifaga tayinlanayotganligi hamda qaysi xizmat turiga tayyorlanayotganligini bilishi kerak. U umumiy o'rgatishdan tashqari u yoki bu turdagi maxsus xizmatning asosiy qoidalari va o'rgatish uslublarini bilishi shart. Bundan tashqari, o'rgatuvchi doimiy ravishda itning hatti-harakatlari va odatlarini sinchkovlik bilan kuzatib borishi lozim. Chunki it tomonidan sodir etilayotgan noo'rin hatti-harakatlar hayvonni o'rgatishda xalaqit berishi mumkin. Bu kabi hatti-harakatlarni o'z vaqtida tuzatish uchun shoshilinch ravishda chora ko'rish talab etiladi.

Shuning bilan birgalikda it o'rgatuvchisi o'z harakatlarini ham qat'iy ravishda kuzatib borishi lozim. Ko'pincha tajribasizlik oqibatida itning keyingi faoliyati uchun keraksiz va zararli bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatuvchi o'zi sezmaganda holda hayvonga singdirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda itlarni o'rgatish davomida hayvonlarning u yoki bu sifatlarini hisobga olib, belgilangan maqsadlarda ulardan maksimal foydalanish, rivojlantirish, mustahkamlab borish zarur.

1. Itlarni o'rgatishning oliy nerv faoliyati bilan bog'liqligi.

Hayvonlarning individual xususiyatlariga ko'ra, itlarning o'zini tutishi hamda ulardagi oliy nerv faoliyatining turlari juda ham xilma-xildir.

Ayrim itlarda shartli reflekslar darhol hosil bo'ladi, boshqalarida esa ularni vujudga keltirish uchun juda katta mehnat talab etiladi. Bu o'z navbatida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining namoyon bo'lish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Oliy nerv faoliyatining tip xususiyatlarini hisobga olmasdan turib, itlarni o'rgatish katta qiyinchiliklarga olib kelishi, ba'zi hollarda esa hayvonlarni xizmatga tayyorlash jarayonini butunlay to'xtatib qo'yishi mumkin.



26 – rasm. “O’tir” buyrug‘iga shartli refleksning xosil bo‘lish sxemasi.

I.P. Pavlov oliy nerv faoliyati turlari bo‘yicha itlarni guruhlarga ajratish tamoyillariga nerv sistemasining quyidagi uchta asosiy xususiyatlarini kiritgan:

1. Nerv jarayonlarining kuchlari – qo‘zg‘alish hamda tormozlanish, xususan, differensiyalanishning paydo bo‘lish tezligi va uning doimiyligi;

2. Qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘zaro tenglashish darajasi;

3. Nerv jarayonlarining harakatchanligi, ya’ni bir nerv jarayonining ikkinchisi bilan almashinish tezligidagi jadallik;

Oliy nerv faoliyati 4 ta asosiy turlarga bo‘linadi:

- a) Kuchli, qo‘zg‘aluvchan, nomutanosib-qiziqqon;
- b) Kuchli, mutanosib, harakatchan – tez ta’sirlanuvchan;
- v) Kuchli, mutanosib, bosiq-sovuqqon;
- g) Zaif nerv tizimli – dilgir.

Qiziqqon tipli itlar ancha serg‘ayrat va serharakat hisoblanib, o‘rgatishga jadal kirishuvchan, shartli reflekslarni tez hosil qilishda farqlanuvchan bo‘ladi hamda bu kabi reflekslar ularda mustahkam saqlanib qolib, hayvonning toliqishi asta-sekinlik bilan ro‘y beradi.

Tormozlanish jarayoni bosh miyada qiyinchilik bilan yuzaga keladi va uning barqaror saqlanib qolishi qiyin kechadi, shu sababdan ham u taqiqllovchi buyruq – “fu!” ni bajarishga hamda bir joyda tik

turishga salbiy tarzda aks etadi, masalan “yot!”, “o‘tir!” va shu kabi boshqa buyruqlarni berganda ham itlar turgan joyidan qo‘zg‘alib, yurib ketishi mumkin.

Kuchli qo‘zg‘aluvchan itlarda qo‘zg‘atuvchi omillarning tabaqalanishi ancha sust, noaniq va beqaror bo‘lib, asosan hayvonni yengil qidiruv ishlari va umuman qidiruv xizmatlariga tayyorlashda o‘zining salbiy ta‘sirini namoyon qilmasdan qolmaydi. Uning asosiy sababi kuchli qo‘zg‘aluvchanlik va tormozlanish jarayonining sustligi hamda tormozlanish ko‘nikmasining barqaror bo‘lmasligi hisoblanadi.

Qiziqqon tipli itlarning beqiyos qimmatli sifati jonivorlarning ish jarayonidagi faolligi va tez toliqmasligi bilan baholanadi.

Tez ta‘sirланuvchan tipli itlar qiziqqon tipli itlarning ko‘plab umumiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular ham o‘ta serharakat va serg‘ayrat hisoblanishadi, bu kabi itlar tabaqalanishning aniqligi va pishiqligi, ijobiy shartli reflekslarning jadallik bilan hosil bo‘lishi hamda ularning mustahkamligi va doimiyligi bilan ajralib turadi. Bunday itlar juda kam hollarda toliqadi. Xizmat jarayonida ular ishlashdan bosh tortishmaydi. Bularning hammasi itlarning bosh miya po‘stlog‘ida ro‘y berayotgan qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining nisbiy ravishda o‘zaro tenglashishining natijasidir.

Sovuqqon tipli itlar bosiqqligi, kamharakatligi va hatto sustkashligi bilan ajralib turadi.

Itlarning miyasidagi qo‘zg‘olish va tormozlanish jarayonlari o‘zaro nisbiy tenglik holatida bo‘lib, shartli reflekslar va tormozlanish ko‘nikmalarini hosil qilish imkoniyatlarini yaratadi, mustahkam saqlanib qolinadi hamda doimiyliligi bilan ajraladi. Odatlantirilgan tabaqalanishlar shartli reflekslarni hosil qilishi kabi bu jarayon ham bir muncha sekinlik bilan, biroq benuqson ravishda ro‘y beradi. Mutanosiblashgan, bosiq turdagi itlar it o‘rgatuvchidan qunt-matonat bilan, astoydil mehnat qilishni talab etadi va mashq qildirish jarayonlarida itoatkorlik hamda chidamliligi bilan boshqa tiplardan farq qiladi.

Dilgir tipli itlar esa juda ko‘p hollarda ham salbiy, ham tormozlovchi shartli reflekslarni hosil qildirishga birmuncha o‘jarlik qilishadi. Agarda ular hosil qilingudek bo‘lsa, juda sekin ro‘y beradi va barqarorligi bilan ajralib turmaydi, ya‘ni tashqi ta‘sir natijasida juda tez to‘xtab (tormozlanib) qoladi. Bu tipdagi itlar qo‘rqoqligi, tez toliquvchanligi va oliy nerv faoliyatining sustligi bilan farq qiladi.

Bunday itlar o'rgatish va xizmat ko'rsatishga hamma vaqtda ham yaroqli bo'lavermaydi.

Itlarning tur xususiyatlarini it o'rgatuvchilar doimiy ravishda hisobga olib borishi lozim bo'lib, u hayvonda shartli reflekslarni hosil qilishni yengillashtirishda ancha-muncha asqotadi. Ayniqsa tez qo'zg'aluvchan va qiziqqon itlarni o'rgatish paytida o'rgatuvchining o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashishini talab etadi, chunki bu kabi itlarda qo'zg'alish jarayoni tormozlanish jarayonidan bir qadar ustun turadi.

Kuchli nerv qo'zg'aluvchanligiga ega bo'lgan itlarni qiyin masalalarni hal etishda, masalan yaqin qidiruv ishlariga o'rgatishda nixtab turish, ya'ni bir usulni 3-5 va undan ham ortiq marotaba bajarishga majbur qilish yaramaydi. Qo'zg'aluvchan tipdagi itlar tormozlanish jarayonini haddan tashqari zo'riqtirib iz, buyum va boshqa narsalarning hidlarini farqlash va toqat qilib bir joyda jim turish xususiyatlarini yo'qotadi. Faqatgina bosqima-bosqich olib boriladigan mashq jarayonlarigina itlarni chiniqtiradi hamda ularda sabr qilib turish va mehnatga layoqatlilik xususiyatini tarbiyalaydi, ya'ni tormozlanish jarayonidan ustun bo'lgan qo'zg'alish jarayonini muvozanatlashtiradi.

Tez ta'sirlanuvchan tipdagi itlarni o'rgatish jarayonida alohida yondashishni talab etmaydi, faqatgina oddiy usullardan murakkablariga o'tish ketma-ketligiga rioya qilinsa bas, ya'ni itlarning nerv sistemasini zo'riqtirmaslik va shuning bilan birga ish jarayonida ro'y beradigan uzilishlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Sovuqqon itlarni o'rgatish jarayonida to'xtaladigan bo'lsak, bunda it o'rgatuvchisi mazkur itlarning individual xususiyatlarini ya'ni nerv jarayonlarining harakatsizligini inobatga olib buyruqlarni tez-tez almashtirmasligi lozim.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda it o'rgatuvchilari itlarni o'rgatish uslubini hayvonlarning individual xususiyatlariga bog'lagan holda, o'rgatish jarayonida vazminlik va sabr-bardoshni saqlashlari lozim, ulardan asabiylashmaslik, itlarga baqirib-chaqirish, do'q-po'pisa qilishga va umuman itlarga dag'al munosabatlarda bo'lishga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. It o'rgatuvchisi hayvonni o'rgatish jarayonida chaqqon, serg'ayrat va kuzatuvchan bo'lishi hamda o'rgatilayotgan itlarning kayfiyatini izchil nazorat qilib borishi lozim. Bularning barchasi it o'rgatuvchilarga o'z oldiga qo'yan vazifalarni tez va sifatli bajarishida qo'l keladi.

2. Nerv sistemasi va uning o'rgatishdagi ahamiyati

Itlarda og'ziga go'sht solish bilan og'iz bo'shlig'ida refleksli so'lak va boshqa hazm qiluvchi suyuqliklar ajrala boshlaydi. Birdaniga yoqilgan yorug' chiroq ko'zni yumishga majburlaydi. Bu reflekslar hayvonlarda tug'ma bo'ladi yoki bu reflekslar shartsiz reflekslar deyiladi, chunki bu refleks sodir bo'lishi uchun hech qanday qo'shimcha shartlar keragi yo'q.

Shartsiz reflekslar tashqi muhit va organizmning ichidagi qo'zg'atuvchilar (ochlik, chanqoq, jinsiy aloqa va h.k.) ta'siri natijasida sodir bo'ladi.

Paydo bo'lishiga qarab ular oddiy va murakkab shartsiz reflekslarga bo'linadi. Oddiy to'g'ri reaksiyalarga ko'z qorachig'ining qisqarishi, aks etish va hokazolar kiradi. Murakkab tug'ma shartsiz reflekslar ichiga ko'pgina mayda oddiy tug'ma shartsiz reflekslar kiradi. Masalan, butun organizmning harakatlanishi (itning yugurishi). Shuning uchun shartsiz reflekslarning oddiy va murakkablarga bo'linishi nisbiy hisoblanadi.

Hayvonlarning xulqi va hayoti ko'pgina oziq-ovqat, himoyalaniş va boshqa shartsiz reflekslar bilan belgilanadi.

Tug'ma reflekslar bilan belgilangan hayvonlarning xulqi instinktiv deyiladi.

Instinkt (tug'ma his) – bu murakkab shartsiz refleks bo'lib, hamma instinktlar ovqat, havo olish, himoyalaniş, naslini tarbiyalashga qaratilgan. Bularning hammasi doimiylik maqsadga muvofiqlik bilan ta'riflanadi. Lekin o'rgatishda o'ziga xos individual tomonlari ham bor. Bitta ota-onadan tug'ilgan, bitta egadan tarbiya olgan xizmat (yoki ovchi) itlar biri oson, biri qiyin o'rgatiladi.

Shartsiz reflekslar, shu jumladan instinktlar organizmning o'zgarmas shartlarga moslashishini ta'minlaydi. Lekin faqat shartsiz reflekslar hayvonlarni murakkab va o'zgaruvchan sharoitlarda yashashini ta'minlay olmaydi. Bunday sharoitlarda muhit munosabati shartli reflekslar bilan amalga oshiriladi.

Instinktlar ikkita guruhga bo'linadi: hayvonning umrini asrab qoladigan instinktlar (oziqlanish, himoyalaniş, aniqlash) va o'zini nasl turini asrash (jinsi va ota-onalik).

Instinktlar nasldan-naslga o'tadi, lekin ularning yuzaga chiqarilishining shakli, darajasi va muhitning tashqi ta'siri hamda organizmning fiziologik holatiga bog'liq. Demak, odatlanish instinktlariga sezilarli o'zgarishlar kiritadi.

Shartli reflekslarni ishlab chiqarish usulidan foydalanib instinktlarni "to'g'rilash" mumkin. Eski instinktlar yo'qolishi va yangi instinktlar rivojlanishi hayotning yangi shartlari bilan yaqin bog'langan yoki inson tomonidan itga qo'yilgan yangi talablar bilan bog'langan.

Shartli refleks – hayvon organizmining shartli qo'zg'atuvchining ta'siriga javob reaksiyasi.

Qachon it o'zini egasiga o'rgansa shunda egasini boshqa odamlardan ajratib oladi. Shunga o'xshab it birorta buyruqni bajarishi uchun oldindan o'rganishi kerak.

Shartli refleks jiddiy shaxsiy va doimiy emas, ular sharoit o'zgarganda yo'qolib ketadi. Agarda it bilan doim amaliy mashg'ulotlar o'tilmasa, ishlab chiqarilgan shartli reflekslar yo'qolib ketadi.

Shartli reflekslar shartsiz reflekslar bazasida hosil bo'ladi va itning xulqiga katta ta'sir etadi. Shunday qilib, shartsiz va shartli reflekslarning yig'indisi itlarning hamma murakkab xulqiga sabab bo'ladi.

Shartli reflekslar itlarni tashqi muhit bilan muloqotda bo'lganda tug'iladi. Shartli reflekslar faqat belgilangan sharoitlarda shaxsiy reflekslar bazasida hosil bo'ladi va o'sha belgilangan sharoitlar o'zgarsa shartli reflekslar yo'qolib ketadi, bu yo'qolish organizmni hayot sharoitiga yaxshiroq moslashishga imkon beradi.

Belgili ta'sirlar bilan inson itda xoxlagan shartli refleks ishlab chiqarishi mumkin va shu reflekslar bilan odam itning xulqini boshqaradi va xizmat maqsadlarida ishlatadi.

Bu shunday amalga oshiriladi: buyruqni va qo'zg'atuvchini birga olib borish kerak, shunda itda shartsiz refleks paydo bo'ladi. Masalan, o'rgatuvchi itni ushlab "o'tir" deb, bir vaqtda itning o'zida tasmasidan ushlab, orqaga tortib, chap qo'li bilan itni beliga o'tadigan joyga bosib turishi kerak. Bu itni o'tirishga majburlaydi.

It tasmasini qo'pol tortish – bu shartsiz qo'zg'atuvchi. Shu harakat davomida itda shartsiz refleks paydo bo'ladi va it o'tiradi. Bir necha kun davomida shu tartibda ish yuritilsa, it "o'tir" degan buyruqqa bo'ysunadi.

Bu ko'nikmaga shartli refleksni tezroq ishlab chiqarish uchun it bo'ysunib o'tirgandan so'ng unga rag'batlantirish tariqasida ozuqa berish kerak (bir bo'lak go'sht, non va hokazo). Shu usulda har xil buyruqlarga shartli refleks ishlab chiqariladi.

Shartli reflekslar, nafaqat alohida qo'zg'atuvchilar bilan ishlab chiqariladi, balki qo'zg'atuvchilar to'plami bilan shartli refleksni ishlab chiqarish mumkin.

O'rgatuvchi - bu qo'zg'atuvchilar yig'indisi. Mashg'ulotlar davomida turli xil qo'zg'atuvchilar bilan ta'sir qilinadi: faqat o'ziga xos individual hid, ovoz (buyruq, o'q ovozi va h.k.), ishora harakati (tasmani tortish, beliga bosish va h.k.), ozuqa (non, go'sht) va h.k.

3. Shartli reflekslarni hosil bo'lish shartlari

Shartli refleksning hosil bo'lishi uchun ikkita qo'zg'atuvchi tanlab olinadi. Biri shartli sifatida, ikkinchisi shartsiz sifatida. Bu ikkala qo'zg'atuvchi bir vaqtda itga ta'sir qilinishi kerak, shunda shartli refleks ishlab chiqariladi, masalan, "Yonimga" buyrug'i berilib, 1-2 sekunddan keyin shartsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir etish kerak, ya'ni itning bo'ynidagi tasmani o'rta me'yorda tortish kerak.

Boshida "yonimga" tovush buyrug'iga it quloq solib, mo'ljallash refleksi paydo bo'ladi. Bir necha marta "yonimga" degan so'z bilan itning bo'ynidagi ip tortilsa mo'ljallash refleksi yo'qoladi va shu buyruqdan keyin itda o'rgatuvchi yonida harakatlanish refleksi tug'iladi.

Refleks - bu organizmning shartli va shartsiz qo'zg'atuvchilarning ta'siriga javob reaksiyasidir.

Shartli qo'zg'atuvchilar yetarli darajada kuchli bo'lishi kerak. Kuchsiz shartli qo'zg'atuvchilarga reflekslar sekin ishlab chiqariladi va reaksiya bo'sh, kuchsiz bo'ladi. Shuning uchun it o'rgatilayotganda (dressirovka) buyruqlar yetarlicha kuchsiz va aniq bo'lishi kerak. Shunda shartli reflekslar paydo bo'ladi va it ularni g'ayrat bilan bajaradi.

Shartli qo'zg'atuvchilar haddan tashqari ko'p bo'lmashligi kerak, bu asabi yomon itlarda shartli reflekslarni ishlab chiqarilishini kechiktirishi mumkin, alohida hollarda umuman refleks tug'ilmasligi mumkin.

Shartsiz refleks asosida ishlab chiqarilgan shartli reflekslarni paydo bo'lish shartlaridan biri bu asab markazini qo'zg'atish darajasi hisoblanadi. Masalan, chala och holatdagi itda oziq-ovqat asab markazi qo'zg'atilgan, shuning uchun shartli reflekslarni ovqat berish (bir bo'lak go'sht) bilan mahkamlansa, refleks tez ishlab chiqariladi.

Shartli reflekslarni hosil bo'lishiga atrof-muhit sharoiti katta ta'sir qiladi. Juda katta miqdorda tashqi qo'zg'atuvchilar, masalan ko'p odamlarning harakatlanishi, hayvonlar, transport, har xil tovushlar, signallar va boshqalar kerakli shartli reflekslarni ishlab chiqarishni qiyindashadi. Chunki tashqi qo'zg'atuvchilar itni chalg'itadi, itning miyasi boshqa narsalar bilan band bo'ladi.

Itni o'rgatishni kuchli tashqi qo'zg'atuvchilar yo'q joyda boshlash kerak. Hatto o'rgatuvchilar ham bir-biridan ancha uzoqda bo'lishi kerak. Keyinchalik shartli reflekslar ishlab chiqarilgandan keyin atrof-muhit

sharoitini sekin-asta murakkablashtirish kerak va shu darajagacha sharoitni og'irlashtirish kerakki, it bemaol har qaysi og'ir vaziyatda buyruqni bajara oladigan bo'lishi kerak.

Itni o'rgatishda organizmning ichki muhitini hisobga olish kerak. O'rgatishdan oldin itni biroz aylantirish kerak, quvug'ini va katta ichagini bo'shatib olish kerak. Mabodo it kasal bo'lsa mashg'ulotni to'xtatish lozim.

Itni o'rgatishdan oldin ob-havoga e'tibor berish kerak. Chunki havoning harorati baland yoki pastligi, qattiq shamol, yomg'ir, qor va boshqalar it o'rgatishda salbiy ta'sir qiladi.

4. Tabiiy va sun'iy shartli reflekslar

Yaxshi mahkamlangan shartli reflekslarni odat yoki tajriba deb aytsa ham bo'ladi. Hamma hayvonlar atrof-muhitga qarab o'zlarining odatlarini yoki tajribasini ishlatishadi. Hayot sharoitlari o'zgarishi bilan odatlari ham o'zgaradi, bu tashqi muhitga yaxshiroq moslashishga imkon yaratadi.

Ovqatga, ovqat hidiga bo'lgan refleks bu tabiiy refleks hisoblanadi. Bu bilan shartli qo'zg'atuvchilar tabiiy shaklda shartsiz qo'zg'atuvchilar bilan bog'langan deb aytish mumkin. Bunday reflekslar juda tez rivojlanadi va uzoq saqlanadi.

Tovushli (buyruq, qo'ng'iroq), ko'rish qobiliyatiga tegishli (ishora, lampochka nuri), hidli va boshqalar orqali ishlab chiqarilgan shartli reflekslar sun'iy hisoblanadi.

Bunda shartli qo'zg'atuvchi shartsiz qo'zg'atuvchiga to'g'ri munosabatda emas, faqat ular bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Oddiy o'rgatish orqali it hayotida bunday sun'iy shartli reflekslar ko'payib ketadi. Lekin bu sun'iy reflekslar ancha qiyinchiliklar bilan paydo bo'ladi va tabiiy reflekslarga o'xshab u darajada mustahkam bo'lmaydi.

Agar shartli qo'zg'atuvchi 1-2 sekunddan keyin shartsiz qo'zg'atuvchi bilan mahkamlansa unda to'g'ri mos keladigan shartli refleks paydo bo'ladi. Shunda sharti qo'zg'atuvchi harakatlanishi natijasida shartli keskinlik bilan teskari harakat paydo bo'ladi. Itlarni o'rgatishda ularda har xil to'g'ri mos keladigan shartli reflekslar ishlab chiqarishga harakat qilinadi.

Masalan "O'tir" degan buyruqni it eshitishi bilan o'tiradi. Uzoq (5 minutgacha) bo'lgan shartli qo'zg'atuvchining ta'siri va uni shartsiz qo'zg'atuvchi bilan kechroq mahkamlansa, itda biroz kechiktirilgan shartli refleks ishlab chiqariladi. O'rgatish jarayonida biroz kechiktirilgan shartli refleks birinchi buyruqni emas, balki keyingi

buyruqni ko'p marotaba qaytarib, keyin shartsiz qo'zg'atuvchi bilan mahkamlash uchun ishlab chiqarilgan. Masalan "O'tir" degan buyruqni uch marta qaytarilgandan keyin shartsiz qo'zg'atuvchi bilan mahkamlanadi.

Ma'lumki, shartli refleks shartsiz refleks asosida ishlab chiqariladi. Lekin oldin ishlab chiqarilgan shartli refleks asosida yangi shartli refleks ishlab chiqarilsa bo'ladi. Bu reflekslar oliy darajadagi reflekslar deb ataladi (birinchi, ikkinchi, uchinchi). Ularni ishlab chiqarish juda qiyin va ular tez yo'qoladi.

Buning uchun boshida "o'tir" degan buyruqga shartli refleks yaratiladi. Keyin "o'tir" degan buyruqning asosida o'tirish refleks i shoraga o'rgatiladi. Bunda qo'l bilan ishora qilinadi (ko'rish qobiliyatiga tegishli shartli qo'zg'atuvchini keltiruvchi harakatlar) va "o'tir" degan buyruq bilan tasdiqlanadi. Agarda "o'tir" degan ishora, og'zaki buyruq bilan "o'tir" deb va o'rgatuvchi itning bo'ynidagi tasmani tortsa yoki itga ozuqa berilsa, bunda shartsiz qo'zg'atuvchi qo'llanilgan bo'lib hisoblanadi, shu paytda qo'l ishorasiga shartli refleks ishlab chiqarilgan bo'lib, bu refleks ikkinchi emas, balki birinchi toifali refleks hisoblanadi.

5. Ijobiy va tormozli shartli reflekslar.

Har xil qo'zg'atuvchilar ta'sirida asab markazini qo'zg'atish yoki tormozlanish jarayoni paydo bo'ladi. Qo'zg'alish jarayoni itlarning ushbu harakatiga asos bo'ladi. Tormozlanish jarayoni esa teskarisiga, o'sha harakatlarni to'xtatadi. Tormozlanish jarayoni asosida shartli tormozlanish (manfiy) reflekslari ishlab chiqariladi ("Fu" buyrug'iga shartli refleks ishlab chiqarish va boshqalar). Tormozlanish asosida boshqa shartli reflekslar ishlanadi, ulardan biri har xil usullarni tuzishda chidamlilik, bardoshlik bilan bog'langan shartli reflekslar ("o'tkazish", "yotqizish", "turg'izish" va boshqalar)dir. Tormozlanish asosida har xil usullar ishlab chiqariladi, bu usullardan biri hidlarni ajratish (differensirovka-kiyimlarni ajratish, kiyimga asosan odamni ajratish). Shartli reflekslarning asosida yotgan qo'zg'alish jarayoni ijobiy shartli reflekslar hisoblanadi.

O'rganish davomida har bir ishlangan tajribada bir necha ijobiy va tormozli reflekslar birga qo'shilib keladi. Bu qo'shilish itdagi murakkab harakati shaklida paydo bo'ladi va u **ko'nikma** deyiladi. Masalan, o'rgatuvchi "oldimga" deb buyruq berganda itda bir necha refleks paydo bo'ladi. Birinchidan eng qiyin refleks ishga tushadi, bunda it o'rgatuvchining oldiga yaqinlashadi, keyin it o'rgatuvchining oldiga

buyruqni ko'p marotaba qaytarib, keyin shartsiz qo'zg'atuvchi bilan mahkamlash uchun ishlab chiqarilgan. Masalan "O'tir" degan buyruqni uch marta qaytarilgandan keyin shartsiz qo'zg'atuvchi bilan mahkamlanadi.

Ma'lumki, shartli refleks shartsiz refleks asosida ishlab chiqariladi. Lekin oldin ishlab chiqarilgan shartli refleks asosida yangi shartli refleks ishlab chiqarilsa bo'ladi. Bu reflekslar oliy darajadagi reflekslar deb ataladi (birinchi, ikkinchi, uchinchi). Ularni ishlab chiqarish juda qiyin va ular tez yo'qoladi.

Buning uchun boshida "o'tir" degan buyruqga shartli refleks yaratiladi. Keyin "o'tir" degan buyruqning asosida o'tirish refleksi ishora o'rgatiladi. Bunda qo'l bilan ishora qilinadi (ko'rish qobiliyatiga tegishli shartli qo'zg'atuvchini keltiruvchi harakatlar) va "o'tir" degan buyruq bilan tasdiqlanadi. Agarda "o'tir" degan ishora, og'zaki buyruq bilan "o'tir" deb va o'rgatuvchi itning bo'ynidagi tasmani tortsa yoki itga ozuqa berilsa, bunda shartsiz qo'zg'atuvchi qo'llanilgan bo'lib hisoblanadi, shu paytda qo'l ishorasiga shartli refleks ishlab chiqarilgan bo'lib, bu refleks ikkinchi emas, balki birinchi toifali refleks hisoblanadi.

5. Ijobiy va tormozli shartli reflekslar.

Har xil qo'zg'atuvchilar ta'sirida asab markazini qo'zg'atish yoki tormozlanish jarayoni paydo bo'ladi. Qo'zg'alish jarayoni itlarning ushbu harakatiga asos bo'ladi. Tormozlanish jarayoni esa teskarisiga, o'sha harakatlarni to'xtatadi. Tormozlanish jarayoni asosida shartli tormozlanish (manfiy) reflekslari ishlab chiqariladi ("Fu" buyrug'iga shartli refleks ishlab chiqarish va boshqalar). Tormozlanish asosida boshqa shartli reflekslar ishlanadi, ulardan biri har xil usullarni tuzishda chidamlilik, bardoshlik bilan bog'langan shartli reflekslar ("o'tkazish", "yotqizish", "turg'izish" va boshqalar)dir. Tormozlanish asosida har xil usullar ishlab chiqariladi, bu usullardan biri hidlarni ajratish (differensirovka-kiyimlarni ajratish, kiyimga asosan odamni ajratish). Shartli reflekslarning asosida yotgan qo'zg'alish jarayoni ijobiy shartli reflekslar hisoblanadi.

O'rganish davomida har bir ishlangan tajribada bir necha ijobiy va tormozli reflekslar birga qo'shilib keladi. Bu qo'shilish itdagi murakkab harakati shaklida paydo bo'ladi va u **ko'nikma** deyiladi. Masalan, o'rgatuvchi "oldimga" deb buyruq berganda itda bir necha refleks paydo bo'ladi. Birinchidan eng qiyin refleks ishga tushadi, bunda it o'rgatuvchining oldiga yaqinlashadi, keyin it o'rgatuvchining oldiga

o'tiradi va nihoyat shartli refleks paydo bo'ladi, bunda it o'tirgan holatni ushlab turadi.

Birin-ketin o'zaro bog'langan shartli reflekslar tajribaga kiradi. Qancha tajriba mustahkam bo'lsa shuncha it o'z vazifalarini aniq bajaradi. Tajriba ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Masalan it o'rgatuvchi ishida xato qilib, har bir darsda har xil buyruqlarni belgili ketma-ketlikda talab qilganda itda salbiy tajriba rivojlanadi. Keyinchalik it birinchi buyruqni eshitgandan keyin uni tajribali bajaradi. Qolgan tajribalarini buyruqsiz ketma-ket bajaradi.

Shuning uchun it o'rgatilganda buyruqlarni ketma-ket emas, balki aralashtirib berish kerak.

Tajribani bajarishdan oldin amalda, masalan, lanj, kam qo'zg'aladigan itni 1-2 minutga o'tqizib qo'yish kerak, keyin "hidla" deb buyruq berish tavsiya qilinadi. It qizg'in ravishda ishlaydi, chunki oxirgi buyruqni miya baland qo'zg'algan holatida bajaradi. Shunday qilib, miyada ikkita jarayon kechadi: qo'zg'alish va tormozlanish. Ular bir-biriga o'tadi, bu ikkita jarayon doimiy harakatda bo'lib, hayvonning oliy asab faoliyatiga shart qo'yiladi.

6. Miya qobig'ida tormozlanish jarayoni.

Oldin ishlab chiqarilgan refleks, masalan "yot", it uni bajarmadi, shu paytda begona odam o'tgan bo'lishi mumkin yoki mushuk, biror narsa portlasa va boshqalar. Buni sababi shuki, yangi kuchli qo'zg'atuvchi, yangi qo'zg'alish natijasida miyada tormoz jarayoni paydo bo'ladi. Qancha shartli refleks buyruqga mustahkam bo'lsa, shuncha tormozlanish kuchsiz va kam vaqt bo'ladi va teskarisiga. Bir kuchli g'aroyib qo'zg'atuvchining oqibatida itga buyruq berilganda shartli refleks yuzaga chiqmasdan to'xtalib qolsa, unda bu holat tashqi tormozlanish deyiladi. It o'rgatishning tashqi muhit tinch, chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar yo'q joyda boshlash kerak, keyin sekinlik bilan sharoitni og'irlashtirish kerak, shunda g'aroyib qo'zg'atuvchilarni ta'sir kuchi tashqi tormozlanuvchi ma'nosini yo'qotadi (so'ngan tormoz).

Shuni e'tiborga olish kerakki, agarda itlar yoshligidan har xil narsalar va hodisalardan doimo va to'g'ri tanishgan bo'lsa, shunda itlar g'ayritabiyy qo'zg'atuvchilarga tez o'rganib va yengillik bilan ularni "hazm" qilishadi.

Kuchli qo'zg'atuvchilar ta'sirida, masalan, urg'ochi itning hidi, itning biror joyi og'rib tursa, qovug'i to'lib ketgan bo'lsa, tashqi tormozlanish shartli reflekslarni to'xtatib qo'yishi mumkin.

Chegaradan chiqqan yoki saqlanadigan tormozlanish nihoyatda kuchli qo'zg'atuvchilar yoki o'rta kuchli qo'zg'atuvchilarni uzoq muddat ta'sir etishi natijasida saqlanuvchi tormozlanish vujudga keladi. Bu qo'zg'atuvchilar miya qobig'idagi asab katakchalarining ish faoliyatini chegarasidan chiqib ketadi va ular qo'zg'alish bilan emas, balki tormoz (to'xtalish) bilan javob beradi. Bu harakat nerv (asab) katakchalarini ozg'inlanishdan saqlaydi.

Shuning uchun it o'rgatish amaliyotida haddan tashqari kuchli qo'zg'atuvchilarni ishlatish mumkin emas. Ayniqsa asab sistemasi kuchsiz itlarga bitta usulni qayta-qayta ko'p qaytarish mumkin emas. Masalan, it o'rgatuvchi qayta-qayta bitta mashg'ulotni itdan talab qilaversa it o'sha talabni umuman bajarmaydi.

Tashqi va saqlanuvchi tormozlarni asab sistemasida doimo tegishli qo'zg'atuvchilarning ta'sirida o'zi paydo bo'ladi. Ularni ishlab chiqarish kerak emas. Shuning uchun ularni shartsiz yoki passiv tormozlanish deb ataladi. Bundan tashqari bosh miya qobig'ida tormozlanishning boshqa turi ham o'tadi. U faqat belgili sharoitlarda paydo bo'ladi. U asta-sekinlik bilan ishlab chiqadi. Ba'zan uzoq saqlanadi, shuning uchun ham uni shartli yoki aktiv tormozlanish deb ataladi.

Shartli tormozlanishni ishlab chiqarishning asosiy shartlaridan biri bu shartli qo'zg'atuvchini shartsiz qo'zg'atuvchi bilan hech yoki umuman mustahkamlamaslik kerak.

Ma'lumki, shartli reflekslar doimiy emas, ular vaqtinchalik, ularni tug'dirgan sharoitlar o'zgarsa ular g'oyib bo'ladi. Reflekslarning o'tishi uchun tormozlanish paydo bo'lishi sabab bo'ladi. Kuchsiz shartli reflekslar kuchli shartli reflekslardan tezroq esdan chiqadi. Qancha kuchli shartsiz refleks bazasida ishlab chiqarilgan shartli refleks bo'lsa, shuncha u refleks sekinlik bilan esdan chiqadi. Asosan o'zini himoya qilish reflekslari itlarda sekin ko'chadi.

Agarda shartli qo'zg'atuvchini bir-ikki marta shartsiz qo'zg'atuvchi bilan mustahkamlasa shunda esdan chiqqan reflekslar yana esga tushishi mumkin.

O'rgatilgan itlar bir-biriga o'xshash qo'zg'atuvchilarni saralashga qodirlar. Masalan 3-4 odam o'zlarini narsalarini tashlashadi, odamlardan bittani o'zini qo'lini hidlatadi. Hidiga qarab tanlanadigan narsaga miya qobig'ida qo'zg'alish jarayoni o'tadi, boshqa narsalarni hidlariga tormoz jarayoni o'tadi. Shu tormozlanish (differensial) yordamida it kerakli narsani boshqalardan ajratib oladi.

Qancha qo'zg'atuvchilar bir-biridan kam farq qilsa, shuncha differensial tormozlanish keyinroq paydo bo'ladi, shunga bu jarayon asab kataklarining ishida ko'proq tirishishni talab etadi.

7. Itlarning xulqini boshqaradigan reaksiyalar (teskari harakatlar)

Tashqi muhitdagi va it organizmining ichki muhitdagi g'ashlikni keltiruvchi harakatlarga paydo bo'lgan reflekslarni itning xulqi yuzaga chiqadi. Instinkt reaksiyalari – tug'ma his teskari harakatlari nasldan-naslga o'tadi, lekin ularning shakli va darajasi it organizmining holatiga va tashqi muhitiga bog'liq. Instinktlar hayot davomida ko'p shartli reflekslar bilan to'ldiriladi, katta itda ularning yuzaga chiqishi qiyinlashadi va ular murakkab reaksiyalarni tashkil etadi (javoban harakatlar).

Itlarda keyingi murakkab reaksiyalar yuzaga chiqadi: oziq-ovqat, himoya, mo'ljallash, jinsiy.

Oziq-ovqat reaksiyasi: och itlarda yuzaga chiqadi va bu reaksiya ovqatni topish va yemoqqa jo'natiladi. Bu reaksiyaga bir necha har xil oziq-ovqat reflekslari kiradi (ovqatni ushlash, g'ajish, yirtish, yutish, so'lak ajralishi). Himoyalanish reaksiyasi itga xavf-hatardan qochishga imkoniyatini yaratadi. Bu reaksiya 2 ta shaklga bo'linadi: aktiv himoya va passiv himoya.

Aniqlash reaksiyasi yangi qo'zg'atuvchi ta'sirida yuzaga chiqadi. Bu reflekslar taqiqlovchi yoki "bu nima?" refleksi deb ataladi. "Bu nima?" refleksida it o'sha kursantni hidlaydi, quloq soladi, boshini qo'zg'atuvchi tomonga burib, ehtiyot, sezgir bo'ladi. Hayot davomida bu tug'ma refleks murakkablashadi va shu refleks orqali it nafaqat yangi sharoit bilan yoki notanish qo'zg'atuvchi bilan tanishadi. Balki u murakkab harakatlar qiladi, masalan yo'qolgan egasini topishga intiladi.

Aniqlash refleksi bilan boshqa reflekslar paydo bo'ladi. Agar aniqlash oqibatida yangi qo'zg'atuvchi himoyalanish harakatini qilsa unda it unga tashlanadi yoki qochadi, bu degani aniqlangan refleks himoyalanish aktiv yoki passiv refleks formasiga aylanadi. Agar aniqlash refleksi ovqatga paydo bo'lsa, u ovqatlanish refleksiga o'zgaradi.

Jinsiy reaksiya jinsiy qo'zg'alishda paydo bo'ladi va ko'payish jarayonini ta'minlaydi. Jinsiy va ota-onalik reflekslari ichki va tashqi g'ashlikni keltiruvchi harakatlar bilan birgalikdagi ta'siri oqibatida paydo bo'ladi. It o'rgatilganda bu reflekslar ishlatilmaydi. Lekin bu reflekslarni katta kuch bilan kelishi boshqa reflekslarni tormozlantiradi

va o'rgatishga xalaqit beradi. Biron murakkab reaksiyani paydo bo'lishining asosida belgili instinkt yotadi, instinktlar esa nasldan-naslga o'tadi. Demak, belgili reaksiyani yuzaga chiqishida nasl muhim ahamiyatga ega. Agar itning ota-onasida aktiv himoyalaniish reaksiyasi rivojlangan bo'lsa, unda bu itda ham bunday reaksiyalar rivojlangan bo'ladi. Lekin tug'ma reaksiyalar yuzaga chiqishi hayotning sharoitlariga hamda yig'ilgan odatlarga (shartli reflekslarga) ham og'liq. Ular u yoki bu reaksiyalarni yuzaga chiqish sifatini o'zg'artirishi mumkin. Nasl xususiyatlariga, fiziologik axvoliga va hayot sharoitlariga (tarbiyasiga) bog'liq bo'lgan asosiy murakkab reaksiyalar itlar xulqida har xil darajada ko'rinadi.

Itlarda yuzaga chiqadigan nisbatan doimiy va eng kuchli darajadagi reaksiyalar **boshqaruvchi reaksiyalar** deb ataladi.

Itlarni o'rgatishda boshqaruvchi reaksiyalari haddan tashqari katta ahamiyatga ega. Aktiv himoya reaksiyasi yaxshi rivojlangan itlarni izlash-qorovullash va qo'riqlash xizmatlari uchun o'rgatiladi. Agar itni aniqlash reaksiyasi yaxshi rivojlangan bo'lsa uni narkotik moddalar, mina izlash xizmatlari uchun o'rgatiladi. Agar itda oziq-ovqat reaksiyasi rivojlangan bo'lsa, unda bu itni o'rgatish davomida ko'proq rag'batlantirish sifatida ozuqali qo'zg'atuvchilarni ishlatish kerak.

Bir necha asosiy reaksiyalar itlarda teng darajada ko'rinadi, bu hol aralash ustunlik qiluvchi reaksiyalar deyiladi. Masalan, jaxldor va qo'rqqoq itlar uchraydi, ularnig teng darajada aktiv himoya va oziq-ovqat reflekslari yoki mo'ljallash va passiv himoya reflekslari rivojlangan.

8. Boshqaruvchi reaksiyalarni aniqlash.

Itlda qaysi reaksiya boshqaruvchi reaksiyaligini aniqlash uchun itni har xil qo'zg'atuvchilar bilan ta'sir qildirib, tekshiruvdan o'tkazish kerak. Shu maqsadda it uchun yangi sharoit ta'minlanadi. Oziq-ovqat va himoyalaniish reaksiyalarini qo'zg'atish uchun ovqat va itlarga begona bo'lgan odamlarni ishlatishadi. Izlanishni ertalab ovqatlanish oldidan yoki ovqatlangandan 4 soatdan keyin olib borishni tavsiya etiladi. Izlanishda 2 ta yordamchi, instruktor va kinologlar qatnashadilar.

Izlanishda qatnashayotgan shaxslar yashirinishadilar va bog'langan itlar yangi sharoitda kuzatishadi (egasi ketishiga qanday reaksiya qiladi). Keyin yordamchilardan biri shovqin qilib bir oz vaqtdan keyin yashiringan joydan chiqib bemalol 5-6 metr naridan o'tib boshqa joyga yashirinadi. Bu chiqishning maqsadi itni bemalol asta-sekin ketayotgan odamga nisbatan bo'lgan reaksiyasini aniqlash. Birinchi yordamchi

ketishi bilan qarama-qarshi tomondan instruktor signalidan so'ng qo'lida qamchi bilan ikkinchi yordamchi chiqib keladi va tezlik bilan itga yaqinlashib aktiv hujum qiladi, keyin yana yashirinadi. Keyin o'rgatuvchi chiqib keladi (egasi), it oldiga biron ovqat qo'yadi va u ham yashirinadi. It ovqatga urinishi bilan qo'lida qamchi bilan ikkinchi yordamchi chiqib itga yana hujum qiladi va itning oldidan ovqatni olishga harakat qiladi.

Shunaqa ikki harakatdan so'ng ikkinchi yordamchi yashirinadi. Shu bilan ustunlik qiluvchi reaksiyani aniqlash tugatiladi. Yangi sharoitda ovqatga va yordamchilarning harakatiga itning reaksiyasini kuzatish asosida solishtirish yo'li bilan xulosa chiqariladi, qaysi reaksiya boshqaruvchi, qaysi reflekslar eng kuchli bo'ldi.

Boshqaruvchi reaksiyani aniqlashda navbatdagi asosiy belgilarni qo'llaydi:

It aktiv himoya reaksiyasi bilan sharoit o'zgarishiga tez ta'sirlanadi. Birinchi yordamchi chiqqanda mo'ljalli reaksiya himoya reaksiyasiga o'tadi; u odamga tashlanadi, hurkiydi. Ikkinchi odam chiqqanda itning harakati yanada faollashadi. Ovqat yeganda g'ashiga tekkanda odamni topishga harakat qiladi va ovqatlanishga darrov qaytmaydi.

It passiv himoya boshqaruvchi reaksiyasi bilan sharoit o'zgarishi bilan qo'rquv bilan har tomonga qaraydi, birinchi yordamchi paydo bo'lganda qarama-qarshi tarafga qochishga harakat qiladi, ovqat yeganda g'ashiga tegsa yana qarama-qarshi tarafga qochishga harakat qiladi va yerga yopishadi. Ovqatni to'xtab-to'xtab yeydi yoki umuman ovqatlanmaydi.

It oziq-ovqatni boshqaruvchi reaksiyasi bilan sharoit o'zgarganda birinchi yordamchiga erkanadi, ikkinchi yordamchiga tashlanadi. Ovqatni katta ochko'zlik bilan iste'mol qiladi va g'ashiga tekkanda e'tibor bermaydi.

It aniqlash boshqaruvchi reaksiyasi bilan sharoit o'zgarganda quloq soladi, yerni hidlaydi, har tomonlarga qaraydi. Birinchi yordamchi o'tganda oldiga talpinadi, hidlaydi va ovqatni darrov yemaydi. G'ashiga tekkanda himoya reaksiyasini yuzaga chiqarmaydi.

Aniqlash reaksiyasi boshqa narsalardan oldin keladi va ular tez almashadi. Boshqaruvchi reaksiyasi bo'lib bu reaksiya juda kam uchraydi.

Reaksiyalarni yuzaga chiqish darajasi hisobga olinib, it o'rgatuvchi ularni o'rgatish jarayonida ishlatishi kerak. O'rgatish jarayonida bir xil

reaksiyalarni kuchaytirish yo'li boshqalarni kamaytirishi mumkin. Masalan, "ozuqani rad etish" usulida ovqatga talpinish instinkti yo'qoladi, buning uchun himoya reaksiyasi "o'z-o'zini himoya qilish instinkti" ishlatiladi.

Ustunlik qilish reaksiyasini aniqlashni o'rgatish kursining boshida va oxirida o'tkazilishi tavsiya qilinadi.

10. Xizmat itlarinig oliy asab faoliyatining turlari

Tinimsiz (xolerik) turi – bu tur o'zini-o'zi to'xtata olmaydigan, juda jaxldor, nerv jarayoni harakatchan, bo'layotgan hodisaga o'zini to'xtatib tura olmaydi. Hidni sezish qobiliyati sezgir emas, sharpani tez sezadi, shuning uchun bunday itni qorovullik joylariga qo'yishga bo'ladi. O'rgatish bu turdagi itlar uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi, lekin yaxshi o'rgatilsa, bu itlar ko'p harakatchan bo'lib, charchamaydigan yaxshi xizmat qiladigan itlar turkumiga kiritisa bo'ladi. Bu turkumdagi itlar o'ziga xos xarakterda bo'lgani uchun asab sistemasi yomonligi sababli ko'proq asab kasalligiga duchor bo'ladilar.

Harakatchan turi (sangvinik) – bu turdagi itlarning asab sistemalari kuchli, muvozanatli, tez harakatchan, atrof-muhit ta'sirolarini oddiy darajada sezadi, yaxshi muomalali, refleksi ijobiy, buyruqni bajarishga yaxshi o'rganadi, hid sezishi yaxshi. Bu turdagi itlarni o'rgatish oson.

Inertli (flegmatik) – asab sistemasi kuchli, muvozanatli, lekin harakatsiz va yalqov itlar guruxidir. Ijobiy va tormoz reflekslari asta-sekin ishlab chiqariladi, lekin ko'p vaqt yo'qolmaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta turdagi asab sistemasi kuchli hisoblanadi, shu turga kiruvchi itlar kuchli, chidamli, asab sistemasi va mehnatsevarligi bilan boshqalardan farq qiladi.

Ta'sirchan turkum (melanxolik) – asab sistemasi kuchsiz, ayniqsa qo'zg'atish harakatga kelishi, muvozanatsizligi, shartli reflekslari kichikib ishlaydi, qisman atrof-muhitdan ta'sirlanishi tufayli tormozlanish hosil bo'ladi. Bu turdagi itlar ko'proq qo'rqqqlikka duch keladi, bu itni yoshligidan noto'g'ri tarbiyalanishidan kelib chiqadi. Asab sistemasi kuchsiz bo'lib tarbiyalangan itlarga biron narsani o'rgatish yaramaydi. Ular tezda kasallik (nevroz)ga duchor bo'ladilar. Shartli tormozlanish reflekslarini yoki boshqa muhim buyruqlarni bajarish uchun itlarga juda ehtiyotkorlik bilan pog'ona-pog'ona sekin-asta o'rgatib borish kerak. Jumladan, narsani topish, iz yoki yukni, hidi orqali odamni topish kabi tajribalar o'tkazib turilishi kerak.

Masalan, bir ko'nikmani o'rgatish uchun it har doim o'rgatuvchining chap oyog'i oldida to o'rgatuvchi "Aport" degan buyruqni bergunga qadar turishi kerak. O'rgatuvchi biror-bir predmeti irg'itsa, shuni ko'rib it buyruqga asosan shu predmetni olib kelib o'rgatuvchiga berishi kerak. Ayniqsa tajribasiz it o'rgatuvchidan itga nisbatan qo'pol xatoga yo'l qo'yadi.

Masalan, o'rgatuvchi itga yo'qolgan narsani yoki izi orqali hidlab odamni topib kelishni buyuradi. It bir-ikki marta to'g'ri topib keladi. Lekin yana uch-to'rt marta itga shu vazifani ketma-ket buyuraveradi. It keyingi safardan biroz xatoga yo'l qo'ysa o'z-o'zidan xafa bo'lishi mumkin. Itga birdaniga ko'p ish buyurish juda xato ish, sekin-asta oz-ozdan chegaralangan holda ish tutish lozim.

Bosh miyadagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining orasidagi munosabatlar oliy asab faoliyati turlarining bo'linishiga asosdir (4-jadval).

1. Ushbu jarayonlarni kuchi;
2. Bosiqlik: $Q > T$; $Q \geq T$; $Q \leq T$; $Q < T$; $Q = T$
(Q - qo'zg'alish jarayoni, T - tormozlanish jarayoni)
3. Harakatchanlik (tezlik bilan yoki sekin bir jarayon boshqa jarayonga o'tishi)

Jadval № 4

OAF turi	Asab jarayonlarining kuchi	Bosiqlik	Harakatchanlik
Xolerik	Kuchli	Bosiq emas, $Q > T$	Tinimsiz
Sangvinik	Kuchli	Bosiq, $Q \geq T$	Harakatchan
Flegmatik	Kuchli	Bosiq, $Q \leq T$	Inertli
Melanxolik	Kuchsiz	Bosiq emas, $Q < T$	Harakatsiz

Tajriba shuni ko'rsatadiki, harakatchan itlar bilan ishlashda asta-sekin umumiy chidamlikka bardosh qilib, itni o'rgatib borish kerak. Masalan bir xolatda birinchi kun 3-5 sekund chidashni o'rgatish kerak, bora-bora chidash tormoz refleksini oz-ozdan oshirib rejadagi chidash normasiga yetkazish kerak. Tez harakatchan itlarni vaqtda ko'proq kuchli mexanik usulda jig'iga tegish harakatlarini qo'llash lozim bo'ladi, bu holda it keraksiz yomon qiliqlarini kamaytiradi va bora-bora yo'q qiladi. Masalan "yonida yurish", "yurish tezligini kamaytirish", "ovqat yeyishdan bosh tortmoq" kabi buyruqlarni oddiy usulda jig'iga tegish harakatida bu turkumdagi itlar bajarmasliklari mumkin. Bu vaqtlarga it bo'yniga bog'langan zanjirni qattiq tortib qo'yib yuborish kerak va bu

usulni ko'proq takrorlab, shu buyruqni it bajarishga harakat qilishi kerak.

Bu turkumdagi itlar elektr yorug'lik nuri, qattiq ovoz va kutilmagan zarba kabi g'ashiga ta'sir etuvchi ovoz va harakatlarga nisbatan chidamli va ko'p vaqt davomida og'ir va qiyin vazifalarni bajarish qobiliyatiga egadir. Bunday itlar bilan ishlashda o'rgatish jarayonida nihoyatda ehtiyotkorlik va qunt bilan ishlash lozim. Amaliy mashqlarni jiddiy, pog'onama-pog'ona doimiy ravishda itga individual o'tkir malaka bilan yondashib ishlasa yoki o'rganib borilsa eng yaxshi kutilgan natija beradi. Agar o'rgatuvchi bu guruhdagi itlarni bosh asab faoliyatlarini nazarga olmasdan katta kuch talab qilib, tormoz jarayoniga ta'sir etaversa "nevroz" xastaligiga duch bo'lib, hafta va oy davomida bu xastalik zo'rayib ketishi mumkin. Bunday itlar faqat qidiruv bo'limlarida ishlatishga tavsiya etiladi. Haddan tashqari harakatchan itlar qidiruv bo'lim xizmatiga ham o'rgatishga yaramaydi. Asab sistemasi juda kuchli, harakatchan turdagi itlar kuchli, muvozanatli va yaxshi harakatchan asab sistemasi yaxshi va tez o'rganuvchan turdagi shartli refleksi ijobiy itlardir. Tormoz reflekslari tez ishlab chiqaradi va shu holatda mustahkam saqlanadi.

Bu turdagi itlar o'rgatilgan vaqtda hech qanday qiyinchiliksiz ko'nikma hosil qiladi va har qanday ko'ngilsiz, o'quvsiz qiliklarni tezda yo'qotadilar. Bular chidamli hidni sezuvchan, o'rgatish jarayonida umumiy qoidaning buzilishida bosqichma-bosqich o'rganish jarayonida qiyinchiliklar yuz bersa itni ishlash sifati pasayadi va asab sistemasida xastalik paydo bo'ladi.

11. Asab sistemasi juda kuchli, o'zi yalqov, ishyoqmas (faoliyatsiz kam harakat) turdagi itlarni o'rgatish

Bu turdagi itlarni o'rgatishda ularni individual xususiyatlarini, kam harakatchanligini, asab sistemasi ko'tarilishi va pasayishi, keskinlik bilan teskari harakat sezgirliги va shu kabi faktorlarini nazarga olib bu turkum itlarga individual yondashib o'rgatish kerak.

Masalan bunday xarakterdagi itlarga har bir buyruq berishda oradagi interval vaqt ko'proq bo'lishi shart, "fu" buyrug'idan keyin birdaniga "fas" yoki teskarisiga, chunki bu buyruqlar bir-biriga teskari, bunda it tezda buyruqni tushunib olmaydi. Yoki ikkinchi "o'tir" buyrug'i, so'ngra birdaniga "yot" yoki shuni teskariga berilgan buyruqni bajara olmasligi mumkin. Ikki xil buyruq o'rtasida yetarli darajada vaqt berish lozim. Bunday buyruqni sekin bajarganligi yoki boshqa

kamchiliklari uchun itga yaxshi munosabatda bo'lish shart, itga baqirmasdan, o'z asab sistemasini buzmasdan oddiy holatda o'zini tutishi kerak. Bu turkumdagi itlar buyruqni juda sekin bajarganliklari uchun o'rgatuvchi va uning shogirdi tomonidan itga tazyiq qilib badaniga urishlari og'ir shikast yetkazadi. Natijada it qo'rqqoq va passivli bo'lib, o'rgatuvchilarga nisbatan g'azablanib qaraydi. Itlar hid sezish qobiliyati orqali juda sekin sezadi. Bora-bora yaxshi seza boshlagach shartli reflekslar aniq va xatosiz ishlaydi.

Flegmatik turdagi itlarni epchil, chaqqon, yaxshi malakali o'rgatuvchilarga berish kerak, shundagina itlar yaxshi o'rganib, o'z vazifalarini tez va xatosiz bajarishni mukammal o'rganadi.

Asab sistemasi kuchli, kam harakatli, kuchiz, sezgisi past itlarni uchratish mumkin.

Bu turdagi itlarni o'rgatish haddan tashqari qiyin. Bunday itlar odatdan tashqari himoya qilish uchun, ichki ishlar qidiruv bo'lim xizmatlari, chegara bo'limlari va qorovul postlarida ishlash uchun kuchsiz asabi bo'sh itlar bu vazifaga noloyiq hisoblanadi. Har xil yoshdagi itlar yoshiga, tarbiyalanish sharoitiga va tayyorlangan darajasiga asosan yashash sharoitlari tarbiyalanishlari tayyorlangan darajasiga qarab qabul qilish mumkin. Shularni hammasini e'tiborga olmaslikning iloji yo'q. Aksincha ularni yaxshi darajada o'rgatib bo'lmaydi. Ma'lumki, qidiruv (izidan va hididan izlab topish) va qorovullik xizmatlarida malakasi yaxshi itlarni o'rgatish uchun maktablarda va maxsus yig'inlarda aniq o'quv uslublari va o'rgatish uchun qoidalar bo'lishi shart. 10-12 ta itlardan tashkil qilingan kichik bir guruhda ham har xil turdagi itlar uchraydi. Bular orasida oliy asab faoliyati reaksiyasi va boshqa bir qancha ko'rinishlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Ularni yoshlari har xil bo'lganligi sababli o'rgatish ham ancha qiyin, yosh itlarni asab sistemasi yetarli taraqqiy etmagan, qo'rqqoq bo'ladi 1-2 yoshli itlar ko'proq o'rgatishga olinadi. Ba'zan yosh va katta yoshdagi itlar ham tanlab o'rgatishga olinadi. Har xil yoshdagi itlarga individual yondashish kerak, mexanik harakatlarni juda ham ehtiyotkorlik bilan ishlatish zarur. Badanini og'ritib, qo'zg'atuvchi mexanik harakatlar itlarni passiv himoya reaksiyasiga o'tishga majbur qiladi. Yosh itlar taqlidiy uslubga tez o'rganadilar. Shuning uchun (to'siqdan o'tish, jaxlini chiqarish, apportirovka va boshqalar) kabi uslublarni o'rgatish mumkin. Ayniqsa, yosh itlarni ko'p harakatchanligiga ko'proq e'tibor berish lozim. Yosh itlarni

chidamlilikga o'rgatish va malakasini oshirishda juda ehtiyotkorlik bilan o'rgatib borish kerak. 2 yoshdan oshgan itlarni o'rgatishda bir necha xususiyatlarni hisobga olish kerak.

Bunday itlarda yomon, keraksiz, yoqimsiz reflekslar ma'lum bir ko'nikmalarga o'rgatishda qiyinchiliklar keltirishi mumkin.

12. Xizmat itlarini o'rgatishda qo'llaniladigan qo'zg'atuvchilarni qo'llash.

Organizm retseptorlari bilan qabul qilinadigan va oliy asab sistemasi bilan javob qaytarish harakatini chaqiruvchi hamma narsa qo'zg'atuvchi deb ataladi.

Tashqi qo'zg'atuvchi atrof-muhitdan paydo bo'ladi, ya'ni it organizmining tashqi tomonidan va sezgi a'zolari orqali ta'sir qiladi (quloq, ko'z, burun, sezish va ta'm sezish). Har bir sezgi a'zosi faqat belgili qo'zg'atuvchilarni qabul qiladi, masalan quloq tovushli buyruq, shovqin, shivirlash, otilgan tovush, ko'zlar-yorug'lik, ko'rinadigan signallar (ishora, kiyim, yorug'lik).

Ichki qo'zg'atuvchi it organizmida paydo bo'ladi (asab ixtiyorsiz harakat, nervni impuls gormonlari) va ichki organ retseptorlari bilan qabul qilinadi.

Itlar o'rgatilganda ichki qo'zg'atuvchini hisobga olgan holda tashqi qo'zg'atuvchi ishlatiladi.

O'z tabiati bo'yicha va itlarga ta'sir etuvchi usullar bo'yicha qo'zg'atuvchi quyidagicha bo'lishi mumkin.

- mexanik (zarba, itni bo'ynidan tortmoq, ukol)
- chiroq yoki ko'rinadigan (ishora, kiyim shakli, hayvon ko'rinishi)
- tovushli (buyruq, xushtak, portlash)
- elektrli (elektr tokini ishlatish)
- oziq-ovqat (ovqat, hid, ta'm)
- hidlanuvchi (odam izining hidi, harakat moddalarini hidi)

Mashqlar davomida o'rgatuvchi itni asab sistemasiga shartli va shartsiz qo'zg'atuvchilar bilan ta'sir qiladi. Ushbu qo'zg'atuvchilarni to'g'ri ishlatish uchun ularning xususiyatlarini va qo'llanilish tartibini bilish kerak.

Shartsiz refleksni chaqiradigan qo'zg'atuvchi — **shartsiz qo'zg'atuvchi** deb ataladi. Shartli refleksni chaqiradigan qo'zg'atuvchi esa — **shartli qo'zg'atuvchi** deb ataladi.

Buyruq va ishoralar asosiy shartli qo'zg'atuvchilar va ularning asosida shartli reflekslar ishlab chiqariladi.

Buyruq – murakkab tovushli shartli qo'zg'atuvchi.

Mexanik qo'zg'atuvchi

Bular navbatdagi turlarda ishlatiladi:

- itga tasma bilan ta'sir etish (tortish)
- yag'rin (xolka)ga bosish, itning beliga bosish
- itni qamchi bilan urish
- qattiq bo'yinbog' bilan ta'sir etish
- itni silash va boshqalar

O'rgatuvchining mexanik qo'zg'atuvchi ishlatishdan maqsadi shuki, itni ishlar bilan butunlay o'ziga bo'ysundirish, o'rgatuvchi xoxlagan amalni itga qildiradi. Shuning uchun o'rgatuvchi itga ta'sir qilganda har doim yutuvchi bo'lishi shart. Itdan talab qilinadigan amalni bajarilishiga albatta erishishi shart.

O'rgatuvchining yordamchisi har doim "yutqazuvchi", it esa "yutuvchi" bo'lishi kerak. Shundagina itda jasorat, agressivlik uyg'onadi.

Ozuqali qo'zg'atuvchi

It o'rgatishda ozuqali qo'zg'atuvchi bilan ta'sir etish – go'sht, non, qotgan non, shakar va boshqalarni berish hisoblanadi. Mayda bo'lingan go'sht, non va boshqa ozuqalar it uchun mazali taom hisoblanadi va rag'batlantirish maqsadida ishlatiladi. Ozuqali qo'zg'atuvchini ishlatishda it o'rgatuvchiga itning ovqatlanish refleksini doim mashq davomida qo'zg'algan darajada ushlab turishga yordam beradi.

Shuning uchun biron buyruqqa itda mustahkam shartli refleks paydo bo'lishi uchun ovqat bo'lagi har zamonda beriladi. Ozuqa refleksini mashg'ulot vaqtida yetarli darajada qo'zg'alish holida ushlab turish uchun nafaqat ovqatni mayda bo'laklar bilan berish kerak, balki it och, yarim och (chalato'q) bo'lishi kerak. Shuning uchun mashqlarni ovqatlanishdan 3-4 soatdan keyin boshlash kerak.

Elektr qo'zg'atuvchi

Bu qo'zg'atuvchilar ayrim paytlarda, ayniqsa "begonalardan ozuqani rad etish" va "keraksiz harakatlarni man etish" ko'nikmalarini ishlab chiqishda ishlatiladi. Agar boshqa mexanik qo'zg'atuvchilar (tasma yoki qamchi bilan urish) itga ta'sir qilmasa, shunda elektr qo'zg'atuvchilarni mashg'ulotlarning boshlig'i (malakali instruktor) boshchiligidan ishlatish mumkin. Bunda elektr uskunasi (dala telefon apparati yoki shu apparatning induktori) ishlatiladi.

13. Itlarni o'rgatishda qo'llaniladigan shartli qo'zg'atuvchilar

It o'rgatishda shartli qo'zg'atuvchilar deb, itda shartli refleks ishlab chiqaradigan qo'zg'atuvchiga aytiladi. Shartsiz qo'zg'atuvchilar aksincha, shartli qo'zg'atuvchilar uzoqdan va it xizmatdaligida boshqarishda foydalaniladi.

Har bitta shartli qo'zg'atuvchilar itda belgili shartli refleksni uyg'otadi, bu refleks o'rgatuvchi jarayonida hosil bo'ladi. It organizmining retseptorlari bilan qabul qilinadigan har qanday qo'zg'atuvchilar shartli qo'zg'atuvchilar bo'lishi mumkin.

Shartli qo'zg'atuvchilar har doim shartsiz qo'zg'atuvchilar bilan mustahkamlanadi, shuning uchun kelajakda shartli qo'zg'atuvchilar endi paydo bo'ladigan shartsiz refleksga signal bo'ladi.

It o'rgatish jarayonida shartli qo'zg'atuvchilar paydo bo'lib, uzoqdan ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilar ishlatiladi (distansion qo'zg'atuvchilar). Ularga buyruqlar, ishoralar, boshqa tovushli va nurlı signallar hamda hidlar kiradi.

Buyruq aniq bir so'z tovushli qo'zg'atuvchilarga kiradi. U itni uzoqdan boshqarishga yordam beradi.

It o'rgatishning boshida it uchun shartli refleks yo'qligida buyruq it uchun shartli qo'zg'atuvchilar emas, balki befarq (indifferent) qo'zg'atuvchilar bo'lib turadi. Buyruq tovushli qo'zg'atuvchilar bo'lib, itda faqat mo'ljallash shartsiz refleksini uyg'otadi (it quloq soladi, boshini buradi, qulog'ini qimirlatadi va boshqalar), lekin o'rgatuvchiga kerakli boshqa harakatlar qilmaydi. Shu paytlarda buyruq faqat indifferent qo'zg'atuvchilar bo'lib qoladi.

Faqat belgili sharoitlarda buyruq shartli qo'zg'atuvchilarga aylanadi va shundagina it bu buyruqni aniq va belgili javob amalini qaytaradi. Masalan, "yonimga" buyrug'i ko'p marotaba aytilib, it bo'ynidagi tasmasini tortganda it o'rgatuvchining yonida yurishga majbur bo'lgandagina shartli qo'zg'atuvchiga aylanadi. Keyinchalik itning bo'ynidagi tasmani tortmasa ham it "yonimga" degan buyruqqa bo'ynayadi. O'rgatuvchi bu masalani it bilan maxsus mashg'ulotda o'taydi.

Buyruq bu murakkab tovushli qo'zg'atuvchidir. Har bitta tovushda uchta qism (element) ajratsa bo'ladi:

- tovushning balandligi (past tovush – bas, baland tovush – tenor)
- tovushning kuchi (qattiq, o'rtacha, kuchsiz)
- tovushning tembri (har bitta odamga o'ziga xos tovush xususiyatlari)

It o'rgatuvchi bitta buyruqni har xil talaffuz bilan berishi mumkin. Shuning uchun buyruqlar talaffuz bo'yicha bo'linadi:

- oddiy (buyruqli) yetarli qattiq darajada aytiladi;
- qo'rqituvchi (majburlaydigan) – keskin, jiddiy ohangda;
- maqtoqli – erkalatish ohangida, sal cho'zib aytiladi.

O'rgatish jarayonida buyruqni har xil talaffuzda aytish katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, itlarda tahlil eshitish qobiliyati haddan tashqari rivojlangan, shuning uchun so'zlarning talaffuzi o'ziga o'zgarsa ham it uni sezadi. Shunga har xil talaffuzga loyiq itda shartli refleks paydo bo'ladi va o'rgatuvchiga uzoqdan itni aniqroq boshqarish uchun imkon yaratadi.

Buyruqlar kalta bo'lishi shart, ya'ni bir necha harfdan iborat bo'lishi kerak, masalan: "Izla" deb aytiladi, "Izlab top" emas. Kalta buyruq aniq va keskin chiqadi va bu itda shartli refleks tezroq paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Buyruq aniq, tushunarli va g'ayratli chiqishi kerak, lekin bo'sh va bir ohangda emas. Buyruqni boshqarish talaffuzi bilan itga murojaat qilish mumkin emas, bu holda itda qo'rquv paydo bo'ladi (passiv – himoyalaniş refleksi).

Ishora it o'rgatish jarayonida ko'radigan qo'zg'atuvchilar, ishora bu belgilangan qo'l harakatlari, ba'zan o'rgatuvchining butun badanining harakati hisoblanadi.

Ishora bilan itni boshqarish, it xizmat qilish vaqtida shartli reflekslarni ishora bilan uyg'otish uchun kerak. Undan tashqari ishora signal bo'lib, itga qaysi joyni qidirishni ko'rsatadi, apportirovkani va boshqa usullarni ko'rsatadi.

Ishora va buyruqlarni hamma mutaxassislar bir xil (standart) ishlatishi kerak.

14. It o'rgatishda qo'llaniladigan hid-shartli qo'zg'atuvchilar

Itning eng rivojlangan sezgi a'zolaridan biri bu hid bilish bo'lib, u orqali it har xil hidlarni ajrata oladi.

Tirik organizmlar (o'simliklar, hayvonlar va odam) va har xil mineral moddalar hid chiqaruvchi moddalar deb hisoblanadi. Tirik organizmlar hidi maxsus turg'unlik bilan ajralib turadi (ter hidi va h.k.), hidning tarqalishiga shamol katta ta'sir qiladi. Kiyim izlarida qoladigan odam hidi it o'rgatishda katta ahamiyatga ega. Har bitta odam faqat o'ziga tegishli individual hidga ega. O'ziga tegishli hiddan tashqari odamda vaqtincha tasodifiy hid bo'lishi mumkin. Bu hidlarga tabak hidi, duxi, sovun, poyafzal kremlari va kasb hidlari (odam ish jarayonida

qatyi) modda bilan ko'proq ishlasa o'sha moddaning hidi odamga urib qoladi) kiradi.

Shunday qilib, odam har xil hidlar yig'indisining namoyondasi bo'ladi. Bu hidlarning yig'indisi odamning umumiy hidini tashkil etadi.

O'rgatuvchi – qo'zg'atuvchilar kompleksi (to'plami)

It o'rgatish jarayonida it uchun o'rgatuvchi atrof-muhitdagi hamma qo'zg'atuvchilar ichida eng asosiy qo'zg'atuvchi hisoblanadi. Xizmat idarini tayyorlashda shartli reflekslar katta ahamiyatga ega. It o'rgatuvchi bir vaqtda itning hamma sezgi organlariga ta'sir etishi mumkin. Bu degani har xil shartli va shartiz qo'zg'atuvchilar ishlatish demakdir.

It uchun o'rgatuvchi – bu qo'zg'atuvchilar to'plamidir. Kompleks qo'zg'atuvchilar bir vaqtda itning bir necha sezgi organlariga ta'sir etishi mumkin

It o'rgatuvchi o'zining tashqi ko'rinishi bilan, bo'yi bilan, kiyimining shakli bilan, harakatlarning sifati, tovushi, chexrasi va hidi bilan itga ta'sir etadi. It o'rgatish jarayonida it o'z o'rgatuvchisining xususiyatlariga o'rganib qoladi. Bu o'rgatuvchilar kompleksi bilan it o'zining egasini boshqa begona odamlardan ajrata oladi. Bu qo'zg'atuvchilar kompleksiga bir vaqtda sharti reflekslar itda paydo bo'lishi mumkin.

Lekin, qo'zg'atuvchilar kompleksiga kirayotgan qo'zg'atuvchilarning nisbiy kuchi katta ahamiyatga ega. It o'rgatuvchining tovushi, uning harakatlari va individual hidi katta ahamiyatga ega.

O'rgatuvchi tovushining xususiyatlarini (kuchini, balandligini, tembrini) it tez ajrata oladi (differentsatsiya), it o'z o'rgatuvchisi bilan yaxshi muloqotda bo'lsa, faqat o'z egasiga bo'ysunadi. O'rgatuvchining xatti-harakatlari shartsiz qo'zg'atuvchilarni ishlatish bilan bog'liq (hasmani tortish, qamchi bilan urish, erkalab siypalash, ovqat bo'lagini berish va boshqalar).

O'rgatuvchi bilan it o'rtasida aloqa o'rnatish uchun o'rgatuvchining hidi katta ahamiyatga ega. Bu hidga itda mustahkam shartli refleks tarbiyalanadi va bu hidni boshqa hidlarning ichida aniq ajratadi.

Shunday qilib, o'rgatuvchi qo'zg'atuvchilar kompleksi (yig'indisi) bo'lib, uzoqdan it ustidan buyruqlar, ishoralar va o'zini umumiy hulqi bilan boshqarishni ta'minlaydi.

O'rgatuchi it uchun boshqalar ichida eng kuchli qo'zg'atuvchi bo'lib qolishi kerak. Hamma sharoitlarda ham it o'rgatuvchi itdan hamma talablarni bajarilishiga erishish majbur.

It xulqi ustidan to'liq hokimlikka, doim it bilan shug'ullanadigan, itni parvarishlagan va ovqatlantirgan odam erishadi.

It o'rgatish tajribasi shuni ko'rsatadiki, shartli reflekslar tezroq va mustahkamroq kompleks qo'zg'atuvchilarga paydo bo'ladi. Har bitta o'rgatuvchi itga bir vaqtda bir necha qo'zg'atuvchilar bilan ta'sir etishga harakat qilishi kerak. Masalan, bir vaqtda buyruq bilan ishora berilganda. Itlar talabni signallar alohida berilgandan ko'ra aniq bajaradilar,. O'rgatuvchining yordamchisi ham kompleks qo'zg'atuvchilar bo'lib, boshqa vazifani bajarsa ham, it o'rgatishda katta ahamiyatga ega.

It o'rgatishda kompleks qo'zg'atuvchilar ham shartli, ham shartsiz qo'zg'atuvchilar bo'lib ishlatilishi mumkin. Ham u, ham bu hollardan alohida qo'zg'atuvchilarga nisbatan kompleks qo'zg'atuvchilar itga katta ta'sir ko'rsatadi.

15. It o'rgatishda ishlatiladigan qo'zg'atuvchilarning nisbiy kuchlarning ahamiyati

It o'rgatishda ishlatiladigan shartli va shartsiz qo'zg'atuvchilarning nisbiy kuchini hisobga olish birdan bir shart hisoblanadi.

Birinchidan, shartli va shartsiz qo'zg'atuvchilar yetarli darajada kuchli bo'lishi kerak. It o'rgatish tajribasi shuni ko'rsatadiki, kuchli qo'zg'atuvchilar aniq va tez shartli reflekslar barpo qiladi, kuchsiz qo'zg'atuvchilar – sekin va noaniq bo'ladi.

Ikkinchidan, shartsiz qo'zg'atuvchilarning kuchi shartli qo'zg'atuvchilarning kuchidan ko'proq bo'lishi kerak. Shuning uchun it o'rgatishda shartsiz qo'zg'atuvchilar qilib ko'proq tashqi qo'zg'atuvchilar itning organizmiga ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilar ishlatiladi. Bu holatda shartli reflekslar tezroq ishlab chiqariladi va teskarisiga, qachonki shartli qo'zg'atuvchilarning kuchi shartsiz qo'zg'atuvchilarning kuchidan ko'proq bo'lsa. Shartli refleks paydo bo'lishi juda qiyin bo'ladi. Qo'zg'atuvchilardan foydalanilayotganda har doim itning individual xsusiyatlarini hisobga olish kerak: oliy asab faoliyatining turi, ustun reaksiyasi, yoshi, tayyorlangan darajasi va boshqalar.

Haddan tashqari kuchli qo'zg'atuvchilar istalmagan reaksiyalarni paydo qilishi mumkin: qo'rqqoqlik, agressivlik, umumiy yoki qisman tormozlanish va hatto asabning kasallanishi (nevroz).

O'rgatuvchiga qo'yiladigan talablar

It o'rgatishning muvaffaqiyati o'rgatuvchining itga ta'sir qila bilishiga bog'liq, bu o'rgatuvchi sifatida tayyorgarlik darajasi va unga biriktirilgan itga munosabatiga bog'liq.

Avvalambor o'rgatuvchi o'z ishini yaxshi ko'rib, qiziqishi kerak.

Har qaysi o'rgatuvchi og'ir-bosiq, jasoratli, ziyrak, jur'atli, o'ziga va itga nisbatan talabchan, maqsadiga yetishda qaytmas va chidamli bo'lishi lozim.

O'z ishini boshlashdan avval o'rgatuvchi nazariy jihatdan zarur bilimlarni mukammal o'zlashtirishi kerak.

Metodik va texnik tajribasi it bilan amaliy ishlar jarayonida egallanadi.

It o'rgatishda o'rgatuvchi doim o'z itini xulqining xususiyatlarini o'rganib borishi kerak. O'rgatuvchi it bilan bo'ladigan muloqotda o'zining harakatlarini oldindan o'ylab qo'yishi kerak va ishida izchil bo'lishi kerak. Itda biron shartli refleksni ishlab chiqarish uchun ta'sirni o'tkazishni va qaysi izchillikda bu usulni ko'rishni rejalashtirib qo'yishi kerak.

Butun amaliy mashg'ulotlar davomida o'rgatuvchi itning ishga bo'lgan qiziquvchanligini asrab qolishi kerak, bu degani o'rgatuvchining hamma ta'sirlariga it faol javob qaytarishi lozim bo'lgan bir holat.

It o'rgatish paytida o'rgatuvchi asablanmasligi kerak. O'zining shaxsiy xafagarchiliklarini itga o'tkazish mumkin emas. It o'rgatishdagi kamchiliklariga ham xafa bo'lish kerak emas. Bu kamchiliklarni vaqtida bartaraf etishga harakat qilish kerak.

16. It o'rgatishda yordamchining ahamiyati va unga qo'yiladigan talablar.

It o'rgatishda o'rgatuvchiga yordamchi asosan itda jaxldorlik, iz topish ishlarida biron narsa orqali o'sha narsaning egasini topish, biron joyni izlab chiqish usullarini o'rgatadi, itga kompleksli ta'sirlar o'tkazadi va shu bilan itda xizmat uchun kerakli javob reaksiyalarini uyg'otadi.

Yordamchining vazifasini bajarayotgan odam epchil, jasur, ziyrak bo'lishi va itdan qo'rqmasligi kerak. Iloji bo'lsa it o'rgatish ishini biladigan odamni yordamchi qilib olish kerak.

It bilan ishlashdan oldin yordamchi it xulqining xususiyatlari bilan tanishib chiqib va shunga qarab o'z harakatining rejalarini tuzib olishi kerak va o'z yo'lida o'rgatuvchi yordamchiga yollanma berishi kerak, unga aniq topshiriqlarni navbati bilan berishi va shartli signallar yordamida itga bildirmagan holda boshqarish kerak. Yordamchi sifatida har safar yangi, notanish odamni yollash kerak.

Chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar va ularning xarakteristikasi.

Itni har doimgi normal ishidan chalg'ituvchi me'yor xulqidan og'ishtiruvchi kuchli va g'ayri tabiiy qo'zg'atuvchilar **chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar** deb ataladi.

Begona qo'zg'atuvchilarning ta'sirida itning bosh miya qobig'ida tegishli markazlar qo'zg'aladi, shartli reflekslarning paydo bo'lishiga javobgar muskullari tormozlanadi hamda o'rgatuvchisining buyrug'i va ishoralariga harakat bildirmaydi ya'ni bunda it chalg'iydi.

Chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar o'z kelib chiqishi bilan ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

It organizmining o'zida paydo bo'ladigan ichki chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar shartli reflekslarni tormozlanishga, buyruq va ishoralarni bajarishga xalaqit beradigan qo'zg'atuvchilar ichki chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar deb hisoblanadi. Bulardan it organizmida biron kasallik bo'lsa, och yoki chanqagan bo'lsa, qovuq yoki yo'g'on ichak to'la bo'lsa, it o'zi yoki uning asabi charchagan bo'lsa va boshqalar sabab bo'lishi mumkin.

Tashqi chalg'ituvchi qo'zg'atuvchilar deb, tashqi muhitdan ta'sir etuvchi va itlarda shartli reflekslarning paydo bo'lishiga halaqit beruvchi qo'zg'atuvchilarga aytiladi. Bu qo'zg'atuvchilarga ko'proq yovvoyi va uy hayvonlari, qushlar, har xil baland tovushlar, shovqinlar, avtomobil harakati va boshqalar kiradi.

IX. It o'rgatishda tashqi va ichki omillarning ahamiyati

It o'rgatish va xizmat itlarining ishi atrof-muhit sharoitlaridan ajralmas holda o'tadi.

Xizmat itlari ishlaydigan sharoit doim o'zgaradi va doim itlarga har xil tashqi qo'zg'atuvchilar bilan ta'sir etadi va bu ta'sir itning xulqini o'zgartiradi.

Shu bilan birgalikda organizm hujayralarida, organlarida va umuman organizmda o'tayotgan fiziko-kimyoviy jarayonlar butun organizm holatini funksional o'zgaruvchanligiga sabab bo'ladi va shu bilan itning xulqiga ham ta'sir etadi. Lekin, bu tashqi va ichki o'zgarishlar noma'qul og'irlashuvchi omillar va itlarning ishini qiyinlashtiruvchi omillar deyish shart emas. Teskarisiga, it o'rgatishda yordam beruvchi, itlarning ishini yengillashtiruvchi faktorlar ham bor. Ularning uchun qaysi sharoitlar qiyinlashtiradi va qaysilari itlarning ishini yengillashtirishini bilish kerak.

1. Ustunlik qiluvchi reaksiyalarning tavsifi.

Itlarning individual xususiyatlari ularda u yoki bu ustunliklarga ega bo'lgan reaksiyalarni hosil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Ustunlik qiluvchi reaksiyalar deganda, itlarga u yoki bu qo'zg'atuvchilarning ta'sir qilishida hayvonning aniq namoyon bo'lgan harida uning javob hatti-harakatlaridagi ustunliklar tushuniladi.

Katta yoshli itlarda ustunlik qiluvchi reaksiyalarning 5 ta asosiy shakllarini qayd etilishi qabul qilingan:

1. Faol shakldagi himoyalanuvchi;

2. Sust shakldagi himoyalanuvchi;

3. Ozuqaviy;

4. Mo'ljal oluvchi;

5. Jinsiy - uning ustunlik qilishi qanjiqlarda kuyikish davrida, ko'ppaklarda esa yaqin orada kuyikayotgan qanjiq bo'lgan paytlarda ko'ry beradi.

Itlarning individual xususiyatlaridan tashqari ustunlik qilish reaksiyasini hosil qilishda hayvon parvarish qilinayotgan shart-sharoitlar katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, it bolalari do'q urish va tepkilash (xo'rlash) sharoitlarida tarbiyalansa, ularda sust shakllanuvchi himoyalanuvchi reaksiya hosil qilinadi. Agarda tarbiyalash sharoitlari o'zgartirilmasa, it bolalariga singdirilgan qo'rqqoqlik hissi bir umrga soqlanib qoladi. Sharoitlarning o'zgartirilishi bilan ustunlik qiluvchi reaksiyalar xususiyatlari ham o'zgarishi mumkin.

Itlardagi ustunlik qiluvchi reaksiyalar xarakterini bilgan holda it o'rgatuvchisining jonivorlarda u yoki bu shartli reflekslarni hosil qilishi oson kechadi. Itlardagi ustunlik qiluvchi reaksiyasi tavsifini aniqlashning ko'plab usullari mavjud. Eng ko'p tarqalgan usul quyidagi: it o'rgatuvchisi maxsus xizmat bo'limi boshlig'i bilan sinash vaqti (eng qulayi ertalab) va joyini belgilaydi hamda ikkita yordamchi

tayinlaydi. Tegishli yo'riqnoma berilganidan keyin maxsus xizmat bo'limi boshlig'i o'z yordamchilari bilan birgalikda belgilangan tadqiqot sinash? o'tkazish joyiga boradi va biror pana yerga (pichan g'arami, tig'iz butalar, tepalik va boshqalar ortiga) yashirinib oladi. 10-12 daqiqalardan keyin it o'rgatuvchisi o'rgatilayotgan it bilan keladi va hayvonni daraxt yoki yerga ko'milgan to'singa bog'lab qo'yadi hamda it yoniga ovqat solingan idishni qoldirib, o'zi pana joyga borib yashirinadi.

It o'zini yangi joyga moslashib, ovqat yeyishga kirishgan paytda yordamchilardan biri pana joydan chiqadi va itga 4-6 metr yaqin bo'lgan joydan o'tib, ikkinchi bir pana joyga borib turadi. So'ng qo'liga xivich ushlab olgan ikkinchi yordamchi pana joydan chiqib keladi va itga faol hujum qilib, ovqat solingan idishni tortib olish harakatiga tushadi. Bu kabi urinishlarni ikki-uch marotaba qaytargan yordamchi pana joyga borib turadi.

Bu tadqiqot natijasida ustunlik qilish reaksiyasining quyidagi asosiy belgilarni aniqlash mumkin:

1. It o'rgatuvchisining pana joyga yashirinishidan so'ng it o'zi uchun begona bo'lgan yangi joy sharoitiga tez moslashib, ovqat yeyishga kirishadi. Birinchi yordamchining it yonidan o'tishini faol ravishda vovillash bilan kuzatib qoladi. Ikkinchi yordamchining hamla qilishiga javoban it ham faol hujumga o'tadi va darg'azab holda vovillaydi. Bu – faol shakldagi himoyalaniş reaksiyasidir.

Shunday holatlar ham bo'lishi mumkinki, ikkinchi yordamchi itga hamla qilganda, hayvon unga darg'azab vovillab tashlanishi va bir vaqtning o'zida ovqatni o'qtin-o'qtin og'ziga olishi va yeyishi mumkin. Bu esa – ozuqaviy bilan birgalikda kelgan faol himoyalaniş reaksiyasi.

2. It o'rgatuvchisi pana joyga ketishi bilan it atrofga hadiksiragan holda nazar tashlay boshlaydi va o'qtin-o'qtin uvlab, ovqatdan tanovvul qiladi. Birinchi yordamchining o'tishi bilan it ovqatlanishdan to'xtab, hadik aralash tevarak atrofga qaraydi. Ikkinchi yordamchi yaqinlashganda esa, o'zini yon tomonga tashlab, dumini oyoqlari orasiga qisgan holda juftakni rostlab qolish harakatiga tushadi. Ikkinchi yordamchi uzoqlasha boshlasada, it yon atrofga qo'rqinch aralash nazar tashlashda davom etadi. Bu – sust shakldagi himoyalaniş reaksiyasi.

3. O'rgatuvchining uzoqlashishi hamon hayvon tezkorlik bilan idishga yaqinlashib, ovqatni qizg'anish aralash yeyishga tushadi. Birinchi yordamchining yaqinlashishi bilan ovqatlanish sur'ati tezlashib, yonidan o'tguvchini nigohi orqali kuzatib qoladi. Ikkinchi

yordamchining hamlaga javoban it keskin irillab, idishdan ajralmagan holda ovqatlanishda qizg'in davom etadi. Yordamchi idishni tortib olishga harakat qilganda esa it darg'azab irillab panjalari bilan ovqat solingan idishni hamla qiluvchidan uzoqlashtirishga kirishadi. Ikkinchi yordamchining qorasi o'chishi bilan it ovqatlanishda davom etadi. Bu – ozuqaviy reaksiyaning ustunlik belgisidir.

Itlarni o'rgatishda hamda qorovullik, soqchilik, qo'riqchilik, cho'ponlik va qidiruv xizmatlarini o'tashi uchun eng yaxshi it sifatida faol shakldagi himoyalaniş reaksiyasiga ega bo'lgan, ya'ni vazmin va badjahl itlar hisoblanishadi.

Ozuqaviy reaksiya belgilariga ega bo'lgan itlarni o'rgatish jarayonida oziq-ovqatlar bilan ta'sir etib, shartli reflekslarni osonlik bilan shakllantirish mumkin. Ammo bu kabi itlarda yerdan yoki begona kimsalarning qo'lidan ozuqa olishdan o'zini tiyish usulini o'rgatish juda mushkul bo'ladi.

Sust himoyalaniş reaksiyasiga ega bo'lgan itlar o'ziga alohida individual yondashishni talab etadi. O'zida sust himoyalaniş reaksiyasini namoyon qiladigan itlarni zaif tipli nerv faoliyatiga ajratish qabul qilingan. Bunday itlarni o'rgatishning ilojisi bo'lmasdan ular ayrim xizmat turlarini o'tash uchun yaramaydi deb hisoblanadi. Ammo akademik I.P. Pavlov bu kabi qarashlarning noto'g'ri ekanligini laboratoriya usulida isbot qilgan.

Akademik I.P. Pavlov nomidagi Evolyusion fiziologiya va patologiya institutida o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni bergan: 35 nafar sust himoyalaniş reaksiyasiga ega bo'lgan itlarning 16 tasi zaif tiplilarga, 19 nafari esa kuchli tipga mansub ekanligi ma'lum bo'lgan. Dinobarin, sust himoyalaniş reaksiyasi, biroq kuchli nerv sistemasiga ega bo'lgan itlardan, ularga mashq vaqtida to'g'ri yondoshilganda yaxshigina xizmat itlarini tarbiyalash mumkin bo'ladi. Bunday itlarda nafaqat umumiy-intizomiy, davriy buyruqlarga shartli reflekslarni hosil qilish, balki mashq qildirish yo'li bilan oliy nerv faoliyati negizida yotgan nerv sistemasining asosiy jarayonlarini va hayvonning tipologik xususiyatlarini yaxshilash nazarda tutiladi.

2. It o'rgatuvchining roli va uning hatolari.

Xizmat turlarining ko'p qirraligi (qorovullik, soqchilik, qidiruv, sanitar va boshq.) itlardan salomatlik va munosib tayyorgarlikni talab etadi. Bundan tashqari, it o'rgatuvchisi bergan og'zaki buyruqlar va

o'rgatish usullarining to'g'ri tuzilishi, tip xususiyatlarining ahamiyatlari va boshqalarga qattiq rioya qilish lozim.

It o'rgatuvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xato va nuqsonlar nafaqat o'rgatilayotgan itlarning xizmat ko'rsatish sifatini pasaytiradi, balki uni butunlay izdan chiqarishi ham mumkin.

Amaliyotda o'rgatuvchi tomonidan tez-tez yo'l qo'yiladigan nuqsonlar:

1. It o'rgatuvchining "o'tir!" degan buyrug'ini it bajarishdan bosh tortishi mumkin qachonki, shartli qo'zg'atuvchi (ovoz bilan beriladigan buyruq, test) ga nisbatan shartsiz qo'zg'atuvchi, ya'ni o'tirish vaqtida itning belidan qo'l bilan pastga bosish harakati oldinroq yuz bersa va shu kabilar.

2. O'rgatilayotgan itlarda u yoki bu usulni ko'p marotaba va uzluksiz takrorlash.

3. Agarada itga bajarish mumkin bo'lmagan talablar qo'yilsa, hayvon ish jarayonidan butunlay bosh tortadi.

4. Majburiy va taqiqlovchi talablarni noto'g'ri qo'llanganda itlar sustkash va kamharakat bo'lib qoladi.

5. Itlarning tip xususiyatlarini hisobga olmagan holda, it o'rgatuvchisi hayvonni majburlash va taqiqlash jarayonida it tizginidan kuchli tortish, siltash va boshqa qo'zg'atuvchilarni qo'llashi natijasida jonivorda qo'rqqoqlik hissi o'yg'onadi yoki u ish jarayonidan butunlay bosh tortadi.

6. Ovoz va ko'rish qo'zg'atuvchilari (ovoz chiqarib va qo'l bilan ko'rsatib beriladigan buyruqlar)ning bir xilligi buzilganligi va buyruq berish jarayoni aniq ijro etilmaganligi hayvon tomonidan buyruqning bajarilmasligiga olib kelinadi.

7. Itning jismoniy imkoniyatlari va salomatligini hisobga olmagan holda, jonivor majburlanganda va yoki unga nisbatan dag'al munosabatda bo'linganda hayvon buyruqni bajarishdan butunlay bosh tortadi.

8. Buyruqlarning aniq ijro etilmasligi yoki ularni ma'nodosh va hamohang so'zlarga almashtirish natijasida.

9. Itga nisbatan g'amxo'r va e'tiborli bo'lmaslik oqibatida it o'rgatuvchisi jonivorning panjalarini noxosdan bosib olsa yoki mashq jarayonida usullarni bajarish vaqtida it tasmasi bilan hayvonning boshiga ursa, unga kuchli og'riq yetkazish mumkin. Bu esa o'z navbatida hayvonda qo'rqqoqlik yoki it o'rgatuvchisiga nisbatan ishonchsizlik

hissini uyg'otadi, ya'ni itni to'g'ri o'rgatishga salbiy ta'sir etadigan noo'rin harakatlarning vujudga kelishini chaqiradi.

10. It hali buyruqni bajarmasidan turib, uni rag'batlantirish muloqo mumkin emas! Masalan, "yot!" degan buyruq berilsa-yu, ammo it o'tirsa, it o'rgatuvchi hayvonga biron-bir shirinlik hadya etmasligi lozim. Agarda bu paytda itga shirinlik berilsa, u holda bunday harakat itda "yot!" buyrug'iga nisbatan shartli refleksning noto'g'ri shakllanishiga olib keladi. Itdan berilgan buyruqqa nisbatan usulni bajarishni do'q urgan holda qayta buyruq berib mustahkamlab borish lozim bo'ladi. Agar it uni bajarmasa, it o'rgatuvchisi bevosita boshqa bir usulni qo'llashi, ya'ni itning yag'rinidan pastga bosgan holda, jonivorni talab etilgan buyruqni ijro etishga majbur etish kerak.

11. Aniq, ishlab chiqilgan buyruqlarni boshqa bir o'ylab topilgan buyruqlarga almashtirmaslik, masalan "yot!" degan buyruq o'rniga "uzala tush!" yoki "yonimga!" degan buyruq o'rniga "bu yoqqa kel!" buyruqlarini qo'llash tavsiya etilmaydi.

Itlarni o'rgatish jarayonida tajribasiz o'rgatuvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar uslubiy yoki texnik turlarga ajratiladi.

Uslubiy xatolar:

a) itlarni o'rgatish sistemasini yoki alohida usullarini noto'g'ri tuzish;

b) u yoki bu usullar talabini it tomonidan bajarmaslik sabablarini to'g'ri tahlil qilmaslik va ularni bartaraf etish uchun muhim qaror qabul qilalmasligi;

v) itlarning oliy nerv faoliyati tip xususiyatlarini bilmaslik va bundan kelib chiqqan holda, uning yoqimsiz harakatlarini o'z vaqtida bartaraf etishni eplay olmaslik.

It o'rgatuvchisining noto'g'ri xatti-harakatlari itda yoqimsiz munosabatlarning kelib chiqishiga zamin yaratishi mumkin. Masalan, it biron-bir molni to'daga qo'shish uchun haydab borayotgan bir paytda ancha kuchliroq bo'lgan qo'zg'atuvchi, ya'ni butalar orasidan otilib chiqqan tovushqon izidan quvlab ketishi. It o'rgatuvchisi "fu!" buyrug'ini berar ekan, bir vaqtning o'zida "yonimga!" degan buyruqni ham behosdan aytib yuboradi. It o'rgatuvchining oldiga chopib keladi va u jonivorni rag'batlantiradi. Bu paytda taqiqllovchi buyruq "fu!" go'yoki "yonimga!" degan buyruq bilan uyg'unlashib ketganday tuyuladi. Xuddi shu jiftlikda mazkur buyruqlar bir necha marotaba takrorlansa, "fu!" buyrug'i jonivor uchun "yonimga!" buyrug'ining ahamiyatini kasb etadi

va buning natijasida taqiqllovchi “fu!” buyrug‘i berilganda it o‘z xo‘jayini oldiga yugurib keladigan bo‘lib qoladi.

Hayvon u yoki bu buyruqni ikki marotaba bajarganidan keyin uchinchi marta aynan shu buyruqni bajarishdan bosh tortishi kabi holatlar ham bo‘lishi mumkin.

d) itlarda noo‘rin xatti-harakatlarni bartaraf etishda ularni haddan tashqari kuchli siltash hamda “fu!” buyrug‘ini ortig‘idan ko‘proq qo‘llash itlarning cho‘chib qolishiga olib keladi.

Og‘riqli qo‘zg‘atuvchi bilan uyg‘unlashmagan “fu!” buyrug‘i hayvonda shartli tormozlanishning so‘nishini vujudga keltiradi. “Fu!” buyrug‘ini haddan ziyod ko‘p ishlatish itlarda reaksiyaning susayishiga olib keladi. Bu buyruq og‘riqli qo‘zg‘atuvchi bilan hamohang qo‘llangan holda va zarurat tug‘ilgan paytlardagina qo‘llanishi mumkin.

ye) itda “yonimda” buyrug‘iga nisbatan shartli refleksni shakllantirishda jonivorni uzun arqonda yetaklab yurish tavsiya etilmaydi, chunki bu hol itda faqatgina uzun arqonda yurish shartli refleksini hosil bo‘lishiga olib keladi. Birgalikda yonma-yon harakat qilinganda, itning panjalarini noxosdan bosib olish hayvonda og‘riqqa shartli aloqadorlikning hosil bo‘lishini va keyinchalik “yonimda” degan buyruq unda og‘riq xosil bo‘lishini kutishiga va o‘rgatuvchining yonida yurishga hadiksirashiga olib keladi.

j) “Erkin!” buyrug‘iga nisbatan usullarni ishlab chiqishda it o‘rgatuvchisi sekinlik va sustkashlik bilan harakat qilsa, bu ham o‘z navbatida hayvonda sustkashlikni uyg‘otib, uning o‘zini tutishi va buyruqlarni ijro etishida o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Buyruqning aniq ijro etilmasligi esa, hayvonda shartli reflekslarning jadallik bilan shakllanishiga to‘sqinlik qiladi va shuningdek, undagi intizomning pasayishiga olib keladi.

X. Itlarni o‘rgatishning ayrim usullari

1. Itni o‘tirishga o‘rgatish.

Itlarni o‘tirtirish ularni maxsus tayyorlash uchun ishlatiladigan usullardan biri bo‘lib hisoblanadi.

“O‘tir” degan buyruq it o‘rgatuvchisining yonida yoki undan har xil uzoqlikda bo‘lganda ham bajarilishi mumkin. Uzoqroq masofada bo‘lganda “o‘tir” degan buyruq o‘ng qo‘lning harakati bilan bajariladi. Qo‘l bilan harakat qilib itni o‘tirtirish, ovoz berishning ilojisi bo‘lmaganda amalga oshiriladi, masalan: harbiy mashq paytida, shamol yoki yomg‘ir yog‘gan paytda.

Shartli qo'zg'atuvchi: "O'tir" buyrug'i beriladi hamda o'ng qo'l pastdan yuqoriga va oldinga, yelkadan biroz yuqoriroq ko'tariladi, bunda kaft yuzasi it tomoniga qaratiladi.

Shartsiz qo'zg'atuvchi: bo'yin tasmasini yuqoriga siltash bilan itning bel va dumg'aza qismiga bosish, shirinlik berish.

"O'tir" buyrug'ini bajarish o'rgatishning 5-6 kunidan boshlab bajarish kerak.

O'rgatish usuli va texnikasi.

O'tirtirish asosan kontrast usul yordamida bajariladi, ayrim paytlarda shirinlik bilan siylash usuli ham qo'llanilishi mumkin. bilan amalga oshiriladigan. "O'tir" buyrug'iga birlamchi shartli refleksni ishlab chiqish mashg'ulotlari osonlashtirilgan sharoitda o'tkaziladi. Kontrast (qarama-qarshi) usulda u quyidagicha bajariladi. O'rgatuvchi chap oyog'i oldida turgan itga burilib, o'ng qo'li bilan bo'yinidagi tasmani ushlaydi, chap qo'lining kaftini esa itning bel-sag'rin qismiga qo'yib bosishga tayyor turadi. Shundan so'ng "o'tir" degan buyruqni berib tasmani yuqoriga va orqaga tortadi hamda itning bel-sag'ri qismiga bosadi (27-rasm). It o'tirgandan keyin o'rgatuvchi "o'tir", "yaxshi" degan buyruqni yumshoq tovush bilan berib, uni o'tirgan holatda ushlab turib, siypalab shirinlik beradi. Shunday holatda itni 5-10 soniya ushlab turib, so'ng erkin harakatga ijozat beriladi. 2-3 daqiqadan keyin bu harakat yana qaytariladi.

Agarda it "o'tir" degan buyruqqa asosan o'tirib, shu holatda 10-15 soniya qolsa va o'rgatuvchi undan ikki qadam uzoqlashganda joyidan siljimasa, birlamchi shartli refleks o'zlashtirilgan deb hisoblanadi.



27 – rasm. Itni o'tqizish.

Shundan so'ng qo'l harakati bilan imo-ishora shartli refleksi ishlab chiqiladi va shu bilan birgalikda buyruq va imo-ishora shartli refleksi berkitilishi takomillashtiriladi.

Imo-ishora shartli refleksini ishlab chiqish mashki itni yotqizish bilan parallel olib boriladi. It yotgan holatda joylashgan bo'ladi. O'rgatuvchi it bo'yinbog'ining halqasini pastga qaratib itning oldingi tarafidan ikki qadam narida turadi, so'ng tasmani chap qo'lga olib sekin tortadi. Keyin o'ng qo'lini pastdan yuqoriga harakatlantirib tasмага uradi va shu payt "o'tir" degan buyruqni beradi. O'ng qo'lning harakati o'rgatuvchining boshi bilan baravar balandlikda to'xtatiladi. Bir daqiqa ushlanib qo'l tirsakda bukiladi, pastga tushuriladi va kaft o'ziga tortiladi. O'rgatuvchi o'ng qo'lni tushirib oldinga bir qadam qo'yib shirinlikni beradi va "yaxshi" degan so'zni aytadi. It bir necha vaqt o'tirgan holatda ushlanib, so'ngra sayr qilinadi.

It yotgan holatidan o'tirish holatiga o'tishiga to'g'ri erishmoq zarur. Agar it orqa oyoqlarini siljitmasdan o'tirib, oldingi oyoqlarini tagiga tortsa, itning harakati to'g'ri deb hisoblanadi.

Imo-ishora shartli refleksi ishlab chiqilgandan keyin, mashqlar sifati murakkablashtiriladi:

- Itni o'tirgan holatda saqlash vaqti uzaytiriladi;
- O'rgatuvchi va it orasidagi masofa uzoqlashtiriladi;
- Itni har xil holatdan o'tirishga majbur qilinadi, ya'ni bu usulning bajarilishi boshqa usullar bilan birgalikda olib boriladi.

O'rgatuvchi itda sabr-toqatni tarbiyalash uchun uni imo-ishora yoki buyruq bilan o'tirtirib, asta-sekinlik bilan uzoqlashadi va it joyidan qimirlamasligi uchun unga "o'tir", "yaxshi", degan buyruqlarni berib turadi. Agarda it joyidan qimirlasa, o'rgatuvchi "o'tir" degan buyruqni do'q ohangida berib uni yana oldingi joyiga o'tqazadi. O'rgatishning boshlanish davrida itning 15-20 soniya sabr-toqat qilishi yetarli bo'ladi, shundan so'ng itga shirinlik berib harakatini taqdirlab boshqa mashqga o'tish lozim (yotqizish, aporirovka, buyumni olib kelish).

Sabr-toqatlikni tarbiyalash bilan bir vaqtda o'rgatuvchi it bilan orasidagi masofani uzoqlashtirishi kerak. Boshida o'rgatuvchi itni kuzatib turish uchun undan tisarilib uzoqlashishi lozim (yuzi itga qaratilgan holda). Agarda it joyidan qimirlasa, uni darhol joyiga qaytarib "joying" degan buyruqni do'q ohangida berib yana o'tqizish kerak. Keyinchalik itdan uzoqlashish masofasini o'zgartirish lozim. Ya'ni it o'rgatuvchining yonida yoki uzoq masofada bo'lganda ham imo-ishora, buyruq bilan uni yotgan yoki turgan holatida o'tqizish lozim.

O'tqizish mashqi it erkin sayr qilganda, o'rgatuvchining yonida turganda, yoki u chaqirganda va boshqa holatlarda bajariladi. Mashqlarning oxirgi davrida it "o'tir" buyrug'ini yoki ishorani har qanday vaziyatda, bo'yin tovlamasdan bajarishi lozim. Keyinchalik it o'tirish buyrug'ini maxsus dressirovka (o'rgatish) paytida, bekami-kust va bo'yin tovlamasdan bajarishini ta'minlash lozim. Agar it har xil sharoitda bo'yin tovlamasdan birlamchi signaldan o'tirsa yoki o'rgatuvchidan 25-30 m masofada bo'lganda ham buni bajarsa va shu holatda 5 daqiqa tursa, ko'nikma hosil bo'lgan deb hisoblanadi.

O'rgatish jarayonida mumkin bo'lgan qoniqarsiz holatlar:

1. Shartsiz qitiqlovchini ishlatmasdan ko'p marta "o'tir" buyrug'ini takrorlash, chunki buning natijasida itda shartli refleks kech hosil bo'ladi.

2. Itni o'tirgan holatdan tez -tez chaqirib turish, shu holatda keraklicha ushlab turmasdan erkinlik berish natijasida it keyinchalik joyidan ruxsatsiz siljiydigan bo'ladi.

3. Chap qo'l bilan bel qismiga noto'g'ri bosish. Bunday holatda it birdaniga o'tirmaydi va qarshilik ko'rsatadi.

4. Itga nisbatan talabchan bo'lmaslik, o'rgatuvchi it sag'risini biror bir tarafga og'ishini yoki orqa oyog'ini oldinga o'tkazishini to'g'rilamaslik.

2. Itni yotishga o'rgatish.

It yotqizish usulini bajarishi maskirovka maqsadida yoki ot ustida maxsus egarda transportirovka qilish uchun kerak.

Shartli qo'zg'atuvchilar: "Yot" degan og'zaki buyruq va yelka chizig'idan ozroq yuqoriroqdan va oldinga uzatilgan o'ng qo'lning keskin tushirilishi. Shartsiz qo'zg'atuvchilar: it yag'riniga bosish, oldingi oyoqlarini oldinga tortish bilan birgalikda, tasmani siltash, shirinlik berish.

Shartli reflekslar passiv himoyalaniş va ovqat reaksiyasiga qarshi shifab chiqiladi. Yotqizishni, "o'tir" degan buyruqning shartli refleksini shifab chiqilgandan keyin bajarish mumkin.

O'rgatish usuli va texnikasi.

Itni yotqizish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- a) "siltash", "chalish" – it ikkala oldingi oyog'ini oldinga cho'zishi uchun ularning orqa tarafidan sekin oldinga qaratib urish bilan birga yag'ringa bosish;
- b) ikkala oyog'ini oldinga tortib yag'ringa bosish.

v) bo'yin tasmasini pastga va oldinga tortib yag'ringa bosish.

g) shirinlikni qo'llash: o'ng qo'ldagi shirinlikni itga ko'rsatib, qo'lni shirinlik bilan oldinga va pastga harakatlantirib "yot" degan buyruqni qaytarish.

Oxirgi ikkita usulni, oyoqlarga qo'lni tegizishga qo'ymaydigan, haddan tashqari jaxldor itlarni o'rgatishda qo'llaniladi.

Birinchi va ikkinchi usullarda mashqlar quyidagicha olib boriladi:

O'rgatuvchi itni chap oyog'i oldiga o'tqizib, unga qarab yuzi bilan buriladi va yoniga o'tiradi yoki chap tizzasiga turadi. Itning laqabini aytib, "yot" degan buyruqni beradi, shundan so'ng chap qo'li bilan uning yag'riniga bosadi hamda bir vaqtning o'zida o'ng qo'li bilan itning old oyoqlarini oldinga "chaladi" yoki tortadi. It yotgandan keyin, uni "yaxshi" degan so'z bilan taqdirlash, uni silab shirinlik berish lozim.

Itni yotgan holatda 5-10 soniya ushlanadi, keyin unga shirinlik beriladi va erkin qo'yib yuboriladi. Agarda it yotgandan keyin birdaniga turishga harakat qilsa, "yot" degan buyruq jiddiy ohangda beriladi va uning yag'riniga bosiladi. Bir oz tanaffusdan keyin mashq qayta takrorlanadi (28 -, 29 - rasmlar).

Agarda yotqizish tasma yordamida amalga oshirilsa, bo'yinboqning xalqasi pastga qaratilishi lozim.



28 - rasm. Itni yotqizish. Birinchi harakat.



29 – rasm. Itni yotqizish. Ikkinchi harakat.

Shartli refleks ishlab chiqilishi bilan itga nisbatan qo'yiladigan talablar oshiriladi: yotgan holatda kerakligicha saqlanilishi va o'rgatuvchi bilan it orasidagi masofa uzoqlashtiriladi.

Agarda it birlamchi "yot" buyrug'iga asosan yotib, shu holatda o'rgatuvchi ikki qadam uzoqlashishiga qaramasdan 15-20 soniya saqlansa, unda ishorali shartli refleksini ishlab chiqishga o'tiladi. Buning uchun itni o'tqazib va undan bir-ikki qadam uzoqlashib, it tarafga o'g'irilish kerak. O'rgatuvchining chap qo'li bilan tasma tortiladi, o'ng qo'li oldinga va yuqoriga bosh balandligigacha ko'tariladi, ko'tarilgan o'ng qo'l tushirilishi vaqtida, bo'yin tasmasi tortilib "yot" degan buyruq aytiladi va it yotishga majburlanadi (30 - rasm).



30 – rasm. Itni yotqizish ishorasi.

Bunda o'rgatuvchi bo'yin tasmasini pastga tortish uchun avval enkayishi kerak. It yotishi bilan unga shirinlik berilib "yaxshi" degan buyruq bilan siylab, siypalash kerak. Imo-ishora bilan itni yotqizish bir necha marta qayta bajariladi.

Imo-ishora shartli refleksini ishlab chiqishda uni o'rgatish bilan parallel holda murakkablashtirish zarur, ya'ni:

- a) Itning yotgan holatda ushlab turilishi ikki-uch daqiqaga ko'paytiriladi;
- b) O'rgatuvchi va it orasidagi masofa uzoqlashtiriladi;
- v) Itni har xil holatdan yotqizishga intilinadi.

Murakkablashtirish tamoyilining ketma-ketligini saqlagan holda, u dastlab o'tqazish buyrug'idan bajariladi, lekin bunda albatta it tanasini to'g'ri ushlashiga e'tibor berish lozim. It shu holatda ushlab turilgandan keyin, unga albatta shirinlik beriladi. It har xil ketma-ket bajariladigan harakatdan keyin avvalgi joyidan jilmasdan, hamma vaqt to'g'ri holatni saqlashini talab qilish kerak. Itning masofadan boshqarilishi alohida buyruq va imo-ishora bilan amalga oshiriladi.

O'rgatish davrining yakunida barcha kerak bo'lgan ko'nikmalarni it so'zsiz bajarishiga erishmoq lozim. Agar it 25-30 m masofadan berilgan buyruqqa itoatlik bilan yotsa va bu holatda 5 daqiqa saqlansa, ko'nikma ishlab chiqilgan bo'lib hisoblanadi.

3. Itni o'rnida tik turishga o'rgatish.

Itni tik turishga o'rgatish tashqariga chiqarish, tozalash, maxsus anjomlarni kiygizish va ekstererga to'g'ri baho qo'yish uchun qo'llaniladi.

Shartli qo'zg'atuvchilar: "Tik tur" buyrug'i beriladi yoki chap qo'l kafti yuqoriga qaratilgan holda oldinga yo'naltirilib, yelka balandligida ko'tariladi (31 – rasm).



31 - rasm. Itni tik turishga qaratilgan ishora.

Shartsiz qo'zg'atuvchilar: chap qo'l bilan itning qorniga ta'sir qilish, bo'yin tasmasini tortish, shirinlik berish va siypalash. Bu ko'nikma passiv himoya va ozuqa reaksiyasida ishlab chiqiladi.

Itni tik turishga o'rgatishni "o'tir", "yot" buyruqlarga shartli reflekslar ishlab chiqilganidan keyin boshlash lozim va boshqa umumiy o'rgatish usullar bilan birga olib boriladi.

O'rgatish usuli va texnikasi.

"Tik tur" buyrug'iga shartli refleksning ishlab chiqilishi atrof-muhit murakkab bo'lmaganda amalga oshiriladi. Bu ko'nikma qarama-qarshi usulda ishlab chiqiladi.

O'rgatuvchi o'tirgan itning o'ng tarafidan joylashib "tik tur" degan buyruqni beradi va 1-2 soniya o'tgach o'ng qo'li bilan bo'ynidagi tasmani oldinga qaratib siltaydi, shu bilan bir vaqtda chap qo'li bilan itning qorniga ta'sir qilib uni ko'taradi. It tik turgandan o'rgatuvchi uni siypalab, "tik tur", "yaxshi" degan buyruqni qaytarib shirinlik beradi.

Agarda it o'tirishga harakat qilsa, o'rgatuvchi yana chap qo'lini it qornining tagiga o'tkazib, uni tik turgan holatda ushlab turadi va "tik tur" degan buyruqni qaytarib turadi. It 5-10 soniya shunday holatda ushlab turilgandan keyin sayr qilinadi. "Tik tur" buyrug'iga shartli refleks ishlab chiqilishida, it o'rgatuvchi yonida qimirlamay turishi ham parallel holda ishlab chiqiladi.

Agarda it "tik tur" buyrug'iga binoan o'rnidan tursa va shu holatda 15-20 soniya saqlansa, unda imo-ishora shartli refleksini ishlab chiqishga o'tish mumkin. Imo-ishora shartli refleksini ishlab chiqish maqsadida, o'rgatuvchi itni bir qadam nariga o'tkazib va o'ng qo'li bilan "tik tur" imo-ishorasini ko'rsatib "tik tur" buyrug'ini aytishi lozim. It turgandan uni shu zahotiyoq shirinlik bilan siylash va siypalash kerak. Itga o'z maqsadini to'liqroq anglatish uchun o'rgatuvchi "Tik tur" imo-ishora va buyruq bilan bir vaqtda it bo'ynidagi tasmani o'z tarafiga siltash lozim.

O'rgatuvchi itdan uzoq turganda uning sabr-toqatini ishlab chiqish uchun mashq, o'tqazish va yotqizish mashqlarni o'rgatish tartibida olib boriladi. Tik turgan it joyidan o'rgatuvchi tomoniga intilishini e'tiborga olish kerak, shuning uchun itdan masofani asta-sekin uzoqlashtirish lozim. Keyinchalik itni har xil holatda tik turishiga erishish kerak. Bundan tashqari uni buyruq yoki imo-ishora bilan zinapoya yoki bolalarda harakat qilgan vaqtda to'xtab turishiga o'rgatish kerak bo'ladi.

Itni tik turishidagi holatlarini doimo to'g'rilab borish kerak. Tik turishning to'g'ri holati - it oldingi va orqa oyoqlarini to'g'ri va tekis ushlaydi, tanasini yaxshi cho'zadi, boshini tik ushlaydi.

Agar it o'rgatuvchining buyrug'ini va imo-ishorasini tashqi muhitning har xil sharoitida bo'yin tovlamasdan bajarsa, tanasini to'g'ri

ushlab, shu holatda besh daqiqa tursa, tik turish ko'nikmasi ishlab chiqilgan bo'lib hisoblanadi.

O'rgatuvchini mumkin bo'lgan xatolari.

1. Chap qo'l bilan qorniga haddan tashqari kuchli bosish yoki urish natijasida itda bunday holatga qarshi himoya reaksiyasining paydo bo'lishi.

2. Bo'yin tasmasini kuchli siltashda it nafaqat turish, balki joyidan siljishi ham mumkin.

3. Tik turgan itni tez-tez yoniga chorlash, undagi sabr-toqatlikning susayishiga olib keladi.

4. Itni emaklashga o'rgatish.

Itning emaklashi xizmatni olib borish vaqtida qo'llaniladi. Xizmatchi it o'rgatuvchining imosi bo'yicha u bilan birgalikda yoki o'zi emaklab kelishi lozim.

Shartli qo'zg'atuvchilar: "Emakla" buyrug'i, o'ng qo'l bilan bajarila-digan imo-ishora va o'rgatuvchining emaklash harakati.

Shartsiz qo'zg'atuvchilar: itning bo'yin tasmasini oldinga tortib, yag'rin qismiga bosish, shirinlik berish va siypalash.

Bu ko'nikma passiv himoya va ozuqa reaksiyasida ishlab chiqiladi.

O'rgatish usuli va texnikasi.

"Emakla" degan buyruqqa shartli refleksni ishlab chiqish uchun tekis, begona narsalardan holi maydoncha topiladi. O'rgatuvchi "yot" degan buyruqni berib, itni o'ziga nisbatan chap tarafga yotqizadi. Shundan so'ng u itning tasmasini o'ng qo'li bilan bo'yinbog'iga yaqinroq joyidan ushlab va chap qo'lini itning yag'riniga sekin qo'yib, "emakla" buyrug'ini beradi hamda o'zi oldinga harakat qilishni boshlaydi va itni tasmasi bilan tortadi (32 - rasm).



32 - rasm. O'rgatuvchining it bilan birgalikda emaklashi.

Boshida it turishga harakat qiladi. Bunday hollarda o'rgatuvchi "emakla" degan buyruqni berib, itni yag'riniga sekin bosadi va ko'tarilishiga qo'ymaydi. Agarda it ko'tarilmasdan emaklashni davom

etirsa, o'rgatuvchi "emakla", "yaxshi" degan buyruqni aytib, shirinlik beradi va siypalaydi. Emaklash itni tez charchatadi, shuning uchun birinchi darslarda bir-ikki metr dan ziyod emaklatish maqsadga muvofiq emas. Itda "emakla" degan buyruqqa shartli refleks ishlab chiqilsa, u 10-12 metrgacha masofani emaklab, shartsiz reflekslarning ta'siridagi usulni bajaradi.

Imo-ishoraga shartli refleksni ishlab chiqish quyidagicha amalga oshiriladi. O'rgatuvchi itga qaragan holda undan orqasi bilan tisariladi, o'ng qo'lini tizzadan pastga tushiradi va panjani silkitib "emakla" degan buyruqni qayta-qayta takrorlaydi. Agar it bir necha qadam emaklasa, unga birdaniga shirinlik berib taqdirlash lozim. Yoki quyidagi usuldan ham foydalanish mumkin: panjani silkitish bilan birgalikda chap qo'lidagi bo'yin tasmasini o'ziga qaratib tortish. Bu mashqni shirinlik berish bilan ham amalga oshirish mumkin, buning uchun qo'l panjasida shirinlikni ushlab, uni silkitish lozim. Keyinchalik asta-sekin emaklash masofasini uzaytirish mumkin.

Shartli refleks ishlab chiqilgandan keyin o'rgatuvchi it bilan birgalikda emaklab uni buyruq yoki imo-ishora bilan boshqaradi. Shu bilan birgalikda itni yotgan, o'tirgan, harakat qilgan vaqtida ham uni emaklashga majbur qilib turish kerak.

O'rgatuvchi yotgan holatda itni buyruq yoki imo-ishora bilan boshqarishni puxta egallashligi katta ahamiyatga ega. Agar it o'rgatuvchining birinchi signali bo'yicha yoki u siz 15-20 m masofani vaqti-vaqtida dam olib yana emaklashni boshlasa, unda emaklash ko'nikmasi ishlab chiqilgan deb hisoblanadi.

O'rgatuvchining mumkin bo'lgan xatolari.

1. Mashg'ulotlar o'tkaziladigan joyda o'tkir sanchuvchi jihamlarning bo'lishi, bunday holda it emaklashdan bosh tortadi.

2. Itni barvaqt emaklashga o'rgatish, ya'ni it yotgandan keyin toqat qilib qimirlamay yotishni yaxshi ishlab chiqmaslik. Bunday hollarda it bir joyda yotmasdan, emaklashga harakat qiladi.

5. Itni narsani olib kelishga o'rgatish (aportirovka).

Itni aportirovkaga o'rgatish umumiy dressirovkaning asosiy usuli bo'lib u maxsus dressirovkaga tayyorlash bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'rgatuvchining birlamchi signali bo'yicha it bosh tortmasdan narsalarni talab topib keltirib berishi lozim.

Shartli qo'zg'atuvchilar: buyruqlar – "aport", "olib kel", "ber", "isla" va imo-ishora sifatida o'ng qo'lni tashlangan narsa tarafga yo'naltirish.

Shartsiz qo'zg'atuvchilar: aportirovka buyumi, shirinlik, silash.

Itlarda harakat qiluvchi narsalarni ushlab olish tug'ma reaksiyasining mavjudligi aportirovkani ishlab chiqishning asosi bo'lib hisoblanadi. Bu reaksiya ozuqa reaksiyalarining biri bo'lib, u itlardagi qochib ketadigan hayvonni quvib ushlashga intilishning ifodasi bo'lib hisoblanadi. Itlarni aportirovkaga o'rgatishni boshlashdan oldin, u bilan aloqani tiklash va "sayr qil", "menga", "o'tir" buyruqlariga shartli reflekslar ishlab chiqilishi kerak. Apportirovka mashqi keyinchalik o'rgatishning butun davri mobaynida ham davom etiladi.

O'rgatish usuli va texnikasi.

Itni aportirovkaga o'rgatishdan oldin aportirovka buyumini tayyorlash kerak. Uni uzunligi 20-25 sm va diametri 6-7 sm keladigan daraxt shohi yoki yog'ochdan tayyorlash mumkin. Uning o'rta qismi 3-4 sm gacha yunilib, gantel shakli beriladi. Bunday buyumning o'rta qismini it yaxshi ushlaydi. Iloji boricha aportirovka buyumlarini temir yoki yumshoq materiallardan yasamaslik kerak, chunki birinchisi jag'larga og'riq keltirsa, ikkinchisini it tishlari bilan yirtib tashlaydi. Itning o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni aportirovka buyumiga javob berish darajasini e'tiborga olib, har xil o'rgatish usullarini qo'llash mumkin.



33 - rasm. Itda aportirovka buyumini olishga qiziqishni chaqirish.

Ko'pgina itlarda shirinlik bilan siylash usuli qo'llaniladi. Bu mashqni ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) narsani "jonlantirmoq";

b) itning ozuqaviy qitiqlanishga qo'zg'alishi (suyak, lattaga o'ralgan go'sht va boshqalar). Bu usul aportirovka buyumiga javob bermaydigan itlarda qo'llaniladi.

Birinchi usulda o'rgatish quyidagicha olib boriladi: it kalta tasamada turadi. O'ng qo'lida narsani ushlab o'rgatuvchi it ko'zining oldida u bilan har xil harakatlar qilib "aport" degan buyruqni beradi (33 - rasm). Narsaning harakati ko'pchilik itlarda uni ushlab olish reaksiyasini tug'diradi. It narsani ushlab olishi bilan urgatuvchi "aport", "yaxshi" buyruqlarni beradi va narsani o'ziga qarab tortadi, buning bilan u it buyumni kuchliroq ushlashini ta'minlaydi. 5-6 soniyadan so'ng o'rgatuvchi "ber" degan buyruqni berib o'ng qo'li bilan narsani tortib oladi, chap qo'li bilan esa itga shirinlik beradi (34 - rasm).



34- rasm. O'rgatuvchining itdan aportirovka buyumini olish.

Agar it narsani qo'ldan yaxshi ushlab oladigan bo'lsa, unda o'rgatuvchi narsani o'zidan 2-3 m uzoqroqqa tashlab, "aport" buyrug'ini beradi va u bilan birga narsa tomoniga qarab harakatlanadi va "aport" degan buyruqni berib boradi. It narsani ushlashi bilan o'rgatuvchi "yaxshi", "aport" buyrug'ini berib yana orqasiga qaytadi. Agar it narsani (buyumni) uning oldiga olib kelsa, u "ber" degan buyruqni berib, uni tortib oladi va itga shirinlik beradi.

It o'rgatuvchining oldiga yaqinlashganda narsani yerga tashlashiga yo'l qo'ymaslik kerak. O'rgatuvchi har doim narsani o'z qo'li bilan olishga ulgurishi kerak, shuning uchun o'rgatuvchi itni o'tqazib qo'shimcha "Ber" og'zaki buyrug'ini beradi (35 - rasm).

Ayrim itlar tashlangan yoki yotgan narsani olmasligi mumkin. Hunday vaqtda narsani "jonlantirish" lozim, ya'ni qo'li yoki oyog'i

bilan narsani chetga tashlash kerak, bunday harakat itda narsa orqasidan chopishga va uni ushlab olishga undaydi.



35 - rasm. Itni aportirovka buyumi bilan o'tqizish.

Ayrim itlar yog'ochdan yasalgan narsaga e'tibor bermaydi. Bunday paytda aportirovka buyumi itni qiziqtiradigan narsadan tayyorlanadi. Masalan, latta, rezin, charmdan yasalgan yoki yaltiroq narsani qo'llash mumkin. Kerak bo'lganda qitiqlovchi sifatida ozuqaning hidi bor narsalar: lattaga o'ralgan go'sht, suyak, go'sht yoki go'shtga to'ldirilgan karton naycha ishlatiladi. Go'shtning hidi ozuqa reaksiyasini chaqiradi va aportirovka buyumini ushlashga undaydi.

Agarda it "aport" (olib kel) buyrug'iga javob bersa va 3-4 qadam nariga tashlangan narsa orqasidan dalillik bilan yugursa hamda uni o'rgatuvchiga olib kelsa, birlamchi shartli refleks ishlab chiqilgan deb hisoblasa bo'ladi.

Keyinchalik quyidagi mashqlar bajariladi:

- a) imo-ishoraga shartli refleksni ishlab chiqish;
- b) narsani tashlash masofasini uzoqlashtirish;
- v) har xil narsalarga itni aportirovka qilishga o'rgatish;
- g) aportirovkadan oldin itda toqatlilik bo'lishini ishlab chiqish;
- d) narsani ushlab o'rgatuvchining oldida o'tirish ko'nikmasini ishlab chiqish;
- ye) buyruq yoki imo-ishoraga javoban izlash ko'nikmasini ishlab chiqish.

Barcha mashqlar parallel olib boriladi. Faqat ular murakkabligiga qarab ketma-ket qo'shilib turadi. Eng avvalo imo-ishoraga shartli refleks ishlab chiqilishi zarur. Buning uchun narsani ulotqirib, it ushlab turiladi, shundan so'ng imo-ishora beriladi va uni "aport" buyrug'i bilan tasdiqlab, it narsa tarafiga yo'naltiriladi.

XI. GLOSSARY

O'zbek tili	Ingliz tili	Rus tili	Ma'nosi
Antiseptika	antiseptica	Антисептика	jarohat patologik tuzilmasidagi yoki organizmdagi mikroblarni yo'qotish yoki miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar
Aseptika	aseptica	асептика	jarohat va u bilan kontaktda bo'ladigan bog'larni, asbob, obyektlarda va ma'lum bo'shliqqa tushishi mumkin bo'lgan mikroblarga qarshi qo'llaniladigan amaliy ishlar kompleksi.
Artalash	castration	Кастрация	bu jinsiy bezlar funksiyasini sun'iy yul bilan tuxtatish
Albinizm	Albinism	Альбинизм	terining, mo'ynaning, ko'zning irisining pigmentatsiyasining konjenital etishmasligi
Aport	Fetch	"Апорт"	itni biror narsani olishga undaydigan buyruq
Amputatsiya	amputation	ампутация	(lot. Amputare – kesish, kesib tashlash) ma'lum bir a'zoni (organi) yumshoq to'qimalari va suyaklar bilan birgalikda kesib olib tashlash
Agressivlik	Aggressiveness	Агрессивность	Hayvonning qo'zg'aluvchanligi va g'azabining kuchayishi (ko'pincha noto'g'ri mashg'ulot natijasi)
Allellar	Alleles	Аллели	Gomolog xromosomalarining bir xil hududlarida joylashgan juft genlar. Irsiy xususiyatlarning shakllanishi
Allyur	Gait	Аллюр	hayvonlarning, jumladan, itlarning harakat qilish usuli. Yurish, amblem, trot, gallop, karer bor
Bachadon	uterus	матка	uterus s. metra kovak organ bo'lib, unda homila

			rivojlanadi. Bachadon uch qavatdan: ichki – shilimshiq parda, o'rta – muskul parda va tashqi – seroz parda qavatlarda iborat.
Dabba (churra)	hernia	грыжа	qorin bo'shlig'idagi organlarni qursoq parda bilan birgalikda qorin devoridagi anatomik va patologik teshiklar orqali terini ostiga tushishi
Desmurgiya	Desmurgy	десмургия	(yunon. Desmos-bog'lash, bog'larni, ergon-usul, ishi) bog'larni to'g'risidagi ta'limot bo'lib, tanani ma'lum sohasiga, (yallig'langan joyga) bog'larni ishlatish (m. Suyak singanda va h.k.)
Dikain	Dicain	дикаин	sintezlab olinadigan, oqsarg'ish kristall kukun. Suvda va spirtida eriydi, qaynatilganda parchalanmaydi. Anesteziyalovchi ta'siri novokaindan 10-15 baravar ortiq, zaxarli ta'siri 10 baravar. Shilliq pardalar orqali yaxshi shimiladi, ko'pincha yuzaki og'riqsizlantirish uchun ishlatiladi
Doka	tissue	марля	(tela) paxta iplaridan to'qiladigan mato, ikki turga bo'linadi: yog'sizlantirilgan, ya'ni oq va yog'sizlantirilmagan, ya'ni sariq. Birinchisi suyuqlikni yaxshi shimiydi, bir soat ichida 199,7 %.
Jinsiy a'zo	Penis	половой член	penis murakkab tuzilgan bo'lib, muhim vazifani bajaradi, urug'donda tayyorlangan jinsiy xujayralarni ugochi hayvonlarni jinsiy organiga kiritish,

			shuningdek, siydik chikarish uchun xizmat kiladi
Immobilizatsiya	immobilization	иммобилизация	shikastlangan soxa yoki gavdaning qaysidir bir qismining qimirlashini bartaraf qilish va tinch holat yaratishdir
Infektsiya	infectious	инфекция	bu hayvon organizmida unga tushgan mikroorganizmlarga qarshi faol kurash xodisasining yig'indisi.
Infiltratsion anesteziya	infiltration anesthesiy	инфильтрационная анестезия	operatsiya qilinadigan joydagi to'qima qatlamlarini anestetik moddalariga to'yintirish.
Autbridging	Outbreeding	Аутбридинг	qarindosh bo'lmagan (5 avloddan ortiq umumiy ajdodlarga ega bo'lmagan) bir xil zotli hayvonlarni kesib o'tish
Bonitirovka	Auditing	Бонитировка	itlarning tashqi ko'rinishi, xizmat ko'rsatish (ovchilik) sifatleri, kelib chiqishi va naslchilik sifatleri asosida har tomonlama baholanishi. Bu ko'rgazmalarda kamida "juda yaxshi" reytingini olgan itlarga tegishli.
Qo'shlar	Brows	Брови	simli sochli itning ko'zlari ustida tutam hosil qiluvchi, qattiq, ipsimon sochlar
Bulldog yoki bulldog tishlashi	Bulldog or bulldog bite	Бульдожина, или бульдожий прикус	Bosh suyagining yuz suyaklarining qisqarishi va rivojlanmaganligi sababli nafaqat kesuvchi, balki pastki jag'ning kaninlari ham yuqori kesuvchi tishlar chizig'idan tashqariga keskin chiqib turadigan tishlarning holati.
Uyq'unlik	Harmony	Гармоничность	mutanosiblik, itning alohida maqolalarining mutanosibligi
Genomik mutatsiyalar	Genomic mutations	Геномные мутации	shaxslarning karyotipidagi xromosomalar sonining o'zgarishi
Genotip	Genotype	Генотип	xromosomalarda lokalizatsiya qilingan organizmning barcha genlarining yig'indisi, uning

			irsiy moddiy asosi
Genofond	Gene pool	Генофонд	ma'lum bir populyatsiyani (zotni) tashkil etuvchi shaxslarda mavjud bo'lgan genlar to'plami.
Gomogrn organizm	Homogeneous organism	Гомогенный организм	tana hujayralarida ma'lum bir allel juftining bir xil genlarini tashuvchi shaxs.
Degelmintizatsiya	Deworming	Дегельминтизация	gelmintlarni davolash va atrof-muhitni gelmintlarning (qurtlarning) tuxumlari va lichinkalari bilan ifloslanishidan himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.
Dezinseksiya	Disinsection	Дезинсекция	turli kasalliklarning (burga, shomil va boshqalar) patogenlarini tashuvchi bo'g'im oyoqlilarni yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.
Dressirovka	Dog training	Дрессировка	hayvonlarni ma'lum sharoitlarda xizmat ko'rsatish, ov qilish va hokazolar uchun zarur bo'lgan murakkab, xilma-xil harakatlarni bajarishga izchil, maqsadli o'rgatish.
Tish formulasi	Dental formula	Зубная формула	itdagi har xil turdagi va maqsadli tishlar soni (kesishlar, kaninlar, premolarlar va molarlar); Ular hayvonda turga xos tishlarning butun to'plami (42) bo'lsa, to'liq 3. F. va ba'zi tishlari yo'q bo'lganda to'liq bo'lmagan ni ajratadilar.
Indekslar	indexes	Индексы	hayvonning fizikasini tavsiflovchi raqamli qiymatlar. Muayyan indeksni hisoblash uchun siz anatomik jihatdan bog'liq o'lchovlarni olishingiz kerak, masalan, format indeksini hisoblash uchun - tananing uzunligi va

			quruqlikdagi balandlik va boshqalar.
Instinkt	instinct	Инстинкт	shartsiz reflekslarning murakkab zanjiri bo'lgan ma'lum bir hayvon turiga xos bo'lgan tug'ma xatti-harakatlar shakli. U organizmlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida hosil bo'ladi va ularning yashash sharoitlariga moslashish shakllaridan biridir
Kariotip	Karyotype	Кариотип	Xromosomalarning diploid to'plami, xarakteristikalar to'plami (soni, o'lchami, shakli, tuzilish xususiyatlari). Karyotip turning eng muhim sitogenetik xususiyati hisoblanadi, chunki u o'ziga xoslik va doimiylik bilan ajralib turadi, mitoz va meioz mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlanadi. Karyotipning o'zgarishi faqat xromosoma va genomik mutatsiyalar natijasida mumkin.
Aktalash	castration	кастрация	erkaklarda moyaklar va ayollarda tuxumdonlar va bachadonni olib tashlash uchun jarrohlik operatsiyasi (ovariohisterektomiya). U naslchilik qiymatiga ega bo'lmagan hayvonlarni ko'payish sohasidan chiqarib tashlash uchun amalga oshiriladi. Mamlakatimizda u amalda qo'llanilmaydi
Konstitutsiya	Constitution	Конституция	hayvon tanasining umumiy tuzilishi, shu jumladan anatomik tuzilish xususiyatlari, fiziologik jarayonlar va yuqori asabiy faoliyat. Konstitutsiyaning bo'sh, qo'pol, kuchli, quruq va nozik turlari mavjud
Kriptorxizm	Cryptorchidism	Крипторхизм	bir yoki ikkala moyakning

			skrotumga tushmasligi (nuqson meros bo'lib, diskvalifikatsiya qilingan nuqson sifatida qabul qilinadi)
Quloq amputatsiyasi	Ear cropping	Купирование ушей	2,5-4 oyligida quloqlarning bir qismini amputatsiya qilish. Ba'zi mamlakatlarda taqiqlangan
Laynbridging	linebreeding	Лайнбридинг	uchinchi yoki to'rtinchi avlodlarda umumiy ajdod bo'lgan qarindosh itlarning kesishishi.
Letal genlar	Lethal genes	Летальные гены	organizmning balog'atga etgunga qadar o'limiga olib keladigan nuqsonlarni keltirib chiqaradigan mutant genlar. Letal genlar retsessivdir.
Lizotsim	Lysozyme	Лизоцим	bakteritsid xususiyatlariga ega bo'lgan it tupurigida mavjud bo'lgan modda; yaralarni davolash va terining shikastlanishiga yordam beradi
Liniya	Line	Линия	itlar bitta umumiy ajdoddan (erkak) kelib chiqqan va bir necha avlodlar davomida bir xil irsiy barqaror tashqi yoki ishchi sifatlarini ko'paytiradi. Turli liniyalarga mansub otalarning juftlashishi kesishish deyiladi.
UTK (Umumiy tayyorgarlik kursi)	General training course	ОКД	katta va o'rta itlar uchun umumiy o'quv kursi. OKD kursida o'qitish jarayonida itlar itoatkorlik ko'nikmalarini rivojlantiriladi va murabbiyning buyruqlari va imo-ishoralariga ko'ra oddiy harakatlarni bajarishga o'rgatiladi.
Oligodantiya	Oligodanty	Олигодантия	tishlarning etishmasligi. Resessiv xususiyatga ega bo'lgan irsiy nuqson
Zot	Breed	Порода	umumiy kelib chiqishi va

			konstitutsiyasi, tashqi ko'rinishi va xatti-harakatlarining xarakterli, irsiy xususiyatlariga ega bo'lgan itlar guruhi
Zotdorlik	Pedigree	Породистость	Naslli (tozaqonli)
Premolyar	Premolars	Премоляры	premolyar tishlar, qoziq tishlar va molarlar orasida joylashgan
Sakrash bo'g'imi	Hock joint	Скакательный сустав	tibia va metatarsus suyaklarining artikulyatsiyasi
Estrus (kuyikish)	Heat (hunting)	Течка (охота)	Urg'ochi hayvonlarda jinsiy faollik davri, bu davrda tuxumlar tuxumdonlarda pishib, urug'lanishga qodir
O'yinchoq (itlar uchun)	Toy (for dogs)	Той - (англ, "игрушка")	bu zotning eng kichik "o'yinchoq" vakillarini belgilash uchun zot nomiga prefiks: o'yinchoq pudel, o'yinchoq teriyeri.
Uchinchi qovoq	Third eyelid	Третье веко	ko'zning ichki burchagidagi shilliq qavatning vertikal burmasi
Yag'rin	Withers	Холка	Kurak suyaklari ustidagi orqa tomonning maydoni
Eksteryer	exterior	экстерьер	itning ko'rinishi. Tashqi ko'rinishni baholashda itning umumiy estetik taassurotini va uning holatini hisobga olgan holda individual xususiyatlar va ularning kombinatsiyasining uyg'unligi hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gavlin I. Razvedenie domashnix jivotnyx. Alma-Ata. 1985.
2. Ziyadinov F. Kinologiya asoslari. Toshkent 2004.
3. Zubko V.N., Ukrojenko V.A. Dressirovka slujebnyx sobak. M. DOSAAF, 1977.
4. Zubko V.N. Slujebnoe sobakovodstvo. M., DOSAAF, 1987.
5. Korneev L.A. Slovo o sobake. M., Mysl, 1989.
6. Korneev L.A. Sportivnaya dressirovka sobak slujebnyx porod. – M., 1994.
7. Naymonova D. Atlas porod sobak. Praga, 1985.
8. Narziev D.X. Hayvonlar anatomiyasi. Toshkent. Mehnat. 1986.
9. Chistyakov. Vospitanie i dressirovka slujebnoy sobaki. Sankt-Peterburg, 2005.
10. Xasanova R.A. Dekorativnoe sobakovodstvo: Neobyichnoe i obyichnoe o sobakax. – T.: Mehnat, 1990.

MUNDARIJA

I. Kirish	- 3
1. Itlarning kelib chiqishi	- 4
II. Itlarning anatomo - fiziologik tuzilishi	- 7
1. Anatomiya va fiziologiya to'g'risida tushuncha	- 7
2. Harakat a'zolari sistemasi	- 9
3. Ovqat hazm qilish a'zolar sistemasi	- 12
4. Nafas olish a'zolar sistemasi	- 14
5. Qon va limfa aylanish a'zolar sistemasi	- 15
6. Ayirish a'zolari	- 18
7. Ko'payish a'zolari	- 18
8. Nerv sistemasi	- 20
9. Sezgi a'zolari (analizatorlar)	- 21
III. It zotlari. Itlarning konstitutsiyasi	- 28
1. It zotlari	- 28
2. Itlarning konstitutsiyasi	- 28
IV. Itning tashqi va ichki tuzilishi (eksterer va interer)	- 33
1. Eksterer	- 33
2. Interer	- 46
V. Itlarni saqlash tartibi	- 47
VI. Itlarni urchitish	- 50
VII. Xizmat itlarining ratsioni va ularni oziqlantirish tartibi	- 52
VIII. Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari	-56
IX. It o'rgatishda tashqi va ichki omillarning ahamiyati	-82
X. Itlarni o'rgatishning ayrim usullari	- 88
XI. GLOSSARIY	101
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	108

ОГЛАВЛЕНИЕ

I. Введение -	3
1. Происхождение собак -	4
II. Анатомо-физиологическое строение собак -	7.
Понятие об анатомии и физиологии -	7
2. Система органов движения -	9
3. Система органов пищеварения -	12
4. Дыхательная система -	14
5. Система органов крово- и лимфообращения -	15
6. Органы выделения	18
7. Органы размножения -	18
8. Нервная система -	20
9. Органы чувств (анализаторы) -	21
III. Породы собак. Конституция собак -	28
1. Породы собак -	28
2. Конституция собак -	28
IV. Внешнее и внутреннее строение собаки (экстерьер и интерьер) -	33
1. Экстерьер -	33
2. Интерьер -	46
V. Порядок содержания собак -	47
VI. Дрессировка собак -	50
VII. Рацион служебных собак и порядок их кормления -	52
VIII. Теоретические основы дрессировки собак -	56
IX. Значение внешних и внутренних факторов в дрессировке собак -	82
X. Некоторые методы дрессировки собак -	88
XI. ГЛОССАРИЙ	101
СПИСОК ИСПОЛЪЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	108

TABLE OF CONTENTS

I. Introduction -	3
1. Origin of dogs -	4
II. Anatomico - physiological structure of dogs -	7
1. Understanding of anatomy and physiology -	7
2. System of movement organs -	9
3. Digestive organ system -	12
4. Respiratory system -	14
5. Organ system of blood and lymph circulation -	15
6. Members of subtraction -	18
7. Members of reproduction -	18
8. Nervous system -	20
9. Sensory organs (analyzers) -	21
III. Dog breeds. Constitution of dogs -	28
1. Dog breeds -	28
2. Constitution of dogs -	28
IV. External and internal structure of the dog (exterior and interior) -	33
1. Exterior -	33
2. Interior -	46
V. Procedure for keeping dogs -	47
VI. Dog breeding -	50
VII. Diet of service dogs and their feeding procedure -	52
VIII. Theoretical foundations of dog training -	56
IX. Importance of external and internal factors in dog training -	82
X. Some methods of training dogs -	88
XI. GLOSSARY	101
LIST OF USED LITERATURE	108

B.D.Narziyev

Itlarni o'rgatishning nazariy asoslari

o'quv qo'llanma

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi**

Nashr-matbaa faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 10.05.2024 y. № 273109
va 24.05.2024 y. № 283607-sonli tasdiqnomalar berilgan



Direktor
Muharrir
Tex. muharrir

J.Shukurov
L.Xoshimov
A.Umarov

ISBN: 978-9910-8603-4-8

3785



Bosishga ruxsat etildi 27.12.2024 yil.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

Times New Roman garniturası.

Shartli hisob tabog'i -7,0. Nashriyot hisob tabog'i - 7,0

Adadi 20 nusxa. Buyurtma № 18/9

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Nashr matbaa markazida chop etildi.

Samarqand sh., Mirzo Ulug'bek k., 77

Tel. 93 359 70 98

ISBN 978-9910-8603-4-8



9 789910 860348